

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ORIENTAL UNIVERSITETI**

N. S. MIRSAGATOVA

PEDAGOGIK MAHORAT

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsion rivojlanish
vazirligi tomonidan talabalar uchun darslik
sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT–2025

UO‘K: 37.091:811.111’355

KBK: 74.58ya73

M 53

N. S. Mirsagatova. Pedagogik mahorat. Darslik.–T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2025. 264 b.

ISBN 978-9910-658-85-3

Mazkur darslik pedagogika va psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriyat talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, bakalavriyat ta‘lim standartlariga kiritilgan «Pedagogik mahorat» fani sohasiga oid bilimlar mazmunini qamrab oladi. Ushbu darslikda pedagogik mahorat, ta‘lim tizimini modernizatsiyalashning tashkiliy metodik asoslari, uning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, asosiy kategoriyalari va tamoyillari, pedagogikaning kasbiy mahorati, uning o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni va ahamiyati, shaxsda ijodiy tafakkurni rivojlanishi, ijtimoiylashuv jarayonida shaxs sifatlarining tutgan o‘rni, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi, o‘qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi, pedagogik texnika haqida tushuncha, pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi, nutq texnikasi va madaniyati, pedagogik qobiliyat – pedagogik mahoratning asosi, pedagogik jarayonni loyihalash, o‘quv loyihalari yaratishning pedagogik imkoniyatlari, zamonaviy ta‘lim sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, interfaol metod asosida ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, pedagogik mahoratni shakllanirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni kabi masalalari yoritilgan. Mazkur darslikdan oliy ta‘lim muassasalari, professional ta‘lim muassasalari hamda maktab o‘qituvchilari, talabalari, shuningdek, mazkur fan bilan qiziquvchi kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Mas‘ul muharrir:

Sh. T. Xalilova – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

F. Mirzayeva – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD dotsent;

M. J. Toshov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9910-658-85-3

© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2025.

KIRISH

*Ilm sahroda-do‘st,
hayot chorrahalarida - tayanch,
yolg‘iz damlarda - yo‘ldosh,
baxtiyor daqiqalarda - rahbar,
qayg‘uli onlarda - madadkor,
odamlar orasida - zeb-u ziynat,
dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir.*

Hadisdan

Farovon hayot mukammal tarbiyadan boshlanadi. Ma‘lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi” deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Hozirgi qaltis davrda tarbiya mukammal bo‘lishi uchun bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi» – deydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar o‘qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g‘oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur ta‘rif yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o‘qitish shakllarida foydalaniladigan o‘qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo‘llashda, ilmiy bilishga doir g‘oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar Vatani bo‘lib kelgan O‘zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o‘zgacha ma‘no kasb etishi muqarrar. O‘qituvchi – O‘zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi

bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi muhimdir.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish, pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabat muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlarida qizg'in bahs qilishgan. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'lmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyat hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

“Pedagogik mahorat” fani kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirish sirlarini o'rgatadi. Talabalar o'qish va o'qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, bilim, ko'nikma va malakalar, psixik ta'riflarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratadilar. Hozirgi kunda darsliklar, kommunikatsion axborot texnologiyalari qanchalik rivojlangan bo'lmasin, pedagogik amaliyot, ta'lim - tarbiya ishlarining muvaffaqiyati baribir o'qituvchining bilimiga, uning kasbiy mahoratiga bog'liq.

“Pedagogik mahorat” fanini o‘qitishni yanada takomillashtirish, uning samaradoriligini oshirishga e’tiborni kuchaytirish hozirgi kunning dolzarb muammosi sifatida tan olinmoqda. Darslik hozirgi paytda o‘qituvchi mahoratini zamon talablari darajasida rivojlantirish yuzasidan tadqiq qilingan so‘nggi ilmiy yangiliklar, axborot kommunikatsion texnologiyalarining o‘qituvchi kasbiy mahoratini oshirishdagi ma’lumotlar bilan boyitildi. Mazkur ma’lumotlar oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchi va talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

1-mavzu: TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHNING TASHKILY METODIK ASOSLARI

Mavzu rejasi:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yilgan talablar.
2. Oliy ta'lim tizimini o'quv jarayonini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari.
3. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari.

Tayanch tushunchalar: Ta'lim tizimi, ta'lim islohotlari, maktabgacha ta'lim vazirligi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keying ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yilgan talablar

Mamlakatimizning rivojlanishi, uning taraqqiyoti, yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, zamon talabiga mos bilimlarni chuqur egallagan mutaxassislar, ularning malakasi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Shuning uchun ham yurtimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ularning dunyoqarashini yangicha shakllantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda chinakam bilimli, ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun kurasha olishi mumkin. Kelajak yosh avlodning yangicha, erkin, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, haqiqatni aytishdan cho'chimaydigan, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiq-oydin bayon etadigan, Vatanimizning ravnaqi va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan, yoshlar qilib voyaga yetkazish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida Yangi O'zbekistonni yaratish uchun iqtisodiy, ta'lim, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-gumanitar kabi sohalarda yangi imkoniyatlar

yaratilmoqda. Mazkur ishlarni muvaffaqiyati o‘laroq O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullandi hamda 2020-yilning 23-sentabr kundan kuchga kirdi. Mazkur Qonun 11 bob 75 moddadan iborat.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga asosan ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ✓ ta’lim ustuvorligining tan olinishi;
- ✓ ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ✓ ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- ✓ ta’lim olishga doir keng imkoniyatlarning ta’minlanishi;
- ✓ ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ✓ ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik va demokratik xususiyatlari;
- ✓ ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- ✓ o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;
- ✓ davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ✓ o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- ✓ insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;
- ✓ jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ✓ ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- ✓ bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;
- ✓ ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;
- ✓ ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Ushbu qonunning V bobi “Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” deb nomlanib, 44-moddasida Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga alohida urg‘u berilganligi muhim ahamiyatga egadir.

Tegishli ma’lumoti (Qonunga ko‘ra), kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan

shugʻullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar oʻz mutaxassisligi boʻyicha pedagogik faoliyat bilan shugʻullanish huquqiga ega. Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, pedagogik oliy maʼlumotga ega boʻlmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan oʻtganidan keyin taʼlim tashkilotlarida (bunda oliy taʼlim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shugʻullanish huquqi beriladi.

Ishlab chiqarish taʼlimi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan oʻtmasdan professional taʼlim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shugʻullanishga haqli.

Zarurat boʻlganda professional taʼlim tashkilotlari ishlab chiqarish taʼlimi ustalarini, shuningdek, tegishli bilim hamda amaliy koʻnikmalarga ega boʻlgan, oliy maʼlumoti boʻlmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qoʻshimcha mashgʻulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

45-moddasida Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari qayd etilgan:

“Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qoʻllab-quvvatlanadi, oʻz kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obroʻsini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek, oʻz huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlari beriladi.”

Taʼlim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, shaʼni, qadr-qimmati va ishchanlik obroʻsi davlat himoyasi ostida boʻladi.

Taʼlim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, taʼlim oluvchilarning bilimlarini toʻgʻri va xolis baholashga taʼsir koʻrsatishga, shuningdek, ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga toʻsqinlik qilishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

✚ oʻz shaʼni, qadr-qimmati va ishchanlik obroʻsini himoya qilish;

✚ oʻquv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, oʻqitish uslubiyatini ishlab chiqish,

shuningdek, tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish;

- ✚ zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;

- ✚ kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

- ✚ o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

- ✚ davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejaları va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- ✚ ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

- ✚ ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek, ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

- ✚ kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a'zosi bo'lish, xodimlarining vakillari bo'lish, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatida qatnashish;

- ✚ o'z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalarida birlashish;

- ✚ o'z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalaniish;

- ✚ davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish (davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari uchun);

- ✚ ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagog xodimlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan har qanday boshqa ishga jalb qilish taqiqlanadi.

46-moddasida Pedagog xodimlarning majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

- ✓ ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadri-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

- ✓ o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi;
- ✓ axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

- ✓ ta‘lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e‘tibor qaratishi;

- ✓ voyaga yetmagan ta‘lim oluvchilar bilan ta‘lim-tarbiya ishlarini, ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

- ✓ ta‘lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta‘sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi;

- ✓ o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o‘tishi;

- ✓ tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi shart.

Pedagog xodimlarning zimmasida qonun hujjatlariga, shuningdek, ta‘lim oluvchi va ta‘lim tashkiloti o‘rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlarni sodir etish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta‘lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Respublikamizda ta‘lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida qabul qilingan mazkur qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

- ✚ davlat akkreditatsiyasi – davlat ta‘lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek, nodavlat ta‘lim tashkilotlari faoliyatining davlat ta‘lim standartlari va davlat ta‘lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e‘tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

- ✚ davlat ta‘lim muassasasi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta‘lim standartlariga va davlat ta‘lim talablariga muvofiq ta‘lim beradigan muassasa;

✚ davlat ta'lim standartlari – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmuyi;

✚ davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

✚ malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

✚ mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

✚ nodavlat ta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

✚ tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

✚ ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

✚ ta'lim kampusi – yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari-ning vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuyidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

✚ ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

✚ ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi – ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda ta'lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo'lib, u fan-texnika, madaniyatning yuksala borishi bilan chambarchas holda, rivojlanib borishini nazarda tutadi. Insoniyat mavjud ekan, har doim taraqqiyot sari intiladi va yangidan-yangi fan yutuqlarini qo'lga kiritib boradi. Ta'lim tizimi esa ana shu fan yangiliklarini kelajak avlodga yetkazib berishni ta'minlaydi. Shu bois, ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning ushbu yutuqlardan oqilona foydalangan holda ulardan to'g'ri xulosalar chiqarib, kelajakda o'zlarining munosib o'rinlarini topishga zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»ni qonunining 5-moddasida belgilab qo'yilganidek, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

- ✚ ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;
- ✚ ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;
- ✚ ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;
- ✚ kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- ✚ umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;
- ✚ oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shart-nomalariga va qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidir. O'zbekiston Respublikasida doimiy

yashayotgan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega. Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari ushbu qonunning 34-moddasida keltirilgan bo'lib, unda quyidagilar keltirilgan:

“Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.”

Davlat ta'lim talablari:

o maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini;

o ta'lim tuzilmasini va ta'limni amalga oshirish shartlarini;

o ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy va kasbga oid sifatleri to'g'risidagi normalarni belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti qo'llaniladi. Davlat ta'lim standartlarini va (yoki) davlat ta'lim talablarini bajarish barcha ta'lim tashkilotlari uchun majburiydir, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno. Nodavlat ta'lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, oliy ta'lim, o'rta maxsus ta'lim hamda professional ta'limning o'quv rejalari va o'quv dasturlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Ushbu maqsadlar uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tayanch davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarini belgilaydi. Tayanch davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalari kadrlarning talabgorlari ishtirokida davlat ta'lim standartlarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini tayyorlashni amalga oshiradi. Davlat ta'lim standartlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi. Oliy, professional, o'rta maxsus va umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Tegishli vakolatlar berilgan boshqa vazirliklar, davlat

qo'mitalari va idoralar davlat ta'lim standartlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi. Davlat ta'lim talablari ta'lim sohasidagi tegishli, vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruxiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish maxsus o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi davlat oliy ta'lim muassasalariga mustaqil ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv dasturlari, malaka talablari hamda o'quv rejalari asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha vakolatlarni berishi mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimi, uning tarkibiy qismlari va darajasi.

Uzluksiz ta'lim – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. Uzluksiz ta'lim milliy modelning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Uzluksiz ta'lim ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida ta'lim tizimi, turlari va shakllari keltirilgan bo'lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- ❖ maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- ❖ umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- ❖ professional ta'lim;
- ❖ oliy ta'lim;
- ❖ oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- ❖ kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- ❖ maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek,

bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga tayyorlashga qaratilgan taʼlim turidir. Maktabgacha taʼlim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha boʻlgan bolalarni boshlangʻich taʼlimga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha taʼlim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu qonun, shuningdek, “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim umumtaʼlim oʻquv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda koʻnikmalarni oʻzlashtirishga qaratilgan.

Umumiy oʻrta taʼlim (I-XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlangʻich taʼlim (I-IV sinflar);
- tayanch oʻrta taʼlim (V-IX sinflar);
- oʻrta taʼlim (X-XI sinflar).

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga toʻladigan yilda qabul qilinadi. Boshlangʻich taʼlim - taʼlim oluvchilarda umumiy oʻrta taʼlimni davom ettirish uchun zarur boʻlgan savodxonlik, bilim, malaka va koʻnikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Tayanch oʻrta taʼlim - oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilarga bilim, malaka va koʻnikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tayanch oʻrta taʼlim doirasida (VII-sinfdan soʻng) taʼlim oluvchilarda kasblar boʻyicha birlamchi bilim va koʻnikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish boʻyicha choralar amalga oshiriladi. Oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va koʻnikmalar oʻzlashtirilishini, shuningdek, taʼlimning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini taʼminlaydi. Professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish, shuningdek, taʼlim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi. Umumiy oʻrta taʼlim umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy boʻlgan oʻn bir yil davomida amalga oshiriladi.

Professional taʼlim. Professional taʼlim egallanadigan kasb va mutaxassislik boʻyicha quyidagi darajalarni oʻz ichiga oladi:

- ✓ boshlang'ich professional ta'lim;
- ✓ o'rta professional ta'lim;
- ✓ o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul, kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi. O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi. O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega. Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi. Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim. Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek, ushbu qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga - bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir. Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yunalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi. Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim. Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi. Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek, harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonun

hujjatlarida belgilanadi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat kiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim. Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin. Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan. Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot- kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

2. Oliy ta'lim tizimini o'quv jarayonini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga doir davlat dasturi ijrosi jarayonida sifatli ta'limni amalga oshirish texnologiyalarini modernizatsiyalab borish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan modernizatsiyalash orqali ta'lim sifatini oshirish texnologiyalarini takomillashtirishning tizimli shaklini ishlab chiqish dolzarb bo'lib

turibdi. Shu o‘rinda, ana shu masalaning tahliliga diqqatingizni tortamiz. Maktabgacha va maktab ta’limini modernizatsiyalash tizimi. “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur”da ta’lim tizimini maqbullashtirish vazifalari belgilangan. Shu jihatdan, maktabgacha va maktab ta’limini modernizatsiyalashning quyidagi yo‘nalishlariga amal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) maktabgacha va maktab ta’limi vazifalarini aniq belgilash;
 - 2) maktabgacha va maktab ta’limi o‘quv adabiyotlarining uzviyligini ta’minlash;
 - 3) maktabgacha va maktab ta’limi tajribalarini ommalashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuniga asosan maktabgacha ta’lim mamlakatimizda uzluksiz ta’limning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Ayni paytda maktabgacha ta’limni modernizatsiyalashda quyidagilarga e’tibor berish muhim ahamiyatga ega:

- a) maktabgacha ta’lim va tarbiyaning aniq asoslarini belgilash;
- b) maktabgacha ta’limning jahon tajribasiga asoslanish;
- v) maktabgacha ta’limni oliy ma’lumotli pedagoglar bilan to‘liq ta’minlash.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim 5-7 yoshli bolalarning savodxonligini tarkib toptirish va ularni sanoqqa o‘rgatish vazifasini bajarmoqda. Shu sababli maktab ta’limining boshlang‘ich sinf vazifasini modernizatsiya qilishga ehtiyoj mavjud. Mazkur masalada bizning yondashuvimiz quyidagicha: maktabgacha ta’lim bolalarning savodxonligini tarkib toptirishi, ularni maktab ta’limiga tayyorlashi va ruhiy-jismoniy chiniqtirish vazifasini bajarishi, maktab ta’limining boshlang‘ich sinf bosqichi o‘quvchilarni fanlar asoslari bilan dastlabki bosqichda tanishtirishi, ularni bilim olamiga olib kirishi va ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlash vazifasini bajarishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, bugungi kunda maktabgacha ta’lim jarayonidayoq bolalarni kompyuter kabi texnik imkoniyatlar bilan tanishtirish amalga oshirilmoqda. Shu ma’noda maktabgacha va maktab ta’limi yagona vazifaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining yangi konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Bunday konsepsiya asosida maktabgacha va maktab ta’limini yangilash

imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Maktabgacha ta’limning jahon tajribasiga asoslanishda nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarini kengaytirish taqozo etiladi. Buning uchun oilaviy maktabgacha ta’lim muassasasi, shaxsiy maktabgacha ta’lim muassasasi, tashkilotlarning maktabgacha ta’lim muassasasi, xorijlik hamkorlarning maktabgacha ta’lim muassasasi va tashabbuskor shaxslarning maktabgacha ta’lim muassasasini tashkil etish bilan mazkur tizimni yangilash mumkin. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarining ko‘p bo‘lishi maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiyalash va maktabgacha ta’lim bilan bolalarni to‘liq qamrab olish imkoniyatini beradi. Mamlakatimizning chekka hududlarida maktabgacha ta’lim bo‘yicha o‘ziga xos tajribalar mavjud. Bunday tajribalarda bolalarning savodxonligini tezkor tarkib toptirish, bolalarga oila a‘zolarining salbiy ta‘sirini susaytirish, bolalarni shaxs sifatida shakllantirish va pedagogik tajribalarni ayirboshlash omillari mavjud. Shu sababli bunday tajribalarni ommalashtirish bilan maktabgacha ta’lim jarayonini yangilab borish omillariga ega bo‘linadi. Tajribalar asosida maktabgacha ta’lim jarayonini modernizatsiyalash kutilgan samarani beradi. Maktab ta’limini modernizatsiya qilishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq beladi:

- a) boshlang‘ich sinf ta’lim jarayonini takomillashtirish;
- b) o‘rta sinflarda fanlar asoslarini to‘liq o‘qitishga erishish;
- v) yuqori sinflarda o‘quvchilarni faoliyatga tayyorlash.

Boshlang‘ich sinflarda (1-4-sinflarda) o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini to‘liq shakllantirish bilan mazkur ta’lim bosqichini yangilashga erishish mumkin. Pedagog va fiziolog olimlarning fikricha, 7-11 yoshli bolalarda jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanish jarayoni tezlashgan. Shu sababli, boshlang‘ich ta’limning asoslarini yangilashga ehtiyoj mavjud. Bunda o‘quv fanlari tarkibini yangilash muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari Informatika o‘quv fani asoslarini kutilgan darajada o‘zlashtirmoqda va bu fan 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab amalga kiritilganligini eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda, boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini ana shunday yangi fanlar vositasida yangilab borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugungi kunda o‘rta sinflarda (5-9-sinflarda) o‘quv fanlarining asoslari to‘liq o‘qitilmoqda. Ayni paytda, o‘quvchilarning

layoqat va qiziqishlaridan kelib-chiqib, ularni o‘quv fanlariga yo‘naltirish dolzarb bo‘lib turibdi. Buning uchun aniq, tabiiy va gumanitar o‘quv fanlarining o‘qituvchilari faol bo‘lishi kerak. Misol uchun, bu borada mamlakatimizning “Matematika” o‘quv fani o‘qituvchilarining tajribalarini ommalashtirish kutilgan samarani beradi. Chunki, mazkur toifa o‘qituvchilar har bir o‘quvchi bilan individual ishlash tajribasiga ega va shu sababli o‘quvchilar matematika fani bo‘yicha jahon olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. Shu ma’noda bunday o‘qituvchilarning tajribalarini ommalashtirish bilan o‘rta sinflarda o‘quv fanlarini o‘qitish asoslarini yangilash imkoniyatiga ega bo‘linadi. Yuqori sinflarda (10-11-sinflarda) o‘quvchilarni faoliyatga tayyorlash bilan maktab ta’limini kutilgan darajada modernizatsiyalash mumkin. Buning uchun o‘quvchilar ta’limning keyingi bosqichi yoki turlariga ta’lim, tarbiyaviy hamda faoliyat jihatidan tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki o‘quvchilar maktab ta’limidan keyin ta’limni davom ettirishi yoki faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega. Shu ma’noda, maktab ta’limi yakunida o‘quvchilar yetuk fuqaro sifatida tayyorlanishi kerak bo‘ladi. Bu hol yuqori sinflarning o‘quv fanlari asoslarini yangilashni taqozo etadi. E’tibor berilsa, maktabgacha va maktab ta’limini modernizatsiyalash tizimida mazkur ta’lim bosqichlarining vazifalarini takomillashtirishga asoslanadi. Chunki, jamiyatimizning texnologik rivojlanish jarayoni ushbu ta’lim bosqichlarining vazifalarini muntazam yangilab borishni taqozo etmoqda.

Ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta’lim muassasalarini modernizatsiyalash tizimi. Bugungi kunda mamlakatimizda yuzdan ortiq ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Ularga o‘quvchilar boshlang‘ich ta’limdan keyin qabul qilinadi. Shu sababli, ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilishda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

1) mamlakatning eng chekka hududlarida ham ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta’lim muassasalarini tashkil etish;

2) ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta’lim muassasalarining yagonalashgan va tipiklashgan o‘quv dasturi hamda o‘quv adabiyotlariga ega bo‘lish;

3) o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalariga yo'naltirish mezonlarini ishlab chiqish; Ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalari bugungi kunda shahar hududlarida faoliyat yuritmoqda. Shu sababli, mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi ta'lim muassasalarida ularning filiallarini tashkil etish, umumiy o'rta ta'lim maktablarini ixtisoslashtirish yoki ijodiy ta'lim muassasasiga aylantirish, tajribali o'qituvchilarning individual sinflarini tashkil qilish bilan ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalarini yangilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalarining tajribali o'qituvchilari dars mashg'ulotlarini onlayn shaklida tashkil qilish bilan mazkur ta'lim tizimini yangilash mumkin. Shu sababli, bu borada yagona va yangi konsepsiyani ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalarining yagona o'quv reja va o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlarini yaratish ta'lim jarayonini modernizatsiyalashda muhim ahamiyatga ega. Chunki, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalarida turli xil o'quv dasturlari va adabiyotlari amal qilmoqda. Bu hol o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasida har xil ko'rsatkichlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalarining o'quv adabiyotlarini yagonalashtirish va yangilash bilan mazkur ta'lim bosqichini modernizatsiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz. O'quvchilarni ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalariga yo'naltirish mezonlarini yangilab borish dolzarb hisoblanadi. Chunki, har o'quv yili boshida ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari va adabiyotlari yangilanib bormoqda. Shu sababli, o'quvchilar ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalariga bilim, layoqat va qiziqish nuqtayi nazaridan yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni paytda, mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi ta'lim muassasalarining o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalariga yo'naltirish mezonlarini maqbullashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularning barchasi ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalarini yangilash imkoniyatini beradi.

Ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalarini yangilash bilan mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish texnologiyalarini takomillash-tirish mumkin. **O'rta maxsus, professional va oliy ta'lim jarayonini modernizatsiyalash tizimi.** Mamlakatimizda kollejlari, akademik litseylar va texnikumlardan iborat o'rta maxsus ta'lim muassasalari, kasb-hunar maktablari professional ta'lim muassasasi sifatida hamda institut va universitetlardan iborat oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Sifatli ta'limni amalga oshirish texnologiyalarini takomillashtirish uchun mazkur ta'lim jarayonini yangilash taqozo etiladi. Shu jihatdan, bu borada quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'rta maxsus ta'lim jarayonini modernizatsiyalash;
- 2) professional ta'lim jarayonini modernizatsiyalash;
- 3) oliy ta'lim jarayonini modernizatsiyalash.

Mamlakatimizda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'rta maxsus ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi 9-11-sinf bitiruvchilarini kichik mutaxassislar sifatida tayyorlashdan iborat. Bugungi kunda, mazkur o'rta maxsus ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonini modernizatsiyalash ehtiyoji mavjud. Buning uchun quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- a) mutaxassislik turlarini yangilash;
- b) xorijiy mamlakatlarning o'quv dasturlarini joriy etish;
- s) kichik mutaxassislik maqomini belgilash.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari mutaxassislik turlarini muntazam yangilab borish kerak bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, yangi texnologiyalarga asoslangan mutaxassislik toifalariga ehtiyoj yuqoridir. Misol uchun, ishlab chiqarish texnikaga asoslangan sohalarida ixtirochilikka asoslangan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Shu sababli, muntazam ravishda o'rta maxsus ta'lim muassasalarining mutaxassislik turlarini yangilab borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xorijiy mamlakatlarning akademik litsey va kollejlari xalqaro miqyosida mehnat faoliyatini yuritish imkonini beruvchi o'quv dasturlari amal qiladi. Shu ma'noda, ana shunday o'quv dasturlarini mamlakatimiz o'rta maxsus ta'lim muassasalariga joriy etish xalqaro miqyosida mehnat faoliyati yuritadigan kichik mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi. Shu jihatdan, mazkur

ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligini rivojlantirish taqozo etiladi. Bugungi kunda, mamlakatimizda o'rta maxsus ma'lumotli kichik mutaxassislarining maqomini belgilab qo'yish zaruriyati mavjud. Unga ko'ra, kichik mutaxassislar davlat tomonidan ish bilan qat'iy ta'minlanishi va ularning oliy ta'lim muassasasiga uchun imtiyozlar belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. E'tibor berilsa, bunday yondashuv o'rta maxsus muassasalarini modernizatsiyalash imkonini beradi. Mamlakatimizda kasb-hunar maktablari professional ta'lim muassasalari sifatida faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy maqsadi tezkor muddatda shaxsni kasb va hunarli qilishdan iborat. Shu ma'noda, ushbu ta'lim muassasalari faoliyatni yangilashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) kasb-hunar maktablarini oliy ta'lim muassasalariga birlashtirish;
- b) mazkur ta'lim muassasalarining kasb va hunar turlarini takomillashtirib borish;
- v) ushbu ta'lim muassasalari bitiruvchilarini kafolatlash.

Kasb-hunar maktablarini hududlardagi oliy ta'lim muassasalariga birlashtirish ularning faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Chunki, oliy ta'lim muassasalari kasb-hunar maktablarini o'quv materiallari bilan ta'minlash, ularni texnologik jihozlash va professional mutaxassislar bilan ta'minlash imkoniyatlariga ega. Bu borada, akademik litseylar va kollejlarda tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kasb-hunar ta'lim muassasalarining kasb va hunar turlarini muntazam yangilab borish muhim ahamiyatga ega. Bunda mavjud ish o'rinlaridan kelib chiqib kasb va hunar turlarini belgilash muhim o'rin tutadi. Shu sababli, hududlarda mazkur ta'lim muassasalarining miqdorini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun, nodavlat kasb-hunar ta'lim muassasalarini keng ko'lamda tashkil etish kutilgan samarani beradi. Kasb-hunar ta'lim muassasalarini bitiruvchilari kafolatlanishi kerak. Unga ko'ra, davlat mazkur ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashi, ularning faoliyat maqomini belgilab qo'yishi va nafaqaga chiqish ta'riflari bo'yicha qoidalarining mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, kasb-hunar ta'lim muassasalari yangilanib borayotgan ishlab chiqarish jarayonini tezkor ravishda kasb va hunarli shaxslar bilan ta'minlash imkonini beradi. Bularning barchasi kasb-hunar ta'limi

muassasalarini modernizatsiyalash asosi hisoblanadi. Mamlakatimizda bugungi kunda yuzdan ortiq davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Shu ma'noda, mazkur ta'lim muassasalarini modernizatsiyalashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish;
- b) masofaviy ta'lim ko'lamini kengaytirish;
- v) oliy ma'lumotli shaxslarni kafolatlash.

Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda qo'shma ta'lim dasturlarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu bilan oliy ma'lumotli shaxslarning xalqaro miqyosda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi imkoniyatiga ega bo'linadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda tayyorlanayotgan oliy ma'lumotli shaxslarning diplomlarini xorijiy mamlakatlarda tan olinishiga erishiladi. Mamlakatimizning eng chekka hududlarida iqtidorli yoshlar istiqomat qilmoqda. Ularning oliy ma'lumotli bo'lishi uchun oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyasini kengaytirish lozim bo'ladi. Unga ko'ra, yoshlar masofadan turib oliy ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Chunki, bugungi kunda mamlakatimizda masofaviy ta'lim texnologiyasi bo'yicha milliy tajriba mavjudligini eslatib o'tish joiz. Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish jarayoni oliy ma'lumotli shaxslarni kafolatlashni taqozo etadi. Unga ko'ra, davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari teng ish bilan ta'minlanishi, ularning lavozim bo'yicha o'sib borishi kafolatlanishi, mehnat, dam olish huquqlarining aniqligi va sog'liqni saqlash imtiyozlariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. E'tibor berilsa, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini modernizatsiyalashning o'ziga xos asoslari mavjud. Ularni amalga oshirish oliy ta'lim muassasalari faoliyatini kuchaytirish imkonini beradi. Shunday qilib, mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta'limi, ixtisoslashtirilga va ijodiy ta'limni hamda o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim jarayonini yangilash muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan mazkur ta'lim muassasalarining faoliyati kuchayadi va mutaxassislar tayyorlash jarayoni takomillashadi.

3. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari

Ta'lim va tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislar (o'qituvchilar) ta'lim va tarbiyaning samarali ta'sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida, eramizdan oldingi davrlardayoq ta'lim-tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o'qituvchiga bo'lgan talablar kuchayib bordi. O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshladi. Miloddan avvalgi VII - VI asrlarda O'rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining ortib borishi bilan ijtimoiy hayotda ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Turk va fors tilida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar yuzaga keldi. Yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo'llanilgan, yerli millatning o'ziga xos urf - odati va an'analariga mos ravishda tatbiq etilgan ta'lim va tarbiyaning noyob usul va vositalari, tadbir va shakllari vujudga kela boshladi. Hali maktab bo'lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davrdayoq qabila a'zolari bolalarda mehnatsevarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasida aql-idrok bilan faoliyat olib borishgan. Ularning ta'lim-tarbiya usullari yillar davomida hayot tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davrning olijanob mevasi sifatida bizning davrimizgacha yetib keldi. VII asrlarga kelib, O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta'lim va tarbiya beruvchi mudarrislarining qizg'in faoliyati hamda ularga qo'yiladigan talablarning nihoyatda rang-barangligi va xilma-xilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk ibtidoiy jamoaviy quldorlik davrlaridan boshlab, bolalarning ta'lim va tarbiyasiga javobga ulamolar hamda mudarrislar nasihat, tushuntirish, rag'batlantirish maqtash, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, ta'qiqlash, majbur qilish po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Biroq, mudarrislarining o'zi bolaga ta'lim-tarbiya berish uchun mukammal amaliy va nazariy bilimga ega bo'lishi kerak edi. Shu sababli, mudarrislar savodli madrasa toliblari orasidan tanlangan va

ma'lum muddat tayyorgarlikdan o'tishgan. Markaziy Osiyoning Xorazm zaminida shakllangan eng qadimiy "o'tmishdagi dinlarning eng kuchlilaridan bo'lgan" (Yu.A.Rappoport zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da bolalar ta'lim tarbiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlar berilgan. "Avesto"da ta'kidlanadiki, bilim va tarbiya hayotning eng muhim tirgagi bo'lib hisoblanadi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo, yozishni o'rganish asosida bilim olishi kerak, so'ngra esa odob-axloqi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin. Kohin muallimlar, oqsoqollar Kengashi tomonidan tanlanib, qat'iy belgilangan qoidalar asosida yoshlarga ta'lim va tarbiya berishgan "Avesto"da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan: a) diniy va axloqiy tarbiya; b) jismoniy tarbiya; v) o'qish va yozishga o'rgatish. Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan muallimlar bolalarni yetti yoshidan boshlab, diniy tarbiyaga asoslangan maktablarga jalb qilishgan. Maktablarda "muqaddas yashil ko'ylak" kiydirish marosimi o'tkazilgach, kohin muallimlar bolalarni "Avesto"da keltirilgan madadkor kuchlarni ulug'lovchi ezgulik va yaxshilik ma'budasiga sig'intirishgan. Duolar quyidagi so'zlar bilan boshlangan: "Men zardushtiylik diniga sodiq qolishga va'da beraman, men yaxshi fikrlar, yaxshi so'zlar, yaxshi amallarga ishonaman...". Marosimdan so'ng, muallimlar bolalarga sovg'alar ulashishgan. Muallimlar mashg'ulotlar jarayonida bolalarga nisbatan jismoniy jazodan ko'ra, ko'proq o'z diniga ishonch va e'tiqodni, dunyodagi barcha yaxshilik va ezguliklarning bunyodkori, ilohiy Axuramazdaga sig'inishni, odamlar boshiga yovuzlik va yomonliklarni yog'diruvchi Axrimandan esa nafratlanish hissini tarbiyalar edilar. Bolalarning sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishi bilan birga o'z dinining barcha rasm-rusumlarini to'liq bajarishiga, o'rganilayotgan fanlarni puxta bilishiga, axloqiy pokligiga, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, saxovatlilik kabi fazilatlarni egallashiga kohin muallimlari javobgar edilar. "Avesto"da yer, suv va havo muqaddas deb e'lon qilinib, muhitni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish bilan jazolanardi. Tabiatni asrash, uni obod qilish yoshlik davrlaridanoq ular ongiga singdirilgan. Zardushtiylik dini ta'limotida ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlar majmuasi ezgulik va yaxshilik, jata'rif va yomonlik, ta'lim va tarbiya haqidagi g'oyalari bilan ulkan pedagogik

ta'sir kuchiga ega bo'lgan. Bunda, tarbiyachi muallimlarning o'z kasbiga sadoqatini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Zardushtiylik dinida iymon uchta tayanchga asoslanadi: fikrning sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Muallimlar ta'lim va tarbiyada yoshlar ongiga "bergan so'zning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldanchilik va xiyonatdan holi bo'lish, halol mehnat, yaratuvchilik, yovuzlikni qalbdan chiqarib tashlash, iymon-e'tiqodli bo'lish, miskinlarga yordam berish, yaxshi niyat, yaxshi so'z va yaxshi amallarga qo'l urish" kabi insoniy tuyg'ularni singdirish uchun ancha mehnat qilganlar. Xullas, "Avesto" dunyodagi eng qadimgi din - zardushtiylik ta'limotning axloqiy falsafasi sifatida e'tirof etiladi. Buyuk allomalarimiz o'z asarlarida mudarrislik kasbining nozikligini, mas'uliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga, sharaflilik ekanligini yoritib, muallimning mahorati, ularga qo'yilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi to'g'risida o'z mulohazalarini bildirganlar. Uyg'onish davrining yetuk namoyandalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Abul-Qosim Umar Az-Zamaxshariy, Shayx Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo'lajak murabbiylarga muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlarga o'tib, o'z qimmatini yo'qotmagan mudarrislarni, tarbiyachilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib, boyitib borishgan. Shuning uchun, muallimlar kuchi va g'ayrati bilan barkamol avlodni tarbiyalash, ularning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan.

O'zbekiston deb atalmish zaminimizda yashab o'tgan allomalarning, bu borada, o'z o'rni va hurmati bor. Barkamol avlodni tarbiyalash, bunda, muallimning o'rni to'g'risida allomalarimiz ijodiy merosidan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

Abu Nasr Farobiy (873-930). O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan olimdir. Farobiy arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqani muhim tarbiyaviy fanlar deb atagan. Ushbu fanlarni o'rgatuvchi o'qituvchini har tomonlama mukammal bilimga va tajribaga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Farobiy ta'limotiga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayoni tajribali va bilimli o'qituvchilar tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, chunki, "har bir bola o'zicha narsa va hodisalarni bila olmaydi hamda baxtga erisholmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim". Ta'lim va tarbiya berishda ustoz, shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki, ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz juda ham yumshoq ko'ngilli bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Shuning uchun, o'qituvchi bolalarning fe'l-atvoriga qarab ta'lim-tarbiyaning "qattiq" yoki "yumshoq" usullaridan foydalanishi mumkin, deydi. Bunda, ustoz-mudarrisga quyidagi talablarni qo'yadi:

- Birinchi yo'l: tarbiyalanuvchilar o'qish va o'rganishga ishtiyoqmand bo'lsalar, ta'lim-tarbiya jarayonida mudarris tomonidan yumshoq usullar qo'llaniladi. Bunda, u qanoatbaxsh so'zlardan foydalanadi, chorlovchi ilhomlantiruvchi gaplar aytib o'quvchiga ko'nikma va malakalarni vujudga keltiradi, natijada, o'quvchining iqtidori uyg'onib, g'ayrat shijoati bilan bilim olishga, kasb egallashga intiladi;

- Ikkinchi yo'l: tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsalar mudarris tomonidan qattiq, ya'ni majburlovchi usullar qo'llaniladi. Bu asosan, gapga ko'nmaydigan ba'zi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu usul natijasida o'quvchi nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishadi, fazilati yaxshi bo'lib, kasb-hunarlari va juz'iy san'atlarni egallashga intiladi. Maqsad, ularni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahillariga aylantirishdir.¹

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al Beruniy (973 - 1048). Sharq Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan biri, tarbiyashunos olim, umumjahon tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan buyuk aql-zakovat sohibidir. Alloma asarlarida ta'lim-tarbiya birligi va axloq masalalariga yetuk tarbiyashunos olim sifatida yondashgan, chunonchi, "Minerologiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" kabi asarlarida pedagogika va psixologiyaga oid noyob fikr-mulohazalarni va ma'rifiy-didaktik qarashlarini bayon etdi. Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash jarayonida dunyoviy fanlarni bir-biri bilan bog'lab, turli mavzularda

¹ Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: "A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashri", 1993,122-bet.

mulohazalar yuritishni ta'kidlab: "Bizning maqsadimiz o'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslikdir, bir mavzuni qayta-qayta takrorlab o'qib berish o'quvchini zeriktiradi, xotirasini susaytiradi. Agar o'quvchi bir mavzudan boshqa bir yangi mavzuga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bir bog' boshlanadi. Bola ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa bolaga rohat bag'ishlaydi, deb behuda aytilmagan"¹, - deydi. Beruniy mamlakatning obodonligi ilm-fanning ravnaqi tufayli deb aytadi, yoshlarning baxt-saodati va kamoloti esa ularga bilim va ma'rifat beruvchi mudarrislarga bog'liq deb ta'kidlaydi. Ilm va ma'rifat sari intiluvchi tolib va mudarrislarga deydiki: "Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan nafs va turli buzg'unchi ta'riflardan, qotib qolgan turli eski urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor".

Abu Ali ibn Sino (980-1037). U o'z asarlarida inson kamolotida uch narsa: irsiyat, muhit, tarbiya muhim rol o'ynashini ta'kidlab, bunda mudarrislar bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarib, shu uch ta'rifga javobgarlik hissi bilan yondashishini uqtiradi va mudarrislarga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;
- 2) berilayotgan bilimning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- 3) ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- 4) o'quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilish;
- 5) bolalarni fanga qiziqтира olish;
- 6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- 7) bilimlarni o'quvchilarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda tushunarli olib borish;
- 8) har bir so'zning bolalarning hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.²

Unsurul Maoniy Kaykovusning (milodiy 1021-1022-yillarda tug'ilgan). Uning «Qobusnoma» asarida ilk bor notiqlik san'ati

² Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 jild, - T.: "Fan", 1968, 40,106-betlar.

maktablarining Sharq mamlakatlarida rivojlanishi tarixi bayon etilgan hamda o'sha davr notiq-lari haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu asar hozirgi global o'zgarishlar davrida insonni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur noyob asar ko'plab Sharq va G'arb tillariga tarjima qilinib, shuhrat qozongan. Kaykovus o'z asarida har bir yoshni aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasida turmush tajribasi muhim ahamiyat kasb etishini aytadi. Bolalar faqat yaxshi mudarris tarbiyani hayot bilan bog'lagan holda kamolotga yetkazish mumkin deb, uning yo'llarini va usullarini bayon etgan. Kitoblarda bolalar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Kaykovus bilimi haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

Kaykovus mudarrislarning axloqli ekanligini birinchi belgisi, uning suxandonligida deb biladi va "Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir" deydi. Suxandonni shogirdlarga notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi. U so'zlarni to'rt turga bo'ladi: birinchisi - bilinmaydi va aytilmaydi. Ikkinchisi - aytiladigan va biladigan, uchinchisi - ham bilinadi, har doim aytishga, bilishga zaruriyati yo'q, ammo aytsa ham bo'ladi. To'rtinchisi- biladigan va zaruriyat bo'lmasa aytilmaydigan. Eng yaxshisi, to'rtinchisi, ya'ni biladigan va aytilmaydigani, deydi. So'zlaganda andishali bo'lish, sovuq so'zli bo'lmaslik, kamtarlik, maqtanmaslik, bironing so'zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta'kidlab o'tadi. Odamlarni ham to'rt turga bo'ladi: birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olim va fozillar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsani bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarni o'qitish va o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, go'yo uyquda yashagandek, ularni uyg'otish kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini ham tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ularni o'qitish befoyda, ulardan qochish kerak, deydi.

Abul-Qosim Mahmud Ibn Umar Az-Zamaxshariy (1075-1144). U jahon ilm-fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan mashhur olim

va adibdir. U o‘z asarlarida halollik va pokizalikni, ilmga muhabbatni, mardlik va olijanoblikni ulug‘laydi. Ulug‘ mutafakkir “Navobig‘ ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asarida kishilar ilmli bo‘lish, o‘qitish, yozish bilan hosil-u mukammal bo‘ladi, olim kishi oqil, bilimdon va chiroyli xushxat yozuvga ega bo‘lsa, bu uning kamolotga yetganligidan dalolatdir, deydi. Asarda mudarrislar to‘g‘risida noyob fikrlar bildirilgan: “Murabbiy o‘qib tursagina murabbiy bo‘la oladi, agar o‘qishni to‘xtatib qo‘yar ekan, unda murabbiylik o‘ladi.

Shayx Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy XIII asrda Eronda yashab ijod qilgan yirik shoir va mutafakkirdir. U faylasuf-shoir bo‘lishi bilan birga, tajribali murabbiy ham bo‘lgan. Shoir “Guliston” asarida o‘z davri mudarrislarini turli toifaga bo‘lib, ularni ta‘riflaydi. Qattiqqo‘l o‘qituvchilarni “...basharasi tirishgan, tili zahar, yomon xulqli, odamlarni ranjitadigan, gadoy tabiatlik, ochko‘z, uni ko‘rishi bilan shogirdlarining kayfiyati uchar ” shogirdlar undan bilim va tarbiya ololmaydilar. Yana bir toifadagi o‘qituvchilar “...sodda, yaxshi va yumshoq ko‘ngilli odam. Unar-unmasga so‘zlamas edi va bolalarni ranjitadigan so‘zlar og‘zidan chiqmas edi. Uning farishtadek axloqliligi va mehribonligini ko‘rgan bolalar murabbiyni mensimay qo‘ydilar. Uning yumshoq tabiatli ekanligini bilib, ilmni ham o‘rganmaydilar. Alqissa, bolalar o‘yin va to‘polonga berilib vaqtni bekorga o‘tkazdilar”. Bayt: Ustod, muallim bo‘lsa beozor. Go‘dak eli bozorda xarsang o‘ynar. Bu ta‘rifga Shayx Sa‘diy Sheroziy ikki xil ta‘rif beradi: Birinchidan, Sa‘diy yashagan davrda ham, undan keyingi davrlarda ham maktabda o‘quvchilarni qattiqqo‘llik bilan o‘qitganlar. Ikkinchidan, bu ta‘rifni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va qattiqqo‘l o‘qituvchiga nisbatan norozilik bildirmagan, ilm va tarbiya berishda qattiqqo‘llikni afzal ko‘rgan” deb ta‘kidlaydi, ya‘ni o‘qituvchining jabri va jazosi ota mehridan ham afzalligini aytadi.³

Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy XV asrda yashab ijod qilgan. U o‘z asarlarida insonning yuksak axloqiy hislatlarini, o‘z fazilatlarini kuylaydi. «Iskandar xirodnomasi” asarida muallimlar to‘g‘risida noyob fikrlarni bildirgan: “Muallim aqlli, adolatli, o‘zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan murabbiy hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi!”.

³ Shayx Sa‘diy Abul-Qosim Mahmud az-Zamahshariy. Nozik iboralar”. - T.: “Kamalak”, 1992,16-bet.

Shoir, muallimning hayotdagi o'rnini haqida quyidagi baytida bayon qiladi:

Ustod, muallimsiz qolganda zamon,
Nodonlikdan qora bo'lurdi jahon.

Alisher Navoiy (1441-1501). Uning ijodida muallimlarga munosib alohida o'rin berilgan. Uning fikricha, har bir inson o'ziga ta'lim va tarbiya bergan ustozini, o'qituvchisini umrbod hurmat qilishi va uni e'zozlashi kerak. O'qituvchi mehnatini har qanday xazina bilan o'lchab bo'lmaydi:









Haq yo'linda kim senga, bir harf o'qitish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.

Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib, topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchiga yuksak talablar qo'yadi. Bolani tarbiyalash va unga bilim berish, uning qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda savodli o'qituvchi va mahoratli tarbiyachi bo'lish kerak. Alisher Navoiy o'qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki mahoratli tarbiyachi bo'lishi lozim deb, ilm, odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon ajralmasligini ta'kidlab o'tadi. Buyuk alloma o'zining "Mahbub-ul qulub" didaktik asarida o'qituvchi xalq oldida obro'-e'tiborga, hurmat va izzatga sazovor bo'lishi kerakligini, xalq g'ami bilan yashashini, xalqqa yordam beruvchi, xalq bilan birga bo'lishi lozimligini aytadi. Nodon, mutaassib, johil mudarrislarni tanqid qilib, mudarris olimlar orasidagi eng sara "malak qiyofali" kabi bo'lishi, ya'ni sof ko'ngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va oliyjanob hislatlarini o'zida aks ettiruvchi bo'lishi kerak, deydi. Ayniqsa, madrasalarda ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi mudarrislarga jiddiy talablarni qo'yadi: «Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurg'izmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga bosh o'rin bo'lmasa, yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa... nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilish mumkin, balki halol desa, qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa, bu mudarris emas,

yomon odatni tarqatguvchidir». Demak, mudarris bilimli, fozil va donishmand bo‘lishi, kishilikning eng yaxshi fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan oliyjanob va kamtarin bo‘lishi, har qanday yaramas ishlardan holi va pok bo‘lishi, o‘z xulqi va odobi bilan boshqalarga namuna bo‘lishi lozim. Ayni o‘rinda, o‘qituvchi mehnatini eng murakkab va mashaqqatli ish ekanligini xolisona baholaydi: “Uning ishi odam qo‘lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan ojizlik qilardi. U esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi, ko‘rkim bunga nima etsin. Shunisi ham borkim, so‘dada fahm-farosati ozlar ham bo‘ladi, unday kishiga yuzlarcha nashaqqat qilsa, qanday bo‘ladi. Har qanday bo‘lsa ham, yosh bolalarda uning haqqi ko‘pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydir”.

Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505). U “Futuvvatno-mai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to‘xtalgan. U muallimlarning shogirdlariga beradigan har bir o‘gitini qadrlaydi. “Maraka joylarida” (dars-ma’ruza o‘qiladigan joy) shogirdlar muallimning har bir so‘zini e’tibor bilan tinglashini va unga amal qilishini ta’kidlaydi. Jumladan, alloma shunday yozadi: “Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi, deb so‘rasalar, irodat ustiga, deb javob bergin. Agar irodat nima deb so‘rasalar, samo va toatdir, deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so‘rasalar nimani ustoz aytsa, uni jon qulog‘i bilan eshitish, chin ko‘ngli bilan qabul qilish va vujud a‘zolari orqali amalga ado etishdir deb ayt”.

Husayn Koshifiy asarida shogirdlikning 8 ta odobini ko‘rsatib o‘tadi:

-  birinchi bo‘lib salom berish;
-  ustozning oldida kam gapirish;
-  boshni oldinga egib turish;
-  ko‘zni har tomonga yugurtirmaslik;
-  gap so‘ramoqchi bo‘lsa, avval ustozdan ijozat so‘rash;
-  ustoz javobiga e’tiroz bildirmaslik;
-  ustoz oldida boshqalami g‘iybat qilmaslik;
-  o‘tirib turishda hurmat saqlash.

Husayn Koshifiy ustozlik shartlarini ham bayon qiladi: “Bilgilki, hech bir ish ustozsiz amalga oshmaydi va kimki ustozsiz bir ishni qilaversa, ul ishning asosi mustahkam bo‘lmaydi. Agar ustoz tarbiyasini olgan komil inson kim deb so‘rasalar, mazhabli o‘z aybini ko‘radigan, dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unga hasad, gina va baxillikdan asar bo‘lmaydi”. Husayn Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida roli borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan adolatli bo‘lishi zarur, deb hisoblaydi.

Yunon faylasuflari asarlarida o‘qituvchilarning kasbiy mahorati haqidagi g‘oyalar Antik davrdagi maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimini muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so‘zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizda avvalgi V asrda Afina yaqinidagi Akadema so‘zi bilan nomlanuvchi joyda Platon o‘z shogirdlariga ma‘ruzalar o‘qigan bo‘lib, keyinchalik ta‘lim - tarbiya berish uchun tashkil etiluvchi maskanlar ham shunday nom bilan atala boshlangan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga ta‘lim-tarbiya berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan edi. Shu sababli, notiqlik san‘ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me‘morchilik san‘ati bilan birga notiqlik san‘ati ham murakkab va muhim san‘at asari sifatida tan olingan. Notiqlik san‘atini davlatning muhim ijtimoiy - siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga ta‘sir etuvchi murakkab vosita sifatida rivojlantirganlar. Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda yoshlarga ta‘lim-tarbiya berish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng takomillashgan davri bo‘lgan. Shu sababli, “Notiqlik san‘ati” ham jadal rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davrda notiqlikning uchta qonuniyati umumiy shior sifatida e‘tirof etilgan: “O‘quvchilarga tushuntirish (ma‘lum bir mavzuni); O‘quvchilar ongini uyg‘otish (inson tafakkurini, ongini, maqsadini); har bir tinglovchiga huzur-halovat va qoniqish uyg‘otish”. Yunonistonda notiq ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda o‘quvchilarga, ya‘ni “tinglovchilarga halovat bag‘ishlash” orqali ularni

ezgulikka, adolatparvarlikka, Vatan oldidagi burchga sadoqatli bo'lishga, yaxshi amallarni bajarishga, axloq va odob qoidalariga rioya qilishga chorlar edi. Bu uning jamiyat oldidagi asosiy vazifasi hisoblanar edi. Notiqlik san'atini chuqur egallagan, o'zi axloqning go'zal va chiroyli nutqlari bilan jamiyatda hurmat va e'tibor qozongan Dinarx, Giperid, Gorgiy, Sokrat, Isey, Demosfen kabi namoyondalar mashhur davlat arboblari bo'lib yetishganlar. Yunon faylasuflari o'qituvchilarning ta'lim va tarbiya berishda og'zaki nutqning shakl va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmi qoidalarini chuqur o'zlashtirishlari lozimligini qat'iy talab qilganlar. Shuning uchun, pedagog o'qituvchilar o'z fikrlari va tuyg'ularini o'quvchilar hamda tinglovchilar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar va keskin ta'sir o'tkazganlar. Har bir pedagog o'zining notiqlik san'ati ustida tinimsiz mashg'ulotlar olib borganlar, sehrli ovoz sohibi bo'lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilganlar. Ular o'z nutqlarini mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli deb, hisoblaganlar.

Mashhur faylasuf olim Sokrat (eramizdan avvalgi 469-399) o'quvchilar bilan savol-javob usuli orqali ta'lim-tarbiya berishning suhbat metodiga asos solgan. Sokratning shogirdi Platon o'z ustoziga g'oyalari davom ettirib, o'quvchilar bilan savol-javob usulini notiqlik san'atini bir shakli sifatidagi ahamiyati cheksiz ekanligini bayon etadi hamda u inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslubi sifatida baholaydi.

Demosfen (eramizdan avvalgi 384-322). Uning tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bardosh berishi qizg'in va shiddatli mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Barcha dunyoviy bilimlarni faqat notiqlik san'atining olijanob qudrati asosida tinglovchilar tafakkuriga yetkazish mumkin deb, ta'kidlagan edi. Faqat Demosfen Yunonistonda notiqlik san'atining yetuk namoyandasi, ya'ni elitasi sifatida mashhur bo'ldi.

Ya. A. Komenskiy, Djon Lokk, Pestalotssi, A. Disterverg, K.D. Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya. Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalar sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritadi va ularning

mohiyatini mukammal tavsiflab beradi. Yan Amos Komenskiy o‘z davrida o‘qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga yuqori baho berib, o‘qituvchilik «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb ekanligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, o‘qituvchi o‘z burchlari chuqur anglay olishi hamda o‘z qadr-qimmatini to‘la baholay bilish zarur.

Ya.A Komenskiy o‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, o‘quvchilarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘atuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortidan ergashtiruvchi va diniy e’tiqodni shakllantiruvchi.

I.G.Pestalotssi o‘qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan, uning xalq ta’limi tarmog‘ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to‘xtalib o‘tadi. A. Disterverg o‘qituvchining ta’limdagi roliga yuqori baho berib, u o‘z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o‘quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb, uqtiradi. O‘qituvchi, bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo‘lishi kerakligini takidlab o‘tgan.

Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, o‘qituvchi kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir qonun yoki programma, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi metod yoki tamoyillar o‘qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o‘rnini bosa olmaydi, deb hisoblaydi. K.D.Ushinskiy o‘qituvchi ma’naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish, maqsadga muvofiq ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari suradi. Mazkur g‘oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim - o‘qituvchilarni qayta tayyorlovchi kurslar tizimini tashkil etishni ilk bor asoslab bergan. K.D.Ushinskiy o‘qituvchining mashaqqatli mehnatini ta’riflab shunday deydi: “Hali yetilmagan va fikri-xayoli tarqoq bo‘lgan o‘ttiz yoki qirqta o‘quvchining ongini butun dars davomida mashg‘ul qilib turishi uchun o‘qituvchi o‘z so‘zlari va bergan masalalari to‘g‘risida ko‘p bosh qotirishi, serdiqqat bo‘lishi

kerak. Mana shu sababdan, bilimi bo'lgan har bir kishi o'qituvchi bo'lishga layoqatli bo'lavermaydi. Jamiyat tomonidan hamma vaqt ham yetarlicha ta'rif qilinmaydigan bu vazifani ado qilmoq uchun zo'r matonat va mahorat talab qilinadi". K.D.Ushinskiynmg ta'kidlashicha, o'qituvchi qalbining bolalarga nisbatan mehrini bildiruvchi axloqiy hislatlaridan biri, muallimning tarbiyaviy kuchini va qobiliyatini ko'rsatadigan ma'naviy oynasi ijtimoiy qimmatga ega bo'lib, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning, u ana bir muhim tarkibiy qism o'qituvchining xarakteri va his-tuyg'ularida, uning o'quvchilar bilan muloqotga kirishish usulida namoyon bo'luvchi pedagogik-psixologik takt (odob, axloq) xususiyatlarini qo'llashdir. Uning fikricha, psixologik takt (odob, axloq) hayotimizning barcha jabhalarida g'oyatda, keng qo'llaniladigan faoliyat turi, shuning uchun, ushbu taktlarga ega bo'lmasdan, odamlar orasida hech qanday muloqot va nutq qobiliyatining o'zi ham bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlaydi. «Aqlli, fikran boy, bag'rikeng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziqitirmaydi, o'zining ortidan ergashtira olmaydi ham, aql bilan tarbiyalanadi, vijdon- vijdon bilan, vatanga sadoqatlilik -bevosita vatan uchun xizmat qilish bilan..., - deb ta'kidlagan edi mashhur rus pedagogi V.D.Suxomlmskiy. O'qituvchi o'zining butun borligi, kundalik hayoti, ma'naviy madaniyati bilan hamkasblari va o'quvchilarga o'rnak bo'ladi va ularni o'z ortidan ergashtiradi». O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari pedagog olim V.A. Slastyonin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy - pedagogik tayyorgarlik, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik, nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar - taraqqiyotning, umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir, amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat - falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezsiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul". Demak, o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni

mukammal egallash talab etiladi, balki, pedagogik amaliyotni to‘g‘ri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy - nazariy ma‘lumotlarga ham ega bo‘lish lozim. Buyuk rus adibi L.N.Tolstoy o‘qituvchi fazilatining mukammalligini o‘z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishi bilan bir vaqtda bolalarga bo‘lgan munosabatida, ularni xuddi o‘z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekanligida ko‘rgan. Uning ta’kidlashicha, “Agar o‘qituvchi faqat ishiga havas qo‘ygan bo‘lsa, yaxshi o‘qituvchi bo‘ladi. Agar o‘qituvchi bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo‘ygan bo‘lsa, oldingi o‘qituvchidan yaxshiroq bo‘ladi. Bordi-yu ikkala xislatni ham o‘zida mujassamlashtirsa, u holda mukammal va mahoratli o‘qituvchi bo‘la oladi”. Pedagogik mahorat faqat o‘qituvchi batamom o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashning eng yuqori cho‘qqisi sifatida qabul qilinmasligi kerak. Tajribali o‘qituvchi o‘z ijobiy yutuqlari bilan qanoatlanib qolmasdan, hamisha kasbiga oid yangiliklarni o‘zlashtirib borishi, jamiyat taraqqiyoti tufayli paydo bo‘ladigan zamonaviy pedagogik vazifalar va muammolarni hal qilishda faol ishtirok yetishi; o‘zining kasbiy ko‘nikma va malakalarini uzluksiz oshirib borishga intilishi lozim. Bu pedagogik mahoratni egallashning ajralmas qismidir.

Pedagogik mahoratni egallash va rivojlantirishda (malaka oshirish, takomillashtirishda) o‘qituvchi o‘zi bilgan va o‘rgangan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirib boradi. Demak, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini yanada oshirish uchun, avvalo, uning malakasini oshirishga sabab bo‘ladigan pedagogik mahoratini shakllantiradigan zamonaviy manbalarni, omillarni, vosita va metodlarni izlab topish zarur. Ushbu yondashuv o‘qituvchi pedagogik mahoratini rivojlantirish muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash joizki, har bir o‘qituvchi ko‘nikma va malakalarini oshirish bilan birga, o‘z kasbiga sadoqatli bo‘lishi, uni sevishi hamda uzluksiz takomillashtirib borishi shart. Bunda, belgilangan maqsad sari intilish, albatta, pedagogik mahoratning eng yuksak cho‘qqilarini egallashga - ishonch o‘qituvchi uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamon ilmiy pedagogik tadqiqotlar tahliliga ko‘ra o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirish muammolarini hal etish quyidagicha talqin etiladi:

- o‘quv - tarbiyaviy jarayonni eng qulay uslublarini topish va joriy etish,
- o‘z mehnatini muntazam ilmiy asosda tashkil eta olish;
- o‘qituvchi pedagogik qobiliyatini va pedagogik madaniyatini oshirish;
- pedagogik muammolarni mohirona hal etish yo‘llarini takomilashtirish;
- amaliy va nazariy bilimlarni doimiy oshirib borish;
- kasbiy ijodkorlikni uzluksiz rivojlantirish.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Sharq va G‘arb olimlari tomonidan tahlil qilingan o‘qituvchining pedagogik faoliyati haqidagi ko‘pgina mulohazalar hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda, demak, millati va kelib chiqishidan qat’iy nazar ajdodlar merosini takomillashtirish evaziga hozirgi kunda ta’lim va tarbiyani yanada yuksak bosqichlarga ko‘tarish mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida pedagogik faoliyatni tashkil etishga qanday talablar qo‘yilgan?
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida qanday asosiy tushunchalar qo‘llaniladi? Ularga ta’rif bering.
3. Oliy ta’lim tizimining o‘quv jarayonini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
4. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari qanday tasnif etiladi?

2-mavzu: PEDAGOGIKNING KASBIY MAHORATI, UNING O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Mavzu rejasi:

1. “Pedagogik mahorat” tushunchasi va asosiy tarkibiy qismlari.
2. Pedagogik mahoratning o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni.
3. Pedagogning kasbiy mahorati, pedagogik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari.

Tayanch tushunchalar: o‘qituvchi, faoliyat, pedagogik mahorat, tarkibiy qism, ijtimoiy faoliyat.

1. “Pedagogik mahorat” tushunchasi va asosiy tarkibiy qismlari

Inson faoliyatining muhim turlaridan biri bu – o‘qituvchining kasbiy faoliyati. Bu yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki u insoniyat tomonidan to‘plangan tajriba almashinuvini ta‘minlaydi, bolalarni insoniyat madaniyati qadriyatlari bilan tanishtirishga yordam beradi. O‘qituvchilik kasbi sharaflik va talabchanlikni o‘z ichiga oladi. Uning harakatlari tufayli mamlakatning kelajagi ko‘p jihatdan bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘z davri madaniyatining vakili, shuning uchun, uning faoliyati mazmunan tarixan o‘zgargan.

“Oqituvchi” atamasining o‘zi antik davrda paydo bo‘lgan. Yunon tilida o‘qituvchi "bolani yetaklovchi" degan ma‘noni anglatadi, “paide” - bola va “oldin” - xabar. Bu qadimgi Yunonistonda bolani maktabga borgan kishining ismi. Odatda, u jiddiyroq topshiriqlar uchun mos bo‘lmagan qul edi. Sekin-asta jamiyat o‘qituvchiga bolani hayot orqali olib boradigan, to‘plangan tajribani yetkazadigan, yosh avlodning ma‘naviy o‘shiga g‘amxo‘rlik qiladigan murabbiy sifatida munosabatda bo‘ldi. "O‘qituvchi" atamasining hozirgi tushunchasi noaniq. Biz o‘qitadigan olimlarni o‘qituvchilar deb, ataymiz nazariy muammolar pedagogika va yosh avlodni o‘qitish bo‘yicha amaliy ishlarni bajaradigan odamlar.

Keng ma'noda, o'qituvchi – bu bilimga ega bo'lgan shaxs. O'qituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash yoki o'qituvchilik faoliyatini olib boradi.

Ota-onalar birinchi tarbiyachi sifatida nafaqat bolalarning axloqiy, aqliy va jismoniy rivojlanishining asoslarini yaratibgina qolmay, balki ularning tarbiyasi uchun ham javobgar bo'lishlari kerak. Pedagogik faoliyat, shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish jarayonida ham namoyon bo'ladi, u har bir shaxs tomonidan o'ziga nisbatan ixtiyoriy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanadi.

Pedagogik faoliyat, umuman olganda, aloqa va muloqotning barcha sohalarini qamrab oladi, chunki bu odamlar o'rtasida o'zaro tushunishni, hamkorlikni o'rnatishga yordam beradi, muammolarni hal qilishda yordam beradi va ustuvor vazifalarni bajarishda yordam beradi.

Pedagogik faoliyat bilan professional ravishda shug'ullanish uchun o'rta maxsus yoki oliy o'quv yurtlarida olinishi mumkin bo'lgan pedagogik ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bitirgandan so'ng, bitiruvchi ma'lum bir narsani oladi malaka, bu ta'lim to'g'risidagi hujjatda (diplomda) qayd etilgan. Malakalar – bu ma'lum bir kasbiy faoliyat turiga tayyorgarlikni tavsiflovchi bilim, ko'nikma va malakalar darajasi. Masalan, oliy o'quv yurtini “Pedagogik ta'lim” (bakalavr darajasi) mutaxassisligi bo'yicha tugatgandan so'ng, bitiruvchiga “bakalavr” malakasi beriladi, bu unga pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish va ma'lum bir mashg'ulotlarni olib borish huquqini beradi. Agarda pedagogning kasbiy mahorat dasturiga amaliy qaralsa, u holda birinchi o'ringa uning integral sifati – o'qituvchining mahoratidan iborat bo'ladi. Pedagogik mahoratga berilgan ta'riflar shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir tomonlari, albatta, ifodalanadi.

Mahorat – bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat. Pedagog – o'z ishining ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi, fan va san'atning mos sohalarini bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassis.

Pedagogik nazariyada o'qituvchi mahoratini ikki xil tushunish mavjud: Birinchisi, pedagogik mehnatni tushunish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi tarbiyada pedagog shaxsi asosiy o'rin tutadi. Mahoratni egallash uchun ko'p narsani bilish va qila olish zarur. Tarbiya prinsiplari va qonunlarini hamda uning tashkil etuvchilarini bilishi zarur. O'quv-tarbiyaviy jarayon va uning tashkil etuvchilarni samarador texnologiyalardan foydalanish uchun, har bir konkret ta'rif uchun ularni to'g'ri tanlab olishni, diagnostikalashni, oldindan bilishni va berilgan daraja va sifat jarayonini, loyihalashni juda yaxshi bilishi zarur. "Men faqat «buyoqqa kel»ni 15-20 xilda gapira olganimdan, so'ng, tashqi qiyofa va ovozni 20 ko'rinishda bera olganimdan so'ng haqiqiy masterga aylandim,"-deydi buyuk pedagog A.S. Makarenko.

Pedagogik mahorat – shaxsning pedagogik sifatleri majmuyi va o'qituvchi tomonidan kasbiy pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda samarali tashkil etishni ta'minlash bo'lib, u pedagogning faoliyat mohirligini eng yuqori cho'qqisiga erishganligini bildiradi.

O'qituvchilik kasbi - o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir o'qituvchining muhim hayotiy o'rni, uning o'z ishining ustasi bo'lishdir. O'qituvchi mahorati, uning faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi, avvalo, pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda, pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Biroq mahorat – bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada usta bo'lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta - mehnat faoliyati chog'idagina go'zaldir. Pedagogik mahoratga erishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatleri bilan amalga oshadi. Pedagogik mahurat, yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeyini ifodalaydi.

«Pedagogik mahorat» bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir hodisani tavsiflash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega. Turli muallif asarlarida pedagogik mahoratning yagona, tan olingan ta'rifining yo'qligi, uni tadqiqotning

jonli jarayoni deb, xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Tushunchalar, fikrlarning turli-tumanligi bu hodisaning murakkabligi va ko‘p qirraliligidan dalolat beradi. Barcha ta‘riflarda urg‘u shaxsga beriladi va shu tariqa ular pedagogik mahoratning sotsial mohiyatini aks ettiradi. Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo‘nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, pedagog shaxsi taalluqlidir.

Mahoratning shakllanish bosqichlariga:

1. Reproduktivlik (boshlang‘ich).
2. Ijodiylik, ijodiy-novatorlik kiradi.

Pedagogik mahorat darajalari o‘qituvchi ish darajasining davomi hisoblanadi:

1. Reproduktiv (o‘ta past);
2. Moslashuvchan (past);
3. Lokal (chegaralangan)- modellashtirish (o‘rtacha qoniqarli).

Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan malaka nuqtayi nazardagi qarashlarni aks ettiradi. Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

✓ pedagog shaxsini insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalashga yo‘naltirilganligi;

✓ mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo‘lish;

✓ pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan uqib olish));

✓ pedagogik madaniyat va texnikani egallash, ya‘ni o‘z-o‘zini boshqara olish, o‘zaro ta‘sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari:

I. Ta‘lim maqsadi, o‘quv-tarbiya jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi sifatidagi shaxsga yangicha qarash:

1) shaxs pedagogik jarayonning obyektini emas, subyektini sifatida aks etadi;

2) shaxs – qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta‘lim tizimi maqsadi;

- 3) har bir o‘quvchi qobiliyatli, ko‘plab o‘quvchilar iqtidorli;
- 4) shaxsning muhim sifatleri sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi.

II. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish:

1) pedagogik muhabbat, o‘quvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash;

2) o‘quvchiga yuksak ishonch bilan qarash;

3) hamkorlik, muloqot mahorati;

4) to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlashdan voz kechish;

5) ijobiy rag‘batlantirishning muhimligi;

6) o‘quvchi shaxsiga ta‘lim subyekti, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat;

7) o‘qituvchi va o‘quvchi huquqlarini tenglashtirish; o‘quvchining erkin tanlashga bo‘lgan huquqi tushuniladi.

III. Zamonaviy sharoitda to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlashdan natija bermaydigan metod sifatida voz kechish. Majburlashsiz o‘qitish quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1) majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik;

2) o‘qitishga tug‘ma qiziqishlarni ko‘payganligi;

3) majburlashning o‘rnini muvaffaqiyatga erishishga imkon beradigan istak bilan almashtirish;

4) o‘quvchilarni erkinlik va tashabbuskorlikka qo‘yib berilishi;

5) jamoa orqali bilvosita o‘quvchilarning qo‘llanilishi;

6) o‘quvchilarga ularning subyektivligi, o‘z-o‘zini namoyon etishi, ijtimoiylashuvi, madaniy tenglashuvi, hayotiy o‘z o‘rnini belgilashiga yordam ko‘rsatish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

IV. Individual yondashuvni yangicha talqin etish:

1) “O‘quv fanidan o‘quvchiga qarab borish emas, o‘quvchidan o‘quv faniga borish” tamoyilining bajarilishi;

2) O‘quvchilarning qobiliyatlari va mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish;

3) O‘rtacha o‘zlashtiruvchi o‘quvchiga yo‘nalganlikdan voz kechish; shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash;

4) Shaxsni psixologik-pedagogik tashxis etish (qiziqishlari, qobiliyatlari, yo‘nalganligi, Men-konsepsiyasi, xarakteri, fikrlash jarayonlarining o‘ziga xosligi)ning qo‘llanilishi;

5) Shaxsning o‘quv-tarbiya jarayonidagi o‘ziga xosliklarini hisobga olish.

V. Ijobiy ma‘nodagi “Men-konsepsiyasi”ni shakllantirish:

1) pedagogik muloqotning o‘quvchilarda o‘ziga ijobiy munosabatni rivojlantirishning yo‘nalganligi;

2) hayotiy faoliyatning ijobiy yo‘l-yo‘riq va motivlarini shakllantirish.

Pedagogik mahorat o‘z ichiga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, maktab haqidagi, ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar, umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o‘qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o‘tmaydi. Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik deganda, konkret tarixiy davrda qabul qilingan me‘yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik deganda esa, pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. N.Azizxo‘jayeva takidlab o‘tganidek, bu xislat pedagogik jarayon mantig‘ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko‘ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo‘nalishlarini tushunish imkoniyatini ta‘minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi. Pedagogik faoliyatning mohiyati va tuzilishi hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan unumdorlik pedagogika fani va amaliyotining eng dolzarb masalalaridan biridir. Odatda, bu muhim hodisalarni ilmiy tahlil qilish pedagogik san‘at haqidagi umumiy munozaralar bilan almashtiriladi. Albatta, pedagogik faoliyatni ilmiy tahlil qilish har bir o‘qituvchining ijodiy uslubining o‘ziga xosligini e‘tirof etadi, lekin uning o‘zi tavsiflarga emas, balki qiyosiy tadqiqot, sifat va miqdoriy tahlil tamoyillariga asoslanadi. Pedagogik faoliyat modellarini tahlil

qilish va qurishda tizimli yondashuv tamoyillarini qo‘llash bilan bog‘liq yo‘nalish, ayniqsa, istiqbolli hisoblanadi. Sun‘iy jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlari tufayli maxsus tashkil etilgan pedagogik tizim jamiyatning doimiy “nazorati” ostida, ya‘ni, bir qismi bo‘lgan ijtimoiy tizim. Pedagogik tizimdagi o‘zgarishlar, uni qayta qurish va moslashtirish hozirgi paytda jamiyat qaysi yoki qaysi elementlarga e‘tibor qaratayotganiga bog‘liq: moddiy bazani mustahkamlash, ta‘lim mazmunini yaxshilash, o‘qituvchining moddiy ahvoli haqida g‘amxo‘rlik qilish va hokazo. Pedagogik tizimlarni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab muvaffaqiyatsiz urinishlarning sabablari uning elementlarini o‘zgartirishga tizimli bo‘lmagan, mahalliy yondashuvda yotadi. Jamiyat - ijtimoiy tuzumni shakllantirib, eng umumiy pedagogik tizim sifatida tegishli ta‘lim tizimini quradi. U o‘z navbatida, o‘zining quyi tizimlari bilan ta‘lim funksiyalarini bajaradigan va ta‘lim tizimiga birlashtirilgan barcha ijtimoiy institutlarga ega.

Pedagogik faoliyat tushunchasi. Pedagogik faoliyat - bu ijtimoiy tajriba, moddiy va ma‘naviy madaniyatning avloddan avlodga o‘tishi amalga oshiriladigan inson faoliyatining mustaqil turi. Ushbu ta‘rifga asoslanib, faoliyat turlari ajratiladi. Shunday qilib, moddiy mahsulotni yaratishga, olishga qaratilgan faoliyat, odatda, amaliy deb ataladi va ong sohasidagi o‘zgarishlarga qaratilgan faoliyat, odatda, ma‘naviy deb ataladi. Bu faoliyatning bir-biriga bog‘langan shakllari bo‘lsa-da, nisbatan mustaqildir. Endi “pedagogik faoliyat” tushunchasining talqiniga to‘xtalamiz. Har qanday faoliyat turining mazmunini tahlil qilish uning psixologik asosining mavjudligini ko‘rsatadi, chunki faoliyatning asosiy xususiyatlari obyektivlik - u bevosita nima bilan bog‘liqligi (har qanday moddiy yoki ideal obyekt) va subyektivlik hisoblanadi, chunki u muayyan shaxs tomonidan amalga oshiriladi. (A.N. Leontiev, S.L. Rubinshteyn va boshqalar). Faoliyat tushunchasi zamonaviy psixologiya va pedagogikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Psixologiya faoliyatning subyektiv tomonini o‘rganadi. Shubhasiz, pedagogik faoliyat faoliyat turlaridan biridir. Pedagogik faoliyat kasbiy va noprofessional (N.V.Kuzmina, E.M.Ivanova va boshqalar)ga bo‘linadi. Noprofessional pedagogik faoliyatga oilada bolalarni tarbiyalash faoliyati yoki korxonah rahbarlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat misol bo‘la oladi. Kasbiy bo‘lmagan

pedagogik faoliyat hunar o'rganish deb hisoblanadi. Shunday qilib, kasbiy bo'lmagan pedagogik faoliyat - bu ko'pchilik odamlarning kundalik hayotida maxsus pedagogik ta'lim va pedagogik malakaga ega bo'lmagan shug'ullanadigan faoliyatdir. Kasbiy pedagogik faoliyat davlat yoki xususiy ta'lim va ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi va uni amalga oshiruvchi shaxslarning kasbiy malakasini, ma'lum darajadagi maxsus ta'limni talab qiladi. Pedagogik faoliyat konsepsiyasini talqin qilishning bir nechta yondashuvlarini ko'rib chiqaylik.

A.I. Shcherbakov o'qituvchining ishini "chuqur bilim, yuksak madaniyat, pedagogik qobiliyat, birinchi navbatda, pedagogik faoliyatning psixologik tuzilishi va mazmunini, uning asosiy funksiyalarini tushunishni talab qiladigan san'at" deb ta'riflaydi, ularning bajarilishi ta'sirini ta'minlaydi. A.I. Shcherbakov pedagogik faoliyatning 8 funksiyasini ajratib, ularni ahamiyatiga ko'ra quyidagicha tartibga soladi: axborot, safarbarlik, rivojlanish, yo'naltirish, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy, tadqiqot. Bundan tashqari, oxirgi to'rttasi, muallifning fikriga ko'ra, "o'ziga xos pedagogik emas, chunki ular zamonaviy malakali mehnatning barcha turlarida sodir bo'ladi". V.A.Slasteninning fikricha, "o'qituvchi-pedagog faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra turli sinflar va darajadagi tipik va o'ziga xos pedagogik vazifalarning son-sanoqsiz to'plamini hal qilish jarayonidan boshqa narsa emas. Biroq, barcha boylik va rang-baranglik bilan pedagogik vazifalar, albatta, o'z-o'zini namoyon qiladi. Tegishli malakalar tizimi u tomonidan o'qituvchi-pedagogning kasbiy mahoratini shakllantirishning asosi sifatida qaraladi. Yu.N.Kulyutkin o'qituvchilik kasbini "odamdan odamga" tipidagi kasblar guruhiga kiritadi, ular shaxslararo o'zaro ta'sir bilan tavsiflanadi. Ikkinchisining ajralmas xususiyati refleksli jarayonlardir. Shu bilan birga, "o'qituvchi o'quvchida kelajakda o'zining kelajakdagi faoliyatini mustaqil boshqarish imkonini beradigan "ichki asoslarni" (bilimlar, e'tiqodlar, usullar, harakatlar) shakllantirishga intiladi.

Pedagogik faoliyat - bu o'qituvchining bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirishga va uni zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda hayotga tayyorlashga qaratilgan maqsadli, rag'batlantiruvchi ta'siri. Pedagogik faoliyat tarbiya amaliyoti qonuniyatlariga asoslanadi. Pedagogik faoliyat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi

va uni maxsus tayyorlangan va o‘qitilgan odamlar - o‘qituvchilar amalga oshiradilar. Pedagogik faoliyatning mohiyati va mazmuni - uning predmeti, motivlari, maqsadi, vositalari va natijasi bilan belgilanadi. Pedagogik faoliyatning maqsadi – ta’lim obyekti va subyekti sifatida bolaning rivojlanish istiqbollari amalga oshirish uchun sharoit yaratish. Ushbu maqsadni amalga oshirish pedagogik faoliyatning natijasi bo‘lib, unga pedagogik ta’sirning boshlanishi va tugashi paytida bolaning shaxsining fazilatlarini taqqoslash yo‘li bilan tashxis qilinadi. Pedagogik faoliyatning predmeti - rivojlanishning asosi va sharti sifatida ijtimoiy-madaniy tajribani o‘zlashtirishga qaratilgan o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni tashkil etish. Pedagogik faoliyatda tashqi va ichki motivlar farqlanadi. Tashqi motivlarga shaxsiy va kasbiy o‘sish kiradi, ichki motivlar esa hukmronlik, insonparvarlik va ijtimoiy yo‘nalishdir. Pedagogik faoliyat vositalari quyidagilardan iborat: nazariy va amaliy bilimlar, ular asosida bolalarni ta’lim va tarbiyalash amalga oshiriladi; o‘quv va uslubiy adabiyotlar; ko‘rinish. Ijtimoiy xulq-atvor va o‘zaro ta’sir tajribasini pedagogik faoliyatda o‘tkazish usullari tushuntirish, ko‘rsatish, kuzatish, o‘yin, qo‘shma ishdur.

B.T. Lixachev pedagogik faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini belgilaydi:

✚ o‘qituvchining ehtiyojlar, ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari, shaxsga qo‘yiladigan asosiy talablar haqidagi bilimi;

✚ ishlab chiqarish, madaniyat, ijtimoiy munosabatlar sohasida insoniyat tomonidan to‘plangan, umumlashgan shaklda yosh avlodga yetkaziladigan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalar asosi;

✚ pedagogik bilim, tarbiyaviy tajriba, mahorat, sezgi;

✚ tashuvchining eng yuksak axloqiy, estetik madaniyati.

Pedagogik faoliyatning mohiyati

Faoliyat – bir tomondan, u kishilarning ijtimoiy-tarixiy mavjudligining o‘ziga xos shakli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning yashash va rivojlanish yo‘lidir. Faoliyat:

1) inson hayoti uchun moddiy sharoitlar yaratilishini, insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydi;

2) Shaxsning ma’naviy olamini rivojlantirish omili va uning madaniy ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish shartiga aylanadi;

- 3) Hayotiy maqsadlarga erishish, muvaffaqiyat sohasi;
- 4) Shaxsning o'zini-o'zi anglashi uchun sharoit yaratadi;
- 5) Ilmiy bilish, o'z-o'zini bilish manbayi hisoblanadi;
- 6) Atrof-muhitning o'zgarishini ta'minlaydi.

Faoliyat – subyektning obyektga munosabatining faol shakli.

O'qituvchining kasbiy faoliyati – bu nafaqat bilimni o'rgatish, balki yosh avlodni tarbiyalash, ularda hayotiy ko'nikmalarni singdirish va jamiyatga moslashgan shaxslarni shakllantirish faoliyatidir

Pedagogik faoliyat – amaliy san'at turlaridan biri. Pedagogik faoliyat maqsadli, chunki o'qituvchi o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi (javobgarlikni tarbiyalash, tikuv mashinasida ishlashni o'rgatish) keng ma'noda, pedagogik tadbirlar yosh avlodga tajriba orttirishga qaratilgan. Demak, pedagogika fan sifatida shaxsni jamiyat hayoti bilan tanishtirish uchun faoliyatning alohida turini o'rganadi. Pedagogik faoliyat – bu o'quvchiga uning shaxsiy, intellektual va faolligini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ta'sir.

Pedagogik faollik sivilizatsiya boshlanishida ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari va normalarini yaratish, saqlash va yosh avlodga o'tkazish kabi muammolarni hal qilish jarayonida paydo bo'lgan.

Pedagogik faoliyatni kasbiy jihatdan faqat pedagoglar amalga oshiradilar, ota-onalar, ishlab chiqarish jamoalari, jamoat tashkilotlari esa umumiy pedagogik faoliyatni amalga oshiradilar. Professional pedagogik faoliyati kompaniya tomonidan maxsus tashkil etilgan ta'lim muassasalarida: maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, kasb-hunar maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida, qo'shimcha ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida amalga oshiriladi.

2. Pedagogik mahoratning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni.

Pedagogik faoliyatning mohiyati. Faoliyat – bir tomondan, u kishilarning ijtimoiy-tarixiy mavjudligining o'ziga xos shakli bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning yashash va rivojlanish yo'lidir. Faoliyat:

1) inson hayoti uchun moddiy sharoitlar yaratilishini, insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi;

2) shaxsning ma'naviy olamini rivojlantirish omili va uning madaniy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish shartiga aylanadi;


3) hayotiy maqsadlarga erishish, muvaffaqiyat sohasi;

- 4) shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi uchun sharoit yaratadi;
- 5) Ilmiy bilish, o‘z-o‘zini bilish manbayi hisoblanadi;
- 6) Atrof-muhitning o‘zgarishini ta’minlaydi.

Inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit, bunda, u hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, atrofidagi hayotni o‘rganadi, bilim oladi, ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantiradi - buning natijasida uning o‘zi va faoliyati rivojlanadi. Faoliyat – subyektning obyektga munosabatining faol shakli.

3. Pedagogning kasbiy mahorati, pedagogik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari

O‘qituvchilik kasbining shakllanishi davomida uning pedagogik mahorati takomillashib boradi.



U har xil psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. Turli ziddiyatlarga duch keladi. Bu o‘z navbatida uni tinimsiz ijod qilishga, tarbiyaning har xil vosita va usullarini topib, mohirona qo‘llashga majbur etadi. Tarbiya

natijasida belgilangan maqsadga erishish uchun o'qituvchilar yillar davomida yig'ilgan tajriba va malakalariga tayanib ishlaydilar. O'quvchilarning nazariy hamda amaliy faoliyatida erishadigan barcha yutuqlari va ijobiy natijalari o'qituvchi pedagogik mahoratini namoyon etuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. O'qituvchi pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini bilishi, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Quyida keltirilayotgan pedagogik mahorat fanining asosiy tarkibiy qismlari milliy an'ana va urf-odatlarimizdan kelib chiqib, hozirgi global rivojlanish davrida yanada to'ldirilib borilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. "Pedagogik mahorat" tushunchasiga ta'rif bering.
2. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari haqida.
3. Pedagogik mahoratning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni.
4. Pedagogning kasbiy mahorati, pedagogik imkoniyatlari va ularning tarkibiy qismlarini asoslang.

3-mavzu: SHAXSDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANISHI. IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDA SHAXS SIFATLARINI TUTGAN O‘RNI

Mavzu rejasi:

1. “Shaxs” tushunchasi va shaxsni rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Shaxs shakllanishiga oid turli yondashuvlar.
3. Shaxs sifatlarini tuzilishi.

Tayanch tushunchalar: shaxs, inson, individ, odam, xulq-atvor, dunyoqarash, rivojlanish, ijtimoiy muhit.

1. “Shaxs” tushunchasi va shaxsni rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari

Shaxs haqida umumiy tushuncha. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi.

Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

Shaxs rivojlanishi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi ta’riflarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbayi qarama-qarshiliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda, inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali ta'riflar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki, rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangani nuqtayi nazardan yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy- biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deyдилar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo‘lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o‘tib, insonga u tabiatdan berilgan, deyiladi. Mazkur ta’limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtayi nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o‘zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog‘laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog‘liq deb ko‘rsatadilar.

Muhit deganda, odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta’sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o‘zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo‘lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta’sirini aniqlashda ilg‘or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta’limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma’naviy boyligi uning munosabatlariga bog‘liq, deb hisoblaydilar.

Falsafiy-antropologik yondashuv o‘zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funksiyasiga ko‘ra o‘quvchining ma’naviy dunyosiga yo‘naltirilgandir. Ana shu sababli, mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda, muloqot va o‘zaro bir-birini tushunish asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning o‘ziga xosligi ta’lim-tarbiya jarayonining barcha subyektlariga nafaqat dunyoqarash ko‘rinishida, balki

mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda, borliqni anglab etish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o‘z- o‘zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta’siri ham muhim hisoblanadi. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Birinchiidan, tarbiya ta’sirida muhit bera olmagan bilim, ma’lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalar hosil bo‘ladi.

Ikkinchiidan, tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklar ham o‘zgartirilib, shaxs kamolga etadi.

Uchinchiidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’ sirini ham yo‘qotish mumkin.

To‘rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta’sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

2. Shaxs shakllanishiga oid turli yondoshuvlar

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to‘rt yondashuv qaror topgan:

Biologik yondashuv – inson tabiiy mavjudot bo‘lib, uning butun xatti-harakatlari tug‘ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo‘ysunishga majbur, shu bilan birga, tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

Ijtimoiy yondashuv – inson biologik mavjudot sifatida tug‘iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta’siri ostida ijtimoiylashadi.

Psixologik yondashuv – insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo‘nalganligi - qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

Yaxlit yondashuv – shaxs yaxlit tavsifga ega bo‘lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o‘ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy hayot natijalari – motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu, yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishlarini tashkil etadi. Shunda, bola rivojlanishiga tarbiyaning ta’siri kuchli bo‘ladi. Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi.

Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki, bola organizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar.

Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki, bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, yig‘inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. “temperamentum” “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuyidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud.

Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo‘linadi:

➤ Go‘daklik davri - chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo‘lgan davr.

➤ Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha.

➤ Maktabgacha bo‘lgan yosh davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

➤ Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (bolalar) -7 yoshdan 12 yoshgacha.

➤ O‘rta va katta maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar, ilk o‘spirinlar) - 12-17 yosh.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘linadi:

➤ go‘daklik (1 yoshgacha);

➤ ilk yosh (1-2 yosh);

➤ ilk yosh guruhi (2-3 yosh);

➤ kichik yosh (3-4 yosh);

➤ o‘rta yosh (4-5 yosh);

➤ katta yosh (5-6 yosh);

➤ maktabga tayyorlov davri (7 yosh, majburiy ta‘lim).

Kichik maktab yoshida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘irligi jihatdan, uning tashqi ko‘rinishi ham farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o‘shiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o‘rganishga qiziquvchan bo‘ladi.

O‘rta va katta maktab yoshi (o‘smirlik, ilk o‘spirinlik 12-17 yosh). O‘smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bolaning o‘shisi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe‘l-atvoriga ta‘sir etadi. O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba‘zilarining o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi.

Bu davr o‘spirinlarning ilk balog‘atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O‘spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtayi nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg‘ularida

ham o‘zgarish yuz beradi. O‘z-o‘zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o‘rtasida munozaralar o‘tkazish yaxshi natija beradi. O‘spirinlar o‘z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o‘spirinning barcha intilishlari ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Ularda o‘quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O‘spirinlik – bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda, o‘qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g‘oya- fikrlari va dunyoqarashlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o‘zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo‘ladi. O‘zini kattalardek his etish, o‘ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o‘ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o‘z qarashlari nuqtayi nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o‘z qiziqishlari bilan o‘lchaydilar. Shu bois, ularga katta yoshlilarning beg‘araz, to‘g‘ri yo‘nalish berishlari o‘ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda, shaxsning jamoadagi mavqeyi, jamoa shaxslari bilan muomalamuloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada, ta’lim muassasasida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta’siri katta ahamiyatga ega. Chunki, o‘spirin yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo‘lib, ularning bu hayotga to‘g‘ri qadam qo‘yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo‘lishining muhim shartidir.

3. Shaxs sifatlarining tuzilishi

Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari. Gender” atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan bo‘lib, “jins” ma’nosini bildiradi. Jinsiy munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o‘rganilgan bo‘lsa-da, yangi atamaning paydo bo‘lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni

yuzaga keltirdi. “Gender tarixi”, “Gender psixologiyasi”, “Falsafaning gender tomonlari”, “Gender antropologiyasi”, “Gender sotsiologiyasi”, keyinchalik esa “Gender pedagogikasi” kabi fan tarmoqlari shakllandi. “Gender” tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o‘g‘il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: «Gender» inglizcha so‘z bo‘lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlari ma’nosini anglatadi. Bu tushuncha, erkaklar va ayollar o‘rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarning butun majmuyini hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog‘liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi. Psixologlar ham gender tushunchasiga o‘ziga xos tarzda yondashganlar: psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog‘liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko‘rinishidir. Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug‘ma, qaysi biri esa ta’lim va tarbiya jarayonida rivojlanganligi to‘g‘risida keskin munozaralar bormoqda. O‘g‘il va qiz bolalarning har bir xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab, jinslarning psixologik farqlari ma’lum bo‘ladi. Bu farqlar orasida psixologlar (A.E.Taras, 2002) qizlar o‘g‘il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq deb ta’kidlashadi. O‘g‘il bolalarda qizlarga qaraganda o‘ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni yengilroq qabul qilishadi. O‘zgaruvchan muhitga tez moslashishadi. O‘g‘il bolalar har bir ta’rifni umumiy tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o‘ganib, keyin unga baho berishadi.

Pedagogik ma’noda gender – o‘g‘il va qiz bolalarning murakkab ta’limiy sotsiomadaniy birligi bo‘lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, o‘quv faoliyatidagi o‘zaro teng va farqli jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda o‘g‘il va qiz bolalarning rivojlanishidagi fiziologik, axloqiy, emotsional, xulq-atvoriga oid farqlar to‘liq o‘rganilgan. Ana shu asosdan kelib chiqib, o‘quvchilarning rivojlanishida hisobga

olish lozim bo'lgan quyidagi gender xususiyatlarni sanab o'tish mumkin:

✓ qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ikki marta ko'proq savol berishadi;

✓ qizlar tog'ridan-to'g'ri o'zining istaklari haqida gapirmaydi, lekin tezda kelishib ketadi; o'g'il bolalar esa, hal qiluvchi fikrni ayta olishadi va o'zi nuqtayi nazarida qolishni afzal ko'rishadi;

✓ mustaqil hal etish bilan bog'liq vazifalarni bajarishda o'g'il bolalar sifati, qiz bolalar esa hajmini hisobga olishadi;

✓ o'g'il bolalar ko'proq falsafiy fikr yuritadi, fikrning mantig'iga e'tibor berishadi; qizlarga ko'proq psixologiya, adabiyot yoqadi;

✓ o'g'il bolalar dialog, munozarani afzal ko'rishadi; qiz bolalar monologlikka moyil, eshitishni va o'zida aks ettirishni yoqtiradi;

✓ o'g'il bolalar ko'proq virtual(mo'jiza)likka, xayolotga qiziqishadi; qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ratsional va pragmatik. Ular o'z tanlovlarini foydalilik nuqtayi nazaridan, ya'ni tanlanayotgan narsa qanchalik maqsadga erishishga imkon berishiga qarab amalga oshirishadi;

✓ o'g'il bolalar o'z tuyg'ularini ochiq bayon etishadi; qiz bolalar o'z xohish va istaklarini yashirishadi, aytish uchun uzoq vaqt kutishadi.

Shaxs ijtimoiylashuvi. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo'lgan quyidagi ta'riflar aniqlangan:

✓ shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayonida ro'y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeliklar hamda ularning ta'siri yetakchi o'rin tutadi;

✓ bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hissiy birligi sifatida muhim ahamiyatga ega;

✓ shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi;

✓ shu sababli, uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi;

✓ shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo'ladi - mazkur ta'rif shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblanadi;

✓ shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davri shaxsning ijtimoiylashuvida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi;

✓ ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo'lmay, shaxs hayotining barcha davrlarini qamrab oladi.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviy va shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr- qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi - ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yori va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Nazorat uchun savollar

1. "Shaxs" tushunchasi.
2. Shaxs rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Shaxs shakllanishiga oid turli yondashuvlarni izohlang.
4. Shaxs sifatlarini tuzilishi mohiyatini yoriting.
5. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari tasnifini keltiring.

4-mavzu: PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIV RIVOJLANISHI

Mavzu rejasi:

1. “Kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchasining mohiyati.
2. Pedagogik kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlar.
3. Kreativlik kasbiy ijodkorlikning asosi sifatida.

Tayanch tushunchalar: kreativlik, pedagogika, “Kreativ pedagogika” fani, fanning maqsadi, fanning vazifalari, fanning obyekti, fanning predmeti, fanning tarkibiy tuzilmasi, fanning asosiy kategoriyalari, Kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, ilmiy-tadqiqot metodlari.

1. “Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchasining mohiyati

«Kompetent» va «kompetentlik» tushunchalarining etimologik tahliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin. Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiluvchi talablar nuqtayi nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to‘plamini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

Kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o‘rinda, «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to‘la ochiladi, u quyidagi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatleri to‘plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida.

Hozirgi vaqtga kelib, pedagogik faoliyatning turli sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash jarayonining ko‘p qirrali jihatlarini ochib berishga bag‘ishlangan jiddiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Kasbiy tarbiyalanganlik ta’lim-tarbiya masalalarining uzoq tarixiy ildizlari

sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy asarlarida ham aks etgan. Tarixiy meroslarimizda kasbga yo'naltirilganlik g'oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi masalalari haqida ko'plab fikr-mulohazalar bayon etilgan. E.Foziyev, B.Qodirov, M.Davletshin, V.Karimova, L.S. Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn va boshqalar o'z ilmiy ishlarida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish, ularni kasbga yo'naltirishning psixologik asoslari haqida e'tiborga molik fikrlarni ilgari surishgan bo'lishsa, M.Ochilov, U.Maxkamov, M.Quronov, F.Yuzlikaev, J.Hasanboev, Yo.Haydarov, O'.Tolipov, N.Sayidahmedov, N.Nishonaliyev, E.Choriyev, N.Shodiyevlar ilmiy-tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilim va malakalarni shakllantirish, malakali kadrlar tayyorlash masalasini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etishgan.

Shu bilan birga, shuni ham qayd etish kerakki, mutaxassisning kasbiy kompetentligini tarbiyalash masalalari tadqiqot obyekti sifatida maktab o'qituvchisini yoki oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisini tayyorlash va malakasini oshirish doirasida qaraladi. Jumladan, o'qituvchini didaktik (M.Ochilov), psixologik-pedagogik (E.G'oziyev), umumpedagogik (N.N.Azixodjayeva, O.A.Abdullina), innovatsion (R.A.Mavlonova, V.A.Slastenin), ijodiy (V.A.Kan-Kalik) tayyorlashning ahamiyati va vazifalari o'rganilgan. N.A.Muslimov, N.S.Gaipova, M.M.Qodirovlarning mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda yangi sifat darajaga o'tish to'g'risida: «Bugungi kunda mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda bo'lajak mutaxassislarning shunday sifatleri talab etiladiki, yuqori darajadagi bilim va kasbiy ko'nikmalar asosida ular pedagogik faoliyatni va ishlab chiqarish jarayonini tahlil qila oladigan, yangi nostandart g'oyalarni ilgari sura oladigan, ratsional, zamonaviy talablarga javob beradigan metod va vositalarni, kasbiy va ilmiy axborotlarni o'zlashtirishning yangi usullarini amaliyotda qo'llay oladigan bo'lishi lozim. Shuning uchun, bo'lajak mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning xarakterini sezilarli darajada o'zgartirish kerak. Bu masalalarni hal etish, mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning yangi sifat darajasiga o'tishni talab etadi», - degan fikrlarni bildirib o'tganlar.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida «kompetentlik» degan tushuncha keyingi paytlarda keng qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy adabiyotlarda o'tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlagan edi.

«Kompetentlik» – tushunchasi esa, shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi.

«Kompetentlik» atamasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Bu tushuncha noan'anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o'zini qanday tutish, muloqotga kirishish, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to'g'risida nazariy bilimlar zarurligini ko'rsatadi.

Inglizcha «*competence*» tushunchasining lug'aviy ma'nosi «qobiliyat» demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi.

G'arb mamlakatlarida shakllangan an'anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentlik, ta'lim tizimi esa – bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi. Xorijiy mamlakatlarda an'anaga muvofiq ishchining bilim va malakalarining o'ziga xos xususiyati hisoblangan mutaxassislik (malakaviy) standartlari ishlab chiqiladi. Ushbu standart natijanigina (nimaga erishilishi kerak) qayd etadi.

Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Pedagogikada kompetent yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta'lim jarayonlarida mavjud bo'lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan edi. «Mahorat», «malaka», «salohiyat» masalalari, faoliyat, shu bilan birgalikda, bir qator faoliyatlarning birikuvi M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, V.V.Kraevskiy, G.P.Shedrovidskiy, V.V.Davidov va boshqa pedagogika sohasining olimlari ilmiy asarlari asosini tashkil etgan.

N.V.Kuzmina, A.K.Markova, E.F.Zeer, V.A.Slastenin, T.F.Loshakova o'qituvchining «kasbiy kompetentlik» haqida ko'plab ishlarni amalga oshirganlar.

B.A.Nazarova o'zining ilmiy ishida D.Dyui, U.Uoller, M.Mid, K.Yung, P.Sorokin, F.Znaneskiylarning falsafasida kasbiy kompetentlik tushunchasiga shunday ta'rif berganliklarini ta'kidlaydi: «Bu muhitga o'rganish vositasi, chunki kasb odamni unga to'g'rilaydi, odamning qiziqishlarini aniqlaydi, bitta kasbda ishlagan odamlarning qiziqishlarini jamlaydi».

D.L.Tompson, D.Pristinlar: «Kasbiy kompetentlik – ishda kerak bo'lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig'indisidir», – deb ta'kidlaydilar.

I.V.Grishina kasbiy kompetensiya shaxsning o'z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta'riflaydi:

- o ushbu faoliyatga bo'lgan munosabati, unga zarurat va qiziqishi, intilishlari, qadriyatlarini, faoliyatdan maqsadi, o'zining ijtimoiy o'rni tasavvur qilishi;

- o o'zining shaxsiy o'ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeyiga, kasbiy bilim, mahorat va ko'nikmalari, kasbga xos boshqa xususiyatlariga baho berish;

- o shu asosda, o'zini kasbiy jihatdan shakllanishini va o'sishini boshqara bilishi.

Psixologiyada I.N.Shpilrien, S.G.Gellershteyn, Ye.A.Klimov, V.D.Shadrikov, K.K.Platonov, N.V.Kuzminalar fikrlariga ko'ra, hayotda yuz beradigan turli vaziyatlarni, muammolarni yechishga yordam beradigan fazilatlar, qobiliyatlar kompetentlik deb tushuntiriladi. Kasbiy kompetentlik – bu qaysidir kasbda bor bo'lgan standartga rioya qilish.

A.P.Akimova kasbiy kompetentlikni shunday ta'riflaydi: «O'z faoliyatida kerak bo'lgan yangiliklarning, bilimlarning, qobiliyatlarning yig'indisi va atrof-muhit bilan o'zaro to'g'ri kelishi».

Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog'liqligini N.V.Kuxarev shunday ta'riflaydi: «Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o'qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to'plami».

A.K.Markova o'qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o'qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o'qituvchi o'zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o'z mehnatida qo'llashni bilishi kerak.

A.K.Markova eng ko'p o'qituvchi mehnatining kasbiy kompetentligi asoslarini qidirgan pedagog olim. A.K.Markova fikri bo'yicha o'qituvchining mehnati kompetentlikka aylanadi qachonki, o'qituvchi o'z faoliyatini yetarlicha yuqori hamda talaba va talabalarni o'qitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirsa. Ushbu asoslar bilan birga o'qituvchining kasbiy kompetentligini to'rtga bo'lib o'rganadi:

Maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik – bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishi. Maxsus kasbiy kompetentlik nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat;

Ijtimoiy kompetentlik – bu qo'shimcha faoliyatni olib borish yo'llarini bilish, hamkorlikda bajarish yo'llarini bilish;

Shaxsiy kompetentlik – o'zini rivojlantirish va o'zini ko'rsatish yo'llarini bilish (mutaxassis o'zining faoliyatini rejalashtirish, mustaqil qaror qilish, ma'lumotlar bilan va o'z ustida ishlash).

Individual kompetentlik – bu o'zini boshqarish yo'llarini bilish, kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik va kasbiy yangiliklar yaratish. Shu bilan birga, o'qituvchining bilimlari yangiliklar bilan boyigan bo'lishi, psixologik va pedagogik fazilatlar yuqori darajada bo'lishi.

R.X.Tugeshevning ta'kidlashicha, kasbiy mahorat shaxs sifatining yuksalishi sari qo'yilgan qadamlar yordamida faqat bir faoliyat uchun egallangan kompetensiyadir. Kompetensiya egasi deganda, olim

shaxsning o'z ishining ustasi, mahorati bilangina cheklanmaydi, balki ishni tashkil etishi, o'z faoliyatiga aloqador barcha muammolarni tizimli ravishda tushunishi, vazifa qo'ya bilishi va aniq muammolarga yechim topish qobiliyatiga ega bo'lishi kabi fazilatlarni nazarda tutadi. Ana shunday inson, ma'lum bir sohada kompetensiya egasi degan nomga sazovor ekanligini qayd etadi. Agar R.X.Tugeshev kompetensiya tushunchasini kasbiy mahorat degan tushuncha bilan bir xil ekanligini qayd etsa, E.F.Zeer esa kasbiy yo'naltirilgan kompetensiya va kasbiy qobiliyat oliy darajadagi kasbiy mahoratni ta'minlaydi, degan fikrni olg'a suradi.

Kasbiy kompetensiya shaxsning subyektiv faoliyati tarkibidagi to'rt jihatning biri hisoblanib, E.F.Zeer ta'kidlaganidek, kasbiy kompetensiya o'z kasbiga oid bilimlar, mahorat hamda kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari yig'indisidir.

Psixolog A.K. Makarova kasbiy kompetensiya tushunchasi insonning barcha xislatlarini o'z ichiga oladi, ular yordamida kasbiy faoliyat davomida inson yuksak natijalarga erishadi deb uqtiradi. Uning fikricha, kasbiy kompetensiya mutaxassisning shunday mehnat faoliyatiki, natijada yuqori darajada kasbiy faoliyat amalga oshiriladi va mutaxassis shaxs sifatida o'zini namoyon qiladi. Shunday qilib, A.K. Makarova kasbiy kompetensiya tushunchasi mazmunini yanada kengaytiradi, uning tarkibiga mutaxassisning subyektiv xususiyatlarini ham kiritadi.

Bu sohada, kompetensiya bilan bog'liq muammolarni, umuman, ijtimoiy kompetensiyalarni, tadqiq etish ishlariga xorijlik olimlar L.P.Alekseeva, V.M.Basova, N.V.Nuzmina, A.K.Makarova, L.M.Mitina, V.G.Podzolkov, A.A.Petrovskaya, A.N.Sergeev, A.V.Sergeeva, G.I.Sivkova, N.A.Shaydenko kabi olimlar ulkan hissa qo'shganlar.

Kasbiy kompetensiya fenomenini «tayyorgarlik» tushunchasi bilan qiyoslash keng tarqalgan. V.A.Slastenin nuqtayi nazariga ko'ra, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi tushunchasi uning nazariy va amaliy tayyorgarligi shaxs umumiy tayyorgarligi tizimi tarkibiga kirib, kasbiy mahorat, uning kasbiy darajasini belgilaydi. Kasbiy kompetensiyani oliy ta'limning asosiy maqsadi sifatida Yu.G.Tatur quyidagicha ta'riflaydi: «Oliy ma'lumotli mutaxassis kompetensiyasi, uning amaliyotdagi intilishi va qobiliyati» (tayyorgarligi) hamda

o‘zining imkoniyatlarini (bilim, mahorat, tajriba, shaxsiy fazilatlari va boshqalarni) muvaffaqiyatli, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, kasbiy va ijtimoiy sohada qo‘llashga hamda bu faoliyatni ijtimoiy ahamiyatini, uning natijalariga nisbatan shaxsiy mas‘uliyatni his etishi, doimo uzluksiz ravishda o‘z ustida ishlashi kabi fazilatlarni ro‘yobga chiqaradi. Yu.G.Tatur kasbiy kompetensiya tushunchasini tahlil qilar ekan, bu tushunchani faoliyatning samaradorligiga erishish, subyektning muvaffaqiyat qozonishi, omad va maqsadga yetish qobiliyati, deb tushuntiradi.

Ko‘pchilik olimlar kasbiy kompetensiya tarkibida umumlashgan shaxsiy sifatlarni har qanday oliy ta‘lim muassasasini tamomlaganlar uchun o‘ta muhim ekanligini qayd etadilar.

O.N.Melnichuk va A.Yakovlevlar quyidagi sifatlarni ta’kidlaydilar: o‘ziga ishonib topshirilgan ish va odamlar oldidagi mas‘uliyat, halollik, ijtimoiy zarurlik, so‘z bilan ish birligi, keng madaniyat va boshqalar. «Umumlashgan shaxsiy sifatlar» tushunchasini qo‘llagan tadqiqotchi G.B.Skok uni jismoniy, ruhiy va axloqiy, salomatlik, mas‘uliyatli, umummadaniy, ma‘lumotlilik deb tushuntiradi. Jumladan, E.F.Zeer uni vaziyatlarni tez idrok qilish, muomalaga tez kirishish, o‘zini tuta bilish, mustaqil harakat qilish kabi fazilatlar bilan bog‘laydi.

V.G.Pishulin kasbiy kompetensiya xoh umumiy, xoh maxsus bo‘lsin, ko‘p hollarda xotira, mantiqiy va ijodiy fikrlash, refleksiya, chaqqonlik, epchillik, uddaburonlik, qat‘iylik, tartibli va o‘z so‘zida turish, ehtiroslarga berilmaslik, kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, diqqat-e’tibor, jiddiylik va muomalaga kira olish kabi fazilatlarni yuzaga chiqishiga olib keladi, deb yozadi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar qatori biz ham yuqoridagi fikrlarga qo‘shilamiz. Ularning fikrlariga ko‘ra, ma‘lum bir kasb mutaxassisi o‘z kasbiy faoliyati doirasidagi kompetensiyalarni egallashi zarur. Ular oliy ta‘lim sohasiga belgilangan davlat me‘yorlarida ko‘zda tutilgan hamda shaxsning kasbiy rivojlanishi va ijtimoiy hamkorligi masalalarida ham belgilab qo‘yilgan. Bo‘lajak mutaxassis – kasbiy ishlab chiqarish va texnologik sohalar kompetensiyalarini ham egallashi, loyihalash, ilmiy tekshirish va tashkiliy boshqaruv hamda kommunikativ kompetensiyalarga ega bo‘lishi juda zarurdir. G.N.Sinisina texnika mutaxassisligi

bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning kompetensiyasini o'rganar ekan, ular uchun kompetensiyaning loyihalash turi muhim ekanligini ta'kidlaydi. Chunki loyihalash kompetensiyasi muhandis kasbiy faoliyatining asosini tashkil etadi. «Loyihalash faoliyatidagi kompetensiya» – bu integrativ shaxsiy yangi ta'lim bo'lib, u chuqur bilim, mahorat va ijobiy tajribalar asosida loyihalash masalalariga yechim topadi.

Biz bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy nuqtayi nazarini tahlil qilar ekanmiz, uning faoliyati ko'p hollarda loyihalash xususiyatiga ega. Kasbiy kompetensiya tuzilishi va mazmuni ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat. Kasbiy kompetensiya – bu bilim, mahorat va tajriba uzviyligi bo'lib, loyihalash mutaxassis faoliyatini ro'yobga chiqaruvchi omil hisoblanadi. Turli mualliflar tomonidan e'lon qilingan kasbiy kompetensiya muammolari to'g'risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi. Ayniqsa, kasb ta'limi o'qituvchilari uchun bu o'ta muhim jihat sanaladi hamda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasida ijodkorlik masalasiga alohida urg'u beriladi.

Ijodiy dunyoqarash va qo'rqmay ijodiy faoliyat ko'rsatish, hatto u turmush masalalari bo'lsa ham; «talaba» va uning mashg'ulotlari erkin tarzda takomillashib borishini chin dildan istashi va uni tashkil etish mahorati; «talaba»ning o'sishi va har tomonlama rivojlanishi uchun shaxsiy mas'ullik ana shular jumlasidandir.

G.S.Altshuller va I.M.Vyortkinlar tomonidan olg'a surilgan gipotezaga ko'ra, bo'lajak ijodkor shaxs uchun dastlabki rivojlanish bosqichlarida «mo'jiza bilan uchrashuv» muhim ahamiyat kasb etadi. U minimum ikki xususiyatni o'zida jamlagan bo'ladi:

1. Odatiy muhitda g'ayrioddiylik kasb etadi;
2. «O'yinchoq»qa o'xshagani bilan emas, balki hayratlanarli ekanligi bilan ko'zga tashlanadi.

Shaxs shakllanishining keyingi davrlarida u o'zining asosiy faoliyati sari qadam tashlar ekan, mo'jiza voqealar ijodiy shaxsni tez-tez ta'qib qila boshlaydilar. Ular bolalikdagi tasavvurlar bilan bir butunlik kasb etadi. Bu hodisalar bir tomondan inson ongi doirasi, fikrlashning oxirgi chegarasida bo'lsa, ikkinchi tomondan shaxsning qiziqishlariga turtki bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta'limni rag'batlantirish muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Pedagogning kasbiy kompetentligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga R.A.Mavlonova, N.N.Azixodjayeva, F.Yuzlikaev, R.X.Djurayev, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin va boshqa qator olimlarning ishlari pedagogik kompetentlikka bag'ishlangan. Bu mualliflar kasbiy kompetentlik shaxsiyatlik, ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda o'qituvchining kasbiy-shaxsiyatli hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrdalar. O'z navbatida, kasbiy kompetentlik tushunchasi, V.A.Slastenin ta'kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning professionalizmini tavsiflaydi. Psixologik, pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, «kasbiy kompetentlik» va «professionalizm» tushunchalari sinonimlar sifatida qaraladi. Biroq, ularning mohiyatini aniqlashda farqlar bor. Odam professionalizmi kompetentlik bilan bir qatorda uning kasbiy yo'nalganligi, shaxs kasbiy muhim sifatlarining mavjudligi bilan ta'minlanadi. Professionalizmning yuqori darajasiga odam o'z faoliyatini egallash va uzoq vaqt bajarish jarayonida erishadi. Demak, pedagogning kasbiy kompetentligi mutaxassisning professionalizmini tarbiyalashda asos bo'ladi va ular orasiga tenglik belgisini qo'yish mumkin emas.

Pedagogika va psixologiyada kasbiy kompetentlikning mohiyati, mazmuni, strukturasi, asoslarini va uni tarbiyalash imkoniyatlarini ta'riflashda turlicha yondashuvlar mavjud. Mualliflar M.G.Davletshin, E.G'oziev, N.V.Kuzmina va boshqalar bu muammoni psixologik nuqtayi nazardan ko'rib chiqishni taklif etsalar, M.Ochilov, U.Mahkamov, S.Ochilov O.Musurmonova, V.A.Slastenin va boshqalar pedagogning o'z shaxsiyat xarakteristikalarini, kasbiy ahamiyatli tarbiyalanganlik sifatlarini rivojlantirishiga urg'u beradilar. Mualliflar U.Nishonaliyev, U.Tolipov, N.Sayidahmedov, J.G'.Yo'ldoshev, V.V.Serikov va boshqalar esa polivalent kasbiy kompetentlikni asosiy texnologik masalalar beshta guruhining biriga kiritadilar, mualliflar

M.Ochilov, U.Maxkamov, S.Ochilov O.Musurmonova, V.A.Slastenin va boshqalar kasbiy tarbiyalanganlik kompetentligini o'qituvchining professionalizmi strukturasi ichida deb ta'kidlaydilar.

Tadqiqotchi B.Nazarova o'zining ilmiy ishida pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik kompetentligini tadqiq qilishda bir qator ilmiy asarlar asosida uning quyidagi turlari farq qilinishini ta'kidlaydi:

– maxsus tarbiyalanganlik kompetentligi – kasbiy faoliyatini yetarlicha yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;

– ijtimoiy tarbiyalanganlik kompetentligi – birgalikdagi (guruhli, kooperativ) kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, mazkur kasbda qabul qilingan kasbiy muloqot uslublarini egallaganlik, o'z kasbiy mehnati natijalari uchun ijtimoiy mas'ullik;

– autokompetentlik – o'zining ijtimoiy-kasbiy xarakteristikalari haqida adekvat tasavvur va kasbiy destruksiyalarni yengib o'tish texnologiyalarini egallaganlik;

– ekstremal kasbiy kompetentlik – to'satdan murakkablashgan sharoitlarda, halokatlarda, texnologik jarayonlar buzilganida va h.k.larda ishlash qobiliyati.

Kasbiy tarbiyalanganlik kompetentligining ko'rsatib o'tilgan turlari bunday xilma-xilligiga qaramasdan, mualliflardan hech biri ularni tasniflash mumkin bo'ladigan umumlashtiruvchi mezon asosini keltirmaydi. Jumladan, ijtimoiy tarbiyalanganlik va ekstremal kompetentliklar tavsiflash uchun turli asoslarga ega, demak, strukturasi, mazmuni va tarbiyalash sharoitlari bo'yicha farq qiladi.

Bu yerda aytib o'tilgan kasbiy tarbiyalanganlikda kompetentlik turlari odamning kasbiy faoliyatda va muomalada yetukligini, professional shaxsning qaror topishini anglatadi. Bu yerda «yetuklik» so'zi «odam ruhiy, aqliy va jismoniy qobiliyatlarining eng yuqori rivojlangan, rivojlangan mas'uliyat hissi, boshqa odamlar haqida g'amxo'rlik qilish ehtiyoji, jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyati» sifatida qaraladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda fikr bildiradigan bo'lsak, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi shakllanishida ham protsessual, ham shaxsning ijodiy fazilatlarini rivojlanib borishi lozim.

Mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi tuzilishi va mohiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, quyidagicha xulosalar chiqaramiz:

Mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi shaxsning murakkab tuzilmasi bo‘lib, uning faoliyatini aniqlab beradi va umummadaniy, kasbiy bilimlar, mahorat, ko‘nikmalar, kasbiy ijodiy yondashuv, shaxsning ijtimoiy yo‘naltirilganligi, umuman, kasbiy vazifalar samarasi yechim topishni ta‘minlovchi majmuadir.

Mazmun-mohiyatiga ko‘ra, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi bilimlardan iborat: funksional (turli fan sohalarini tashkil etish prinsiplari haqidagi bilimlar) harakat haqidagi amaliy bilimlar (metodik va texnologik) hamda shaxsning o‘z bilimlaridan iborat. Bularning natijasida mutaxassisning kasbiy, kommunikativlik mahorati va ko‘nikmalari shakllanadi, loyihalash, tajribaviy va texnologik vazifalarni ijobiy yechish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Tezkor faoliyat va maqsadlarga bo‘ysundirilgan unsurlarga kasbiy komponentlar kiradi: o‘qish va bilim olish, maqsad va mo‘ljallash, qayta tashkil qilish, kommunikativ va estetik unsurlar ana shular jumlasidandir.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish yuzasidan tahlil ishlarini olib borish natijasida ilmiy adabiyotlarda kompetentlikning quyidagi turlarga bo‘linishi va ular ustida ish olib borgan olimlar aniqlandi:

- ✓ kommunikativ kompetentlik (S.L.Bratchenko, Yu.I.Yemelyanov, A.P.Panfilova, O.P.Sannikova, G.S.Trofimova, V.D.Shirshov);
- ✓ bilim olish kompetentligi (S.G.Vorovshikov, D.V.Tatyanchenko);
- ✓ intellektual kompetentlik (E.G.Gelfman, M.A.Xolodnaya);
- ✓ intellektual-korporativ kompetentlik (A.Arinushkina);
- ✓ axborot olish kompetentligi (A.M.Orobinskiy, O.G.Smolyaninova);
- ✓ texnologik kompetentlik (N.N.Manko);
- ✓ madaniy kompetentlik (M.V.Buligina, O.A.Lukina, N.V.Pomorseva, A.N.Fedorova);
- ✓ psixologik kompetentlik (A.D.Alferov, I.F.Demidova, V.N.Drujinin, N.V.Yakovleva);

- ✓ psixologik-pedagogik kompetentlik (M.I.Lukyanova, Ye.V.Popova);
- ✓ kasbiy kompetentlik (A.K.Markova, V.A.Yakunin);
- ✓ ijtimoiy-psixologik kompetentlik (A.G.Kudryavseva, L.I.Berestova);
- ✓ umummadaniy kompetentlik (N.Yu.Konasova, O.Ye.Lebedev, A.A.Petrov).

Bulardan tashqari ta'lim standartlariga adabiy, matematik kompetentlik tushunchalari kiritilgan.

Kommunikativ kompetentlik G.S.Trofimova tomonidan batafsil o'rganilgan bo'lib, shaxsning insonparvarlik sifatlariga asoslangan va kommunikativ faoliyatning mahsuldorligini ta'minlashga qaratilgan, shaxsning shaxslararo muloqoti tajribasiga, uning o'qimishliligi, tarbiyasi va rivojlanganligi darajasiga bog'liq bo'ladi.

G.S.Trofimova pedagogik kommunikativ kompetentlik g'oyasini, uni o'lchash metodikasini, didaktik modelini va kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning mazmuniy tuzilmasi bosqichlarini ishlab chiqdi.

Kommunikativ kompetentlikni didaktik vositalar orqali shakllantirishning yo'llari va usullari aniqlandi hamda nazariy jihatdan asoslab berildi. Bu o'qitishga muloqot sifatida qarashlar tasdiqlanadi va o'quv jarayonining kommunikativ tabiatidan ta'lim oluvchilarning shaxsiy salohiyatlarini faollashtirish maqsadida foydalanish imkoni yaratiladi demakdir. Bunda didaktik shart-sharoitlarga shaxsning insonparvarlik sifatlarini shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi omili sifatida qaraladi. Ilmiy-nazariy jihatdan ilk bora «kommunikativ kompetentlik» va «kommunikativ kompetensiya» tushunchalari bir biridan ajratildi: birinchi atama o'zaro muloqot muammolari bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy psixologlar va pedagoglar tomonidan foydalaniladi, ikkinchisi bilim olish faoliyati bilan bog'liq va undan tilshunoslar foydalanadilar.

Kommunikativ kompetentlik muammosi gumanitar bilimlarning turli sohalarida muhim o'rinlardan birini egallaydi – falsafada (M.S. Kagan, B.D. Parigin, V.M. Sokovnin), umumiy va ijtimoiy psixologiyada (B.G. Ananov, A.A. Bodalev, Yu.N. Yemelyanov, A.A. Leontev, L.A. Petrovskaya), pedagogikada (N.V. Kuzmina, V.V.

Sokolova, G.S. Trofimova), ijtimoiy pedagogikada (B.Z. Vulfov, G.A. Kudryavseva). Insonparvarlik paradigmasiga mos ravishda subyekt-subyekt munosabatlari asosida deviant xulq atvorli o'smirlar bilan ishlashda pedagog-psixologlarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish muammolari o'rganilgan (R.B. Deriglazova).

Bilim olish kompetentligi – «ijtimoiy jamiyat madaniyatida mavjud bo'lgan qoidalar, qadriyatlar, bilimlarni egallash usullari tizimiga mos keladigan bilim olish faoliyatining individual darajasi» deb belgilanadi. Ushbu kompetentlik shaxsning hayotiy faoliyatidagi tashabbuskorlik xususiyatlariga asoslanadi. Ta'lim oluvchi oldida shunchaki fanlarning asoslarini o'rganish emas, balki, fanni o'rganish jarayonida o'zining bilim egallash imkoniyatlarini kengaytirish, murakkablashtirish vazifasi turadi. Zero, shunchaki bilimli odam emas, balki bilimlarni egallash, puxtalash va ularni amalda qo'llay olish mexanizmi shakllangan odam kuchliroqdir. Bilim olish kompetentligining asosida umumiy o'quv ko'nikmalari yotadi. Kompetentli ta'lim sifatini oshirishning muhim jihatlaridan biri – masalalarni hal etish jarayonida kerakli axborotni izlab topish, qayta ishlash va undan unumli foydalana bilish, muammoni aniqlash hamda uni hal eta olish va boshqa shu kabi ko'nikmalardan iborat bo'lgan umumiy o'quv ko'nikmalarini maqsadli ravishda rivojlantirish hisoblanadi.

Intellektual kompetentlik deganda, bilimlarni qo'llay olishning o'ziga xos turi, ya'ni muammolarni hal etishda, shu jumladan muammoli vaziyatlarda ham, samarador qarorlar qabul qila olish imkoniyatlarini ta'minlay oladigan darajadagi kompetentlik tushuniladi. Tadqiqotchilar kompetentli odamlarga xos bo'lgan bilimlar elementlari sirasiga quyidagilarni kiritadilar: turli-tumanlik, aniqlik va o'zaro bog'liqlik, moslashuvchanlik, muhim jihatlarni tez ajrata olish, turli vaziyatlarda amalda qo'llay olish, muhim tayanch elementlarining mavjudligi, biror ishni bajara olish bo'yicha amaliy bilimlarga egalik.

Intellektual-korporativ kompetentlik «murakkab psixologik xususiyat bo'lib, korporativ tizim sifatida kompaniya tomonidan masalalarni maqbul ravishda hal etilishidagi kabi ko'nikma va malakalar to'plamidan iborat bo'ladi». Ular qatoriga – masalalarni to'g'ri qo'ya bilish va loyiha oldi tadqiqotlarini amalga oshirish,

axborot texnologiyalarini loyihalashtirish, innovatsion g'oyalarni kiritish, kompaniyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqarib bilish kabi ko'nikmalarni kiritish mumkin.

N.N.Mankoning fikricha, pedagogning texnologik kompetentligi – mavjud pedagogik tizim obyektlarini o'zgartirish faoliyatida qo'llaniladigan kreativ texnologik bilimlar, qobiliyatlar va stereotiplar tizimidir. «Bilim olish faoliyatining amaliy va intellektual mexanizmlarini takomillashtirish, didaktik vositalar yordamida o'qib o'rganish faoliyatining tashqi rejasini tuzish, o'quv harakatlarini rejalashtirish va hokazolar boshqaruv hamda shakllantirishni tartibga keltirishning texnologik-pedagogik asoslari hisoblanadi. Bu umumiy kasbiy kompetentlikning maxsus bo'limi hisoblanadi».

N.V.Andronovanning fikricha, psixologik kompetentlik, – mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish imkonini beradigan o'ziga xos psixologik (shaxsiy) quroli, uning psixologik madaniyatining bir qismidir. O'qituvchining psixologik kompetentligi ikkita blokdan iborat: intellektual (kognitiv) va amaliy (harakatli). Intellektual blokka psixologik bilim va tafakkur, amaliy blokka psixologik ko'nikma va malakalar kiritilgan.

Psixologik-pedagogik kompetentlik deganda, M.I.Lukyanova fikricha, pedagogik faoliyatga va o'quv jarayonida ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqotni o'rnatish olishga yuqori darajada tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxsning muayyan xislatlari (sifatlarini)ning yig'indisi tushuniladi.

A.K.Markovanning fikricha, kasbiy kompetentlik – mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini egallaganligining sifat ko'rsatkichi bo'lib, mazkur faoliyatga nisbatan o'zining moyilligini anglash, o'zining shaxsiy xislat va sifatlarini baholay olish, o'zining kasbiy jihatdan shakllanishini to'g'ri yo'naltirish bilish, o'z o'zini takomillashtirish va o'z o'zini tarbiyalay olishini nazarda tutadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, kasbiy kompetentlikning tuzilmasi uch tarkibiy qism: mazmuniy, motivatsion va ijro etish (amalga oshirish) dan iborat.

V.A.Yakunin kasbiy kompetentlikni kengroq ma'noda talqin qiladi va uni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi: kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi, kasbiy masalalarni mustaqil ravishda ijodkorona hal etishga intilish va qodirlik, odamlar bilan ishlashga va

ularni boshqarishga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlik, ma'naviy axloqiy jihatdan yetuklik, siyosiy madaniyat.

Yu.V.Vardanyan tomonidan kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilgan, uning mohiyati, mazmuni va tarkibiy qismlari aniq-langani, kasbiy kompetentlikning subyekt, obyekt va predmetli tarkibiy qismlarining bir butunligidagi modeli tuzilgan. Oliy ma'lumotli mutaxassisning kasbiy kompetentligi deganda, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining nazariy va amaliy jihatdan tayyorgarligi va kasbiy faoliyatni amalga oshirishga qodirligining bir butunligi tushuniladi. Kasbiy kompetentlikning tuzilmasidagi subyektli tarkibiy qismi – o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga ega bo'lgan, bunyodkor, rivojlanishga intiluvchan, o'zini kasbiy jihatdan tashxis qilish, o'zgartira olish va tahlil qila bilish, shuningdek, o'z kasbiy faoliyati va uning natijalarini tashxis qilish, o'zgartirish, baholash va tahlil qilishga qodir bo'lgan mutaxassisning o'ziga xos sifat darajasini bildiradi. Oby'ektli tarkibiy qism – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyat tizimini yaratish va uning masalani qo'yilishidan boshlab to erishilgan natijagacha bo'lgan barcha bosqichlarda harakatlanishini ta'minlash jarayonini bildiradi. Predmetli tarkibiy qism – gu-manitar soha mutaxassisining va undan kasbiy yordam va xizmatlarni oluvchi odam yoki bir necha odamlardan iborat guruhning birgalikdagi o'zaro taqsimlangan faoliyatining mahsulidir.

V.I.Yudin ta'kidlashicha, variativ pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish o'qituvchilarning kasbiy pedagogik kompetentligini takomillashtirishning ichki shartlari hisoblanadi. A.V. Dobudko ta'limni axborotlashtirish sharoitlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligi mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini axborot va kommunikatsion texnologiyalar vositalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat doirasida yangi algoritmlarni qo'llash zarurligi bilan bog'liq deb hisoblaydi. S.A. Gudkova, o'z mustaqilligini orttirib borish zaruratini anglagan holda ta'lim oluvchini «o'zi o'rganuvchiga» aylantirishi orqali inson kasbiy mahorat cho'qqilarini egallashi mumkin, deb hisoblaydi. Umuman olganda, kasbiy faoliyatni egallash jarayoniga ko'p tarkibli, tizimli jarayon sifatida qarash zarur (R.V.Gabdreev, Ye.I.Rogov va b.). Shu bilan birga, kompetentlik yondoshuvini shakllantirishning asosiy manbai –

o'qituvchi, peda-gog, chunki faqat o'qituvchi o'z o'rnini anglash, o'z imkoniyatlarini belgilash uchun vaziyatlarni yaratib bera oladi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik deganda odamlar bilan samarali ravishda ishlash uchun qo'llaniladigan, ilmiy jihatdan asoslangan psixologik usullarni egallaganlik, boshqa odamlar bilan muvaffaqiyatli ravishda o'zaro muloqotga kirishishga tayyorlik darajasi tushuniladi.

S.V.Mureeva zamonaviy fanda aniq belgilangan ta'rifi yo'qlini e'tirof etgan holda, madaniyatlararo kompetensiya tushunchasini kiritadi. Tayanch tushuncha sifatida bilimlar kategoriyasini tanlab, individning boshqa xalqlar madaniyati bo'yicha bilimlarga egaligini madaniyatlararo kompetensiya deb belgilaydi. Muallif tomonidan talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi didaktik qoidalar ajratib ko'rsatiladi: axborotning o'rganish uchun ahamiyatli qoidasi, fanlararo aloqalarni hisobga olish qoidasi, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga individual-shaxsiy yondashuv qoidasi.

N.V.Pomorseva, ta'lim oluvchilarning madaniy kompetensiyalarini tadqiqot qilar ekan, bu jarayon madaniy, madaniyatlararo, ko'p madaniyatlilik kabi bir qancha tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligini hisobga oladi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, madaniy kompetensiyani shakllantirish pedagogik jarayonining samaradorligiga yagona, bir butun ta'lim makonini yaratish, madaniyatning umumiy timsolini, dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish orqali erishish mumkin.

Muallifning fikriga qo'shilgan holda, zamonaviy ta'limning global maqsadi – madaniyatli insonni rivojlantirish deb hisoblaymiz. S.N.Ulasevich ta'lim oluvchilarning ma'lumot olish kompetentligi – yaxlit shaxsiy ta'lim bo'lib, ta'lim oluvchining nazariy va amaliy jihatdan ma'lumotini amalga oshirish imkonini beradigan faoliyatga tayyorligi va qodirligining bir butunligi deb hisoblaydi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi anchagina qiyinchilik tug'dirayotgan, tadqiqotchilar tomonidan turlicha hal etilayotgan masala bilan to'qnashib turibdi, bu kompetensiya tushunchasining mazmuni va uning chegaralari, uning tarkibiga kirgan qismlarining hajmi masalasidir. I.A.Zimnyaya birinchidan, tayanch kompetensiyalarni guruhlash asoslarini ajratish va nazariy jihatdan asoslab berishga, ikkinchidan, ularning asosiy, zarur atamalari majmuyini aniqlashga va

uchinchidan, ularning har biriga kiritiladigan kompetensiya turlarini belgilashga harakat qildi.

Tayanch kompetensiyalarning uch guruhini ajratib olish uchun nazariy asos sifatida psixologiyada shakllantirilgan qoidalar xizmat qiladi, bu qoidalarga inson muloqot, bilim olish va mehnat subyekti ekanligi (B.G.Ananov); inson jamiyatga, boshqa odamlarga, o'ziga nisbatan munosabatlar tizimida namoyon bo'lishi (V.N.Myasishev); insonning kompetentligi akmeologik rivojlanish vektoriga ega ekanligi (N.V.Kuzmina, A.A.Derkach); kasbiy mahorat kompetentlikni o'z ichiga olishi (A.K.Markova) kabilar kiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kompetentlikning uch asosiy guruhi ajratib ko'rsatiladi:

O'z o'ziga, shaxs sifatida, hayot faoliyati subyekti sifatida munosabatda bo'ladigan kompetentliklar. Insonning boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlariga taalluqli kompetentliklar. Insonning barcha turdagi va shakldagi faoliyatiga taalluqli kompetentliklar. Shunday qilib, ta'limga kompetentlik asosida yondashuv ta'lim natijalarining yangi turlarini yuzaga keltiradi.

Shaxsning o'z kasbiy faoliyatini bajarishi uchun quyidagi shaxsiy sifatlar zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o'z kuchiga ishonish, o'z kasb mahoratini tinmay oshirib borish, jarayonlarni emotsional-qat'iylik bilan boshqara bilish, kompetensiya yuzaga chiqishi natijalari. Shunday qilib, mutaxassis kasbiy kompetensiyasining mohiyati, mazmuni va tuzilishini aniqlar ekanmiz, kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini o'rganishning asoslariga ega bo'lamiz. Lekin mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllanishida psixologik-pedagogik shart-sharoitlar ham muhim ahamiyatga egadir. Bu haqida keyingi paragrafda fikr yuritiladi.

2. Pedagogik kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlar

Ta'lim mazmunining o'quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to'plami uchun) va predmetli (ma'lum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e'tirof etib o'tamiz:

- ✓ tayanch kompetentlik (ta'limning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga ko'ra);
- ✓ fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o'quv fanlari va ta'lim bloklarining ma'lum doiriligiga ko'ra);
- ✓ bitta predmet(fan) bo'yicha kompetentligi (maxsus o'quv fani doirasida aniq va ma'lum imkoniyatga egaligiga ko'ra).

Shunday qilib, tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan ular quyidagi kompetentlik turlariga bo'linadi:

Yaxlit-mazmunli kompetentlik. Bu talabanning qadriyatli yo'nalishlari bilan bog'liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo'lini topa olishi, o'zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o'rnini anglab yetishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog'liq kompetentlik, u talaba uchun o'quv va boshqa vaziyatlarda o'zini aniqlash mexanizmini ta'minlaydi. Talabanning individual ta'lim yo'nalishi va uning hayotiy faoliyatining umumiy dasturi ana shu kompetentlikka bog'liq.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik. Talaba chuqur o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo'lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an'analarning madaniy asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta'siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo'sh vaqtni samarali tashkil etish usullarini bilishi.

O'quv-bilish kompetentligi, bu talabanning o'rganilayotgan aniq obyektlar bilan bog'liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo'lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to'plami bo'lib, unga maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar kiradi. O'rganilayotgan

obyektlarga nisbatan talabalarni kreativ ko'nikmalari, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

Axborot olish kompetentligi. Audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o'quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Kommunikativ kompetentlik. Ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi tilni o'zlashtirish, guruhlarda ishlash ko'nikmalari, jamoada turli xil manaviy-marifiy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishni bilishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik fuqarolik (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy-mehnat sohasi (iste'molchi, haridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqeini aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallash (xususan, mehnat bozoridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab, harakat qilish mahorati, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarining odobini bilish)ni anglatadi.

*Amaliy faoliyatga oid kompetentlik*da bir harakat ta'rifidan ikkinchi harakat ta'rifiga ko'chira olish, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo'nalish olish ko'nikmalari tushuniladi.

Faoliyatli yondashuvning amalga oshirilishiga B.Djurayevaning fikri ko'p darajada mos keladi: u o'qituvchi faoliyatining ushbu turlarini ajratadi: gnostik, o'quv-metodik, kreativ, kommunikativ-tashkiliy. Pedagogik faoliyatning strukturaviy elementlari sifatida quyidagilar keladi:

1. Mazkur fan uchun xos bo'lgan bilimlar tarkibini mutaxassis kasbiy faoliyatining tipik masalalari strukturasi integratsiyalash. O'quv fanini o'qitish maqsadlarini ishlab chiqish va tasniflash.

2. Fanning o'quv-metodik mazmunini tanlash va o'qitish dasturini talabalarning bilish faoliyatlari elementlari bo'yicha yoyish.

3. Kreativ faoliyat – barcha ajratilgan mavzular bo‘yicha o‘quv dasturiga muvofiq ravishda o‘quv-metodik ta‘minotni ishlab chiqish.

4. Talaba va o‘qituvchi o‘zaro ishlashining kommunikativ-tashkiliy aspektlarini talabalarning o‘zicha boshqariladigan ishi jarayonida ishlab chiqish. To‘g‘rilovchi nazoratni tashkil etish.

3. Kreativlik kasbiy ijodkorlikning asosi sifatida

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta‘minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta‘lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq.

Ma‘lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga, kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni

rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi.

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar hali hanuz shaxs o'zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayaptilar.

Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, o'quv yilining oxirida kelib oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko'plab talabalarning ta'lim olishga nisbatan qiziqishi yo'qolgan. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavq-u shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmayapti. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan talabalar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga

majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi⁴.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasi-ning ma'noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, “kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui” (Azzam, 2009-y.) sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtayi nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish” demakdir.

Ko'plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar (Kim, 2005-y.).

“Kreativlik” tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ko'pgina o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o'qituvchilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “Agarda o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va

⁴ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”⁵.

Patti Drapeau nuqtayi nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. *Har tomonlama fikrlash* talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda *bir tomonlama fikrlash* esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun, ular E.P.Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash,

⁵ O‘sha asar, 10-bet.

o‘ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O‘quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to‘rtta mezonni qanotlantirishi lozim⁶.

E.P.Torrens fikricha, “kreativlik”⁷ tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin⁸. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilgan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu ta’rif “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki ta’rifni kafolatlay olishi zarur:

1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularni o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;


2) o‘qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni

⁶ O‘sha asar, 4-5-betlar.

⁷ Башина Т.Ф., Илин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – с.

⁸ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.



1-rasm. Pedagogik kreativlikning asosiy shakllari

Muallif tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar talabalarda kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchilar uchun qo'l keladi hamda talabalarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi⁹.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'lai. Ular quyidagilardir:

⁹ O'sha asar, 6-bet.

Nazorat uchun savollar

1. “Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchasi mohiyatini yoriting
2. Pedagogik kasbiy kompetenlik nima?
3. Pedagogik kasbiy kompetenlikning xos sifatlar nimalarni qamrab oladi?
4. Kreativlik - kasbiy ijodkorlikning asosi sifatida ko‘rinishlarini qiyosiy tahlil qiling.

5-mavzu: O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI

Mavzu rejasi:

1. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi.
2. Pedagogik muloqotda muomala madaniyati.
3. Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta’siri.
4. Muloqot asosida ma’naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari.

Tayanch tushunchalar: pedagogik muloqot, muloqotni tashkil etish, bosqich, usul, tashabbus, boshqaruv, pedagogik muloqot, uning o‘ziga xos xususiyatlari.

1. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi

O‘qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Respublikamizda o‘qituvchilik kasbining o‘ziga xos etnopsixologik fazilatlari, hislatlari, qobiliyatlari ish uslublari, pedagogik mahorat sirlarini egallash yo‘llari, shaxslararo muloqot madaniyati yuzasidan turli davrlarda har xil ilmiy izlanishlar olib borilgan. Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy sifatleri bilan belgilanishini ta’kidlab o‘tish lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to‘g‘ri tanlangan, o‘qituvchining ma’naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuyini hal qilishga yordam beradi: birinchidan, muloqotda har bir o‘quvchiga alohida e’tibor va dilkashlik sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o‘qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi; ikkinchidan, har bir o‘quvchi bilan o‘zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarni tanlash, uning

ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga “kirib borish”ga yo‘l ochadi; pedagogik muloqotda o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo‘lib, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o‘qituvchining o‘z faoliyatidan qoniqish hissini va xotirjamligini ta’minlaydi. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqot madaniyat individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

MULOQOT MADANIYATI INDIVIDUAL USLUBLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

1. O‘quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o‘rganishi:

- o‘quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish;
- o‘quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish;
- o‘qituvchining muloqot madaniyatini to‘g‘ri tashkil etishi.

2. Shaxsiy muloqotda ro‘y beradigan kamchiliklarni darhol bartaraf etishi:

- kamchiliklarga barham berish choralarini darhol izlab topish;
- har qanday vaziyatda o‘quvchilarga qo‘pollik qilmaslik;
- o‘quvchi shaxsini mensimaslik kabi salbiy ta’riflarni bartaraf etish.

3. O‘qituvchi o‘zi uchun muloqot madaniyatining eng qulay bo‘lgan uslublarini tanlab olishi:

- pedagogik faoliyatiga monand muloqot madaniyati modelini ishlab chiqishi;
- o‘z-o‘zini kuzatish bilan muloqotdagi yutuq va kamchiliklarini muntazam taqqoslab borishi;
- muloqotda milliy ma’naviyatimiz, urf-odat va an’analarimiz imkoniyatlaridan doimiy foydalanish.

4. Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik:

- har bir o‘quvchining individual xususiyatlariga mos muloqot tizimini ishlab chiqishi;
- muloqotning tarbiyaviy ta’sirini va samarasini e’tirof etish;

- muloqot madaniyati asosida pedagogik mahoratni namoyish etish.

Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o‘quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o‘qituvchi va o‘quvchilarning bevosita o‘zaro munosabatini ma’lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo‘naltiruvchi kuchdir. Bu o‘rinda, o‘qituvchi quyidagi vaziyatlarni e’tiborga olishini alohida ta’kidlash lozim: - o‘qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so‘z ohangiga e’tibor, an’anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o‘zlashtirishi; - muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o‘quvchilar xatti-harakatining oldingi ta’rifi bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi ta’rifini qiyoslab chiqib baho berish; - o‘z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so‘z, ovozdagi yoqimli ohang, xulq-atvorni vujudga keltirish; - pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o‘zi kifoya qilmaydi, o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalaning “ustoz-shogird” an’analariga xos boshlanishi va o‘zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala obyektining diqqatini o‘ziga jalb qilish; - muloqot obyekti, ya’ni o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma’nosi o‘qituvchi o‘zining xushmuomalaligi, madaniyati, go‘zal xulqi, muloqotda o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa olishi bilan o‘z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir. Ko‘rsatib o‘tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta’sir ko‘rsatish uchun, o‘qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida talablar qo‘yiladi. Ushbu fazilatlar o‘qituvchining sinf jamoasida, ota-onalar bilan muloqot qila bilishida, o‘quvchilar bilan aniq maqsadni ko‘zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ulami boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir.

Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo‘lmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan yosh o‘qituvchi quyidagi xususiyatlar o‘zida mujassamlashtirishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga ega bo‘lgan yuksak ma‘naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e‘tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g‘oya va istiqloq mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg‘ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- o‘quvchilarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlari tushunish ko‘nikmasi va malakasining shakllanganligi;

- jamiyatda ro‘y berayotgan hodisalar, jahonda ro‘y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi;

- pedagogik faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, o‘z faoliyatiga nisbatan reflektiv munosabatni tarkib toptirish;

- har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro‘y berayotgan yangiliklarga nisbatan;

- iqtisodiy o‘zgarishlarga aql-idrok bilan munosabatda bo‘lish, o‘z oldiga to‘g‘ri maqsad qo‘ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o‘z imkoniyatlarini namoyon eta olish;

- pedagogik faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhi munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi;

- dunyoqarashi va tafakkur ko‘lamining kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishning serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilligi, muayyan ilmiy salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

- o‘quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma‘noli, ta‘sirchan kuchga egaligi, psixologik ta‘sir o‘tkazish uslublari bilan qurollanganligi.

Har bir o‘qituvchi uchun o‘quvchilarga to‘g‘ri, omilkor axborot uzatish va unga suhbatdoshini ishonтира olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi. Bunda o‘qituvchining muloqot madaniyati, ma‘naviy olamining

kengligi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning pedagogik faoliyati uzluksizdir, u pedagogik muloqot madaniyatini muntazam shakllantirib borishida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berishi lozim:

1. Yuksak pedagogik faoliyat nuqtayi nazaridan o'z-o'zini anglashi, (muomalada o'zining o'zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini bilishi) va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini tarbiyalashi.

2. Kishilar bilan o'zaro munosabatda kommunikativ iqtidorini shakllantirib borishi, muloqot asosida to'g'ri bashorat qilish sezgilarini mashq qildirishi, muloqotda o'zining ideal tasavvurlarini, imkoniyatlarini boshqalar (o'qituvchilar jamoasi, o'quvchilar, ota-onalar) qanday baholashi haqidagi reflektiv tasavvurlarini tahlil qilishi.

3. O'zida muosharat odobining muhim xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlashi.

4. O'quvchilar va ota-onalar bilan tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan turli jamoat ishlarini olib borishi, bunda o'zaro fikr almashish asosida pedagogik tashkilotchilik qobiliyatini takomillashtirib borishi.

5. Muloqot jarayonida paydo bo'ladigan salbiy ta'riflarni yengish ko'nikmalarini shakllantirishi, dilkashlik va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratishi.

O'qituvchi muloqot madaniyati asosida faoliyat olib borgan taqdirda ham, o'quvchilar jamoasi orasida turli tushunmovchiliklar, ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy hol. Har qanday tajribali o'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. O'quvchilar jamoasida sodir bo'ladigan har qanday pedagogik vaziyatga javobgar shaxs o'qituvchidir. Bu barcha davrlar pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladigan tipik hodisa. Ayniqsa, ushbu ta'rif endigina o'z faoliyatini boshlagan yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida muammoli vaziyatlarni paydo qiladi. Yosh o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini doimiy nazorat qilish ularga to'g'ri yo'nalish berish, barcha o'quv muassasalari pedagogik jamoatchiligiga, ustoz o'qituvchilar zimmasiga yuklatilishi lozim. Pedagogik faoliyatda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadigan o'qituvchining yoshiga va ish tajribasi ko'lamiga, odatda, o'quvchilar hech qachon e'tibor bermaydilar.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf etishi uchun, avval o'z iqtidoriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar o'qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir. Ushbu mehnatning salbiy va ijobiy tomonlari bo'lishi shubhasiz. Har bir vaziyatni oqilona baholash, uni to'g'ri rejalashtirish, tarbiyaviy dars yonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etish zarur. O'qituvchi bilan o'quvchilarning muloqotda bir-birlarini o'zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, har bir o'quvchinin ruhiyatiga qarab muomala qilinmasligi, barchaga bir xil majburiy itoatkorlik munosabati, o'quvchilarni tor doiradagi intizomga chaqiruvchi emotsional jihatdan salbiy tus berilgan buyruq shaklidagi muloqot doimiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan tizimini tuzish uchun, har bir o'qituvchi o'zining muammolaridan, yo'l qo'yilgan kamchiliklaridan kelib chiqib, qiyinchiliklarni tahlil qilish bilan bartaraf etishi lozim. Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo'nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko'maklashuvchi uning shaxsiy xislatlarini rivojlantirib borishni ta'minlovchi vositalardan foydalanishni taklif qilinadi. Muloqotga, ba'zi o'quvchilarning subyekti qarashlarini aniqlash, shu o'quvchi bilan muloqotni oqilona hal qilinishi uchun zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yo'li, unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish kerak. Mazkur vaziyatlarda o'zaro harakatlarning tizimli vositalari majmuasi quyidagicha belgilanishi mumkin:

- muloqot jarayonida tarbiyalanuvchi obyektning javob harakati imkoniyatlarini oldindan ko'ra bilish;
- obyektida psixologik to'siq va salbiy qarashlarni keltirib chiqaruvchi vositalarni qo'lga kiritish;
- vaziyatning o'zgarishiga qarab foydalanish mumkin bo'lgan muloqotlarning bir nechta modeliga ega bo'lish;
- o'quvchilar jamoasi fikrlarini tinglash, ularning mulohazalariga qo'shilish, ularga hamdardlik ko'nikmasini rivojlantirib borish;
- o'zaro muloqot natijalarini baholash va erishilgan yutuqlar hamda kamchiliklarni pedagogik-psixologik vositalar asosida

taqqoslash. Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchining shaxsi, uning qarashlari nuqtayi nazarlarida va xulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq. Bu asosiy xislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning moyilligi xarakteri, muvaqqat psixik ta'riflari, shuningdek, to'plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi shaxsining professional jihatlarini va o'z-o'zini tarbiyalash yo'llaridan biri o'zining sifat va hislarini, shuningdek, pedagogik faoliyat va muloqotlarining barqaror xususiyatlariga, o'qituvchi bilimining saviyasi va tarbiyalanganligi natijasida erishilgan natijalarini tahlil qilishga doir mashqlarda ham namoyon bo'ladi.

2. Pedagogik muloqotda muomala madaniyati.

O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning xatti-harakati, pedagog mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagog jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. O'qituvchi subyekti bilan, o'quvchi obyektiga o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o'zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir etadi, natijada o'qituvchining ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlarini rivojlanmaydi. Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatiga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhi tarbiyalaydi.
3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.
4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi. Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarini mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;

- muomala obyektini bo'lmish o'quvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirini bilishi;

- o'quvchilarning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;

- o'quvchilarga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O'qituvchining nutqi ravon, o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi. Nihoyat, o'qituvchining o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning xatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun, namuna sifatida uning o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvor usullaridan foydalanadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o'rnini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo'ladi. Pedagogik muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o'z tarbiyalanuvchilari, umuman o'quvchilar jamoasi haqida, unda ro'y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g'oyat xilma-xil axborotlarga ega bo'ladi va o'zining kelgusi ta'lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi muloqot asosida o'z tarbiyalanuvchilariga ma'lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma'lum qiladi. Bunda, o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan arzimas bir xatolik, adolatsizlik, qo'pollik o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo'ladi va tuzatib bo'lmaydigan og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi ta'riflar paydo bo'ladi:

- pedagogik muloqot orqali o'qituvchi tarbiyalanuvchi obyekt bilan o'ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda,

o'qituvchi o'zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san'ati, ta'sir o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;

- o'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;

- o'quvchilar jamoasi bilan muomalada o'qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;

- o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi. Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida obyekt va subyektning ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro uyg'unlashuvni yuzaga keltiradigan muomalaning asosiy bog'lovchisi so'zdir. So'z - mazmunan o'qituvchining nutqida, ma'ruzasida, dialog, monolog va deklamatsiyalarida o'z ifodasini topadi. Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o'qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o'quvchilarning shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e'tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati, o'qituvchini g'oyat xilma-xil sharoit va ko'rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirtidan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasada, o'quvchilar ichki dunyosida sodir bo'layotgan, ularni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlarini bilib, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. O'qituvchi o'quvchilarning ichki dunyosini tushunib, muloqotga kirishishi lozim. O'qituvchining muloqot madaniyati asosida gapiradigan har bir so'zi, fikri, turli hodisa va jarayonlar o'quvchilar tomonidan har xil ko'rinishda tushuniladi, bu o'quvchining fikr-mulohazasiga, ichki dunyosining teranligiga, tafakkuri va dunyoqarashining kengligi bilan izohlanadi, bunda o'qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko'nikma va malakasi; muayyan o'quvchilar jamoasi bilan muomalada bo'lish tajribasi.

3. Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta'siri

Odamlarning mehr-oqibati, bir-birlariga nisbatan o'zaro hurmat e'tiborda bo'lishlari o'zaro muomala jarayonida namoyon bo'ladi. Xalqimizda azaldan muloqot salomlashish madaniyatidan boshlanadi. Salomlashish turli xalqlarda har xil amalga oshiriladi. Xalqimizda salomlashish axloqlilikning yuksak namunasi sifatida e'tirof etilib, uning negizida umuminsoniy qadriyatlamining ustuvorligi, shu millatning ruhiy xususiyatlari, o'zaro munosabatlarining ma'naviy asoslari, bo'lajak muloqotning xarakteri, o'zaro hamkorligi aks etadi. "Qur'oni Karim"da salomlashish odobi musulmon ahlining qat'iy majburiy burchi tarzida bayon etiladi: "Ey mo'minlar, o'z uylaringizdan boshqa uylarga to'izn so'ramaguningizcha va egalariga salom bermaguningizcha kirmangiz. Mana shu sizlar uchun yaxshiroqdir. Shoyad ushbu eslatmadan ibrat olsangizlar". Ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi, ular yaratgan so'z, xalq tilining tuganmas boyligi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda, Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Hisrav Dehlaviy, Abu Hamid G'azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq va G'arb donishmandlarining boy meroslarida farzandlarni tarbiyalash va kamolotga yetkazish asosiy muammo sifatida targ'ib qilingan. Ular so'zni va nutqni ta'lim-tarbiyada ilohiy ne'mat va hikmat deb bilishgan hamda har bir so'zning o'z o'rnini va ahamiyatini borligini, tarbiyada so'zdan kuchliroq va qudratliroq narsa yo'qligini, tilga e'tibor – elga e'tibor ekanligini, so'z sehri mo'jizalar yarata olishini ta'kidlab kelganlar. Bularning barchasi mudarris va shogirdlarning samimiy muloqoti jarayonida amalga oshirilgan. Mudarrislar barkamol va tarbiyalangan insonning o'nta nishonasi borligini alohida ta'kidlashgan:

- birinchisi: xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik;
- ikkinchisi: yoshlikdan o'z nafsiga erk bermaslik;
- uchinchisi: birovlardan aslo ayb qidirmaslik;
- to'rtinchisi: yomonlik va omadsizlikni yaxshilikka yo'yish;
- beshinchisi: agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish va kechirimli bo'lish;

- oltinchisi: muhojirlar hojatini chiqarish;
- ettinchisi: doimo el g‘amini yeyish;
- sakkizinchisi: aybini tan olish;
- to‘qqizinchisi: el bilan ochiq chexrali bo‘lish;
- o‘ninchisi: odamlar bilan doimo shirin muomalada bo‘lish.

Muloqot Sharqona tarbiyada axloq ko‘rki sanalgan. Muallim har bir o‘quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati odamlar bilan o‘zaro muloqotida namoyon bo‘lishini uqtirishgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot - azaldan insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositasi bo‘lgan. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham, til - aloqa quroli sifatida ta’riflanadi. Insonning tili shirin, muomala madaniyatiga ega bo‘lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro-e’tibor topadi. Ko‘p gapirish hech qachon kishiga obro‘ keltirmaydi. Shuning uchun ham, o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarimiz tilda aytiladigan har bir so‘zga hurmat bilan, o‘ylab yondashish lozimligini uqtirib o‘tganlar.

Alisher Navoiy o‘z adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to‘g‘risida, shirinso‘zlik haqida noyob fikrlarni bayon qilgan. Bugungi kunda, bu fikrlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. “Til shirinligi – ko‘ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydali. Shirinso‘z, sof ko‘ngillar uchun asal kabi totlidir” – deydi alloma. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining til boyligi muhim ahamiyatga ega: bir tomondan, shirinso‘zlik o‘quvchilarni o‘qitish va tafakkurini rivojlantirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Bundan, shunday xulosa kelib chiqadiki, o‘qituvchining til boyligi nutqining obrazli, chiroyli, jarangdor, namunali bo‘lishini ta’minlaydi, natijada o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb etadi. Zotan, til va nutqning teranligi, o‘qituvchining mahoratini, ma’naviy boyligini, o‘qituvchilik qobiliyatining qay darajada ekanligini ifodalaydigan o‘lchov, ko‘rsatkich hisoblanadi. Alisher Navoiy “Voiz olimning o‘zi, avvalo, halol ish ko‘ruvchi bo‘lishini, uning nasihatidan chiqmaslikni” o‘z asarlarida bayon etgan. Shuning uchun, til shirinligi va notiqlik san’ati ustida ishlash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish har bir o‘qituvchining eng asosiy ijtimoiy burchi va mas’uliyati hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida nutqning ta’sir kuchi nihoyatda beqiyosdir. O‘qituvchining tili, nutqiy qobiliyati o‘quvchilarning o‘zlarini tuta

bilishlariga, xulq-atvori va fikr yuritishlariga ulkan ta'sir etuvchi kuchli vositalardir. O'qituvchining "til boyligi va notiqlik san'ati barcha zamonlarda yonma-yon yashab kelgan" (A.P.Chexov). Uning his-tuyg'usi, intilishlari, iroda va e'tiqodi nutqida aks etadi. O'qituvchi til boyligi bilan o'quvchilarda xursandchilik, ruhlanish, muhabbat, Vatanga sadoqat, g'azablanish, nafratlanish hissiyotlarini uyg'otadi, bilim olishga undaydi. Shuning uchun, o'qituvchi "tilning xalq o'tmishi, hozirgi va kelajak avlodni buyuk bir yaxlitlikka, tarixiy, jonli bir jipslikka aylantiruvchi eng hayotiy, eng boy va eng mustahkam vosita" (K.D. Ushinskiy) ekanligini unutmash kerak. Kishilarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarida shirinsuxanlik, go'zallik, so'zlashuv ohangidagi muloyimlik muosharat odobi deyiladi. Muosharat odobi insonning go'dakligida ota-ona bag'rida, oilada shakllantirilishi kerak. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deyiladi xalq maqollarida. Oilada o'rganilgan muosharat odobining poydevori mustahkam bo'ladi. Bola maktabda, ulg'aygach esa, ijtimoiy muhitda ko'nikma hosil qilish jarayonida oilasida o'rganilgan muosharat odobining kuch-qudratini doimo his qiladi. O'quvchilarda muosharat odobini shakllantirish uchun o'qituvchining o'zi, avvalo, xushmuomalaligini namoyish etib, o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi, mehribonligi, ular bilan hamdard, hamfikir bo'lib, o'rnak bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari asarlarida muosharat odobi turli ko'rinish va nomlarda bayon etiladi. Jumladan, Al Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida asosiy g'oya - fozil kishilar obrazi. U kim bo'lishidan qat'iy nazar shohmi, gadomi, oddiy fuqaromi-fozil kishidir. Shaharning fozil kishilari bir-birlariga nisbatan hurmat va izzatda bo'ladilar. Ota-ona va farzand, ustoz va shogird, do'stlar, qarindoshlar o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom mavjud. Farobiy asarida bundan bir necha asr ilgari ham otabobolarimizning ma'naviyati naqadar yuksak bo'lganligi va bu avlodlarga o'rnak bo'lishi ta'kidlanadi. Balzak "Xushmuomalalik va kamtarlik kishining chinakam ma'rifatli ekanligidan dalolat beradi" deydi. Ingliz donishmandi Jon Libbok "Odamlar bo'doblilik yordamida hattoki, kuch bilan erishish mumkin bo'lmagan g'alabalarga erishishi mumkin"ligini aytadi. Demak, muosharat odobi nafaqat milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizning ko'zgusi bo'lgan, balki turkiy xalqlarning noyob insoniy fazilati sifatida e'tirof etilgan. Insonning eng

ulug‘, lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya’ni jamiyatda o‘z o‘rnini topib yashashidir. Bu faoliyatning murakkabligi shundaki, ko‘pchilikka qo‘shilish, ular bilan ahil bo‘lib yashash uchun insonda shunga yarasha muomala va munosabat bo‘lishi kerak. Muomala va munosabatda o‘quvchilarning diliga to‘g‘ri kelmaydigan qo‘pol va dilozor muloqot olib boruvchi o‘qituvchilarni hech kim yoqtirmaydi. O‘quvchilar xushfe‘l, shirinsuxan, adolatparvar, muomalasi shirin o‘qituvchi va tarbiyachilarni dildan yoqtirishadilar va hurmat-e’tibor qilishadi. Insonlar orasida munosib o‘rnini topish, inoq va hamjihat bo‘lib yashash shartlaridan biri odamning kamtarligidir. Kamtarin inson hech qachon o‘zining yutug‘i bilan, badavlatligi bilan, ilm-hunari bilan maqtanmaydi, hamma vaqt kamgap, sodda bo‘ladi. Ammo, insondagi kamtarlik samimiy bo‘lmog‘i zarur. Shirinso‘zlik – muloqotga kirishishning asosiy qurolidir. U inson qalbini ilitadi, qo‘pol so‘z inson qalbini jarohatlaydi. O‘qituvchining “aql-zakovati, fikri, his-tuyg‘ulari, bilimi va madaniy saviyasi, tafakkuri ta’lim darajada so‘zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi” (Aziz Yunusov). Chunki, so‘zning qudrati katta. O‘qituvchi o‘z so‘ziga, tiliga nihoyatda ehtiyotkor bo‘lmog‘i lozim. Eng avvalo, o‘quvchilarga muomala madaniyatini, kattalar oldida o‘zini tuta bilishi, gapini bo‘lmasligi, yoshi ulug‘larga gap qaytarmaslikni o‘rgatish zarur. Muloqot madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz zarur. O‘qituvchining qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi o‘quvchilarning bir-birlari bilan va ota-onalari bilan olib boradigan muloqoti orqali namoyon boiadi. Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so‘z yordamida yetkazadilar, amalga oshiradilar. Shu tufayli, so‘zlashuv munosabatlari, nihoyatda go‘zal va muloyim bo‘lishini hayot taqozo etadi. So‘zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo‘ladi. Bunday kishilarni yoqtiradilar, hurmat qiladilar. So‘zlashuv ham o‘ziga xos san’atdir. Bu san’atning ildizi muosharat odobi bo‘lib, uni mukammal o‘rganish har bir inson uchun zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o‘rganmoq va sof adabiy tilda o‘quvchilar bilan muloqot qilish o‘qituvchining notiqlik qobiliyatidir.

4. Muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari

O'zbekiston zaminida Sharq ma'naviy madaniyatining muhim jihatlari uyg'onish davrida rivojlangan bo'lib, bu davrda yashab ijod etgan al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Shayx Sa'diy, Tusiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ko'plab mutafakkirlarning ijodiy meroslari pedagogik tafakkur taraqqiyotida, insonning ma'naviy-axloqiy kamolotida, umumbashariy ma'naviy qadriyatlarining yuksalishida muhim bosqich bo'ldi. Ular Sharqona odob-axloq talablari asosida komil insonni tarbiyalashning ma'naviy asosini yaratishga muvaffaq bo'ladilar. Inson o'z qadr-qimmatini va o'zligini umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonida anglay boshlaydi. Ta'lim muassasalarida o'qituvchi tomonidan o'zaro muloqot asosida olib boriladigan quyidagi xususiyatlar negizida o'quvchilarda muloqot orqali ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari (O.Musurmonova) ifodalangan:

✚ har bir insonning qiziqishlarini ko'ra bilish, his etish va hurmat qilish;

✚ milliy-ma'naviy madaniyat manbalarini o'rganish, o'zligini anglashga ehtiyoj;

✚ inson hayotida mehnatning o'rnini to'g'ri tushunish;

✚ insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, milliy qadriyatlarini e'zozlash;

✚ Vatanga muhabbat, sadoqat, o'z manfaatlarini jamiyat, xalq manfaatlaridan yuqori qo'ymaslik;

✚ ota-ona, qarindoshlar va boshqa atrof-muhitidagi kishilarga nisbatan muruvvatli, saxovatli bo'lish.

O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda muloqotning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanib, ong va faoliyat birligini ta'minlashni taqozo etiladi. Ma'naviy ong o'quvchining dunyoqarashi, bilimi, his-tuyg'usi, idroki, irodasi va diqqatining majmuasi bo'lib, u o'qituvchining pedagogik mahorati negizida ta'lim-tarbiyaviy faoliyat asosida shakllantiriladi.

O‘z navbatida, ong ham faoliyatga ta‘sir ko‘rsatadi va uni tartibga soladi. O‘quvchilarning tarbiyaviy muhitda uyushtirilgan ma‘naviy faoliyatda ma‘naviy madaniyat muammolarini erkin, ongli va adolatli yecha olishga intilishi ta‘minlanishi kerak. Ma‘naviy madaniyatning muhim belgilarini shakllantirishda, ta‘lim-tarbiya tizimini ma‘naviy muhit, ma‘naviy faoliyat va ma‘naviy anglash bosqichlaridan iborat andozalar asosida tashkil etishda ushbu mezonlar talablariga rioya qilish belgilangan maqsadni samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bunda, o‘qituvchining muloqoti asosida o‘quvchilar ma‘naviy madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta‘sir etuvchi quyidagi omillar ham muhim ahamiyatga ega:

1. O‘quvchi ma‘naviy faoliyat asosida o‘zligini anglashni shakllantirish uchun ma‘lum bir muhitda ma‘naviy qadriyatlar bilan harakat orqali muloqotga kirishadi. Harakatsiz muhit va faoliyat bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun, o‘quvchilar ma‘naviy madaniyatini shakllantirish samaradorligini ma‘naviy harakat omili ta‘minlaydi.

2. Ma‘naviy qadriyatlarining mohiyati, ma‘naviy-axloqiy tajriba, o‘qituvchining ta‘sirchan nutqiy muloqoti vositasida o‘quvchilar ongiga singdiriladi. Nutqiy aloqalar tarbiya jarayoni obyektlari va subyektlari orasida kechadi va o‘quvchi ma‘naviy madaniyatini shakllantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchining xulq namunasi, ma‘naviy harakati, nutqiy aloqalar samaradorligi o‘qituvchi va o‘quvchining muloqoti asosidagi faoliyat munosabatlari bilan belgilanadi.

3. Ma‘naviy qadriyatlarining tarbiyaviy imkoniyatidan ta‘sirlanish va amaliy faoliyatda ularga tayanish, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilishini ta‘minlab, o‘quvchi ma‘naviy madaniyatini tarbiyalashdagi ahamiyatini yanada takomillashtirish ta‘lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan (o‘qituvchi va o‘quvchi) doimiy ijodkorlikni talab qiladi. Ijodkorlik - milliy-ma‘naviy qadriyatlar asosida o‘quvchi ma‘naviy madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchi ta‘lim-tarbiya jarayonida uning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi.

4. O‘quvchi ma‘naviy madaniyatini shakllantirishning muvaffaqiyati o‘qituvchining muloqot olib borish psixologik taktikasi omillariga ham bog‘liq. Ushbu omilni harakatlantiruvchi sharoitlar:

- o‘qituvchining pedagogik-psixologik va maxsus fanlar integratsiyasi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi;
- mutaxassisligi bo‘yicha kasbiy mahorati;
- o‘quvchilar bilan o‘zaro do‘stona muloqot madaniyati;
- o‘quvchilarning ruhiy ta’rifini tez bilib olishi;
- o‘qituvchi ma’naviy madaniyatining shakllanganlik darajasi;
- ta’lim-tarbiyaning zamonaviy usul va metodlarini tanlay bilishi;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari to‘g‘risida chuqur ma’lumotlarga ega bo‘lishi;
- o‘qituvchining pedagogik jamoa orasidagi hurmat - e’tibori.

5. O‘qituvchi muloqot asosida o‘quvchilarda ham ijodkorlik omilini takomillashtirib boradi. O‘quvchida uning sifatleri quyidagi belgilar bilan namoyon bo‘ladi:

- ✓ ma’naviy qadriyatlarni, an’analarni o‘zlashtirishga qiziqishda ehtiyoj va talabning kuchliligi;
- ✓ o‘rganilayotgan fanlar asoslarini egallashga ijobiy munosabat;
- ✓ ma’naviy madaniyat saviyasi, dunyoqarashi;
- ✓ o‘z-o‘ziga nisbatan talabchanlik;
- ✓ tabiatga, atrof-muhitga ongli munosabat;
- ✓ yangiliklarni va axborot texnologiyalarini o‘rganishga qiziqish;
- ✓ ijtimoiy va shaxsiy faolligi;
- ✓ nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasi;
- ✓ tashabbuskorligi va ijodkorligi.

O‘quvchilarda ma’naviy madaniyatni shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatli borishi ta’lim mazmuniga asoslanib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish saviyasiga bog‘liq. Bu quyidagi faoliyat turlarini mukammal bilishni taqozo etadi: Birinchidan, o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas’uliyatni, faollikni va eng asosiysi, muloqot madaniyatiga rioya etishni talab qiladi. Ikkinchidan, har bir darsda o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham belgilangan maqsadni aniq qo‘ya bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to‘g‘ri belgilab olishi lozim. Uchinchidan, dars jarayonida bilimlar mazmunining ilmiyligi, uzluksizligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, o‘qituvchining notiqlik san’ati asosida bayon etish shaklining mukammalligi, qiziqarliligi o‘quvchilarda ta’limiy va tarbiyaviy tomondan o‘rganiladigan qadriyatlarga qiziqishni

kuchaytiradi, ularda tarixiy, adabiy, milliy va diniy xarakterdagi milliy qadriyatlar bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish ishtiyoqi rivojlanadi. To'rtinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, nazariy va uslubiy tayyorgarligi, o'z kasbiga, faniga munosabati, olib boradigan darsi andozasini va uning natijasini oldindan ko'ra bilish, har bir dars samaradorligini ta'minlovchi texnik va texnologik belgilardan biridir. Beshinchidan, dars jarayonida o'quvchilar jamoasiga erkin fikr yuritish, o'z fikr-mulohazasini erkin bayon etishga imkoniyat yaratish, o'quvchilar jamoasi fikriga tayanish, ularning fikr-mulohazalari, ishtirokchilarini e'tiborga olish, o'quvchilarning mustaqil ishlaridan keng foydalanish zarur. Oltinchidan, o'quvchilar bilimiga, xulqiga beriladigan bahoning xolisona va adolatli bo'lishi barcha ta'lim va tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etishiga ijobiy ta'sir etuvchi omil ekanligini unutmazlik kerak. Xulosa qilib ta'kidlash joizki, ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar ongiga muloqot asosida milliy qadriyatlar va ma'naviy madaniyatni shakllantirish, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqotini hozirgi zamon pedagogik talablari asosida mukammal tashkil etilishini ta'minlaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi kasbiy faoliyatida qanday ahamiyat kasb etadi?
2. O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirish metodikasi qanday bosqichlardan iborat?
3. Pedagogik muloqot madaniyatiga erishish uchun o'qituvchi qanday vaziyatlarni e'tiborga olish darkor?
4. O'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash lozim?
5. O'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga xos xususiyatlariga ta'rif bering.
6. O'qituvchining muloqotga kirishishi deganda nimani tushunasiz?
7. Yosh o'qituvchilarning pedagogik muloqot madaniyatiga xos xususiyatlar.
8. O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar.

6-mavzu. PEDAGOGIK TEXNIKA HAQIDA TUSHUNCHA. PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATI.

Mavzu rejasi:

1. Pedagogik texnika haqida tushuncha.
2. Pedagogik texnika xususiyatlari.
3. Sharq mutafakkirlari notqlik san'ati haqida.
4. O'qituvchining nutq madaniyati va notqlik san'ati.

Tayanch tushunchalar: pedagogik texnika, verbal kommunikatsiya, noverbal kommunikatsiya, kuzatuvchanlik, sezgirlik, tashqi qiyofa.

1. Pedagogik texnika haqida tushuncha

Pedagogik texnika pedagogik mahoratning tarkibiy qismidir. Ta'lim, shakllantirish, bolaning shaxsi xususida fikr yuritilganda, texnologiya haqida gapirish o'rinlimi, ya'ni insonning o'ziga xosligi va uning hayot sharoitlariga qarab turlicha kechadigan jarayon haqida fikr bildirish o'rinlimi? Biroq, A.S.Makarenko o'zining pedagogik faoliyatida uning uchun shunday "kichik narsalar" hal qiluvchi bo'lib qolganligini aytdi: qanday turish, qanday o'tirish, stuldan, stoldan qanday turish, ovozni qanday ko'tarish, tabassum qilish, qanday qilib qarash". "Hammani tarbiyalash - deb yozgan edi u, - odamlar, narsalar, hodisalar, lekin birinchi navbatda va eng uzoq vaqt – odamlar". Ulardan ota-onalar va o'qituvchilar birinchi o'rinda turadi. O'qituvchining o'z xatti-harakatlarini tashkil etish va o'quvchilarga ta'sir qilish usullarini egallash qobiliyatini ifodalash uchun A.S.Makarenko "pedagogik texnika" tushunchasini kiritdi. Bu o'qituvchiga, o'z niyatlarining namoyon bo'lish shakli, ma'naviy salohiyati haqida qayg'urish zarurligini eslatadi.

Pedagogik mahoratni bevosita pedagogik texnologiyani ham rivojlantirishga bir qator pedagog olimlar Yu.P.Azarov, V.A.Kan-Kalik, A.V.Mudrik, L.I.Ruvinskiy, M.M.Yakovlev va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

Pedagogik texnika – bu o‘qituvchiga o‘z o‘quvchilarini ko‘rish, eshitish va his qilish imkonini beradigan ko‘nikmalar majmuasidir. Yu.P.Azarov ta’kidlaganidek, birinchidan, ishlab chiqilgan pedagogik texnika o‘qituvchiga pedagogik faoliyatda o‘zini chuqurroq va yorqinroq ifodalashga, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarda ochib berishga yordam beradi hamda eng yaxshi jihati uning shaxsida kasbiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mukammal pedagogik texnika o‘qituvchining ijodiy ish uchun vaqtini va kuchini bo‘shatadi. Pedagogik ta’sir jarayonida bolalar bilan to‘g‘ri so‘zni izlash yoki muvaffaqiyatsiz intonatsiyani tushuntirish uchun muloqot qilishdan chalg‘itmaslikka imkon beradi. Pedagogik texnikani o‘zlashtirish, kasbiy faoliyati bilan bog‘liq to‘g‘ri so‘zni, intonatsiyani, ko‘rinishni, imo-ishorani tez va aniq topishga imkon beradi, shuningdek, xotirjamlikni saqlash va aniq fikrlash, eng keskin va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda tahlil qilish, o‘qituvchi shaxsida qoniqishini oshirishga olib keladi.

Shu bilan birga, pedagogik texnika shaxs sifatlariga rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik texnikaning muhim xususiyati shundaki, ularning barchasi aniq individual, shaxsiy xususiyatga ega, ya’ni, o‘qituvchining individual psixofiziologik xususiyatlari asosida shakllanadi. Shaxsiy pedagogik texnika, sezilarli darajada o‘qituvchining yoshi, jinsi, temperamenti, xarakteri, sog‘lig‘i, anatomik va fiziologik xususiyatlariga bog‘liq. Demak, ifodalilik, soflik, savodxonlik ustida ishlash tafakkurni tarbiyalaydi. Aqliy faoliyatda o‘zini-o‘zi boshqarish usullarini o‘zlashtirish xarakter xususiyati sifatida hissiy muvozanatning rivojlanishiga olib keladi va hokazo. Bundan tashqari, haqiqiy pedagogik ta’sirda o‘qituvchining pedagogik texnologiya sohasidagi barcha qobiliyatlari bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi va o‘zini-o‘zi kuzatish ekspressiv vositalarni tanlashni muvaffaqiyatli tuzatishga imkon beradi.

Yana pedagogik texnikani o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchining umumiy va kasbiy madaniyat darajasini, uning shaxsining imkoniyatlarini aks ettiruvchi axloqiy va estetik pozitsiyalari eng to‘liq ochib beriladi.

Yuqoridagilarning barchasi pedagogik texnika o‘qituvchining eng muhim quroli ekanligini ta’kidlaydi.

Pedagogik texnikani shakllantirish usullariga quyidagilar kiradi:

- muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv mashqlari tizimi (psixofiziologik trening);

kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun muayyan qoidalar va talablar tizimi;

- pedagogik rol o'ynash mashg'ulotlari (kasbiy faoliyatni taqlid qiluvchi vaziyatlarga kiritish) va pedagogik texnologiya darajasini oshirishni ta'minlaydigan kasbiy sifatlar va xususiyatlarni takomillash-tirish.

Amaliyot ko'rsatadiki, kasbiy faoliyat jarayonida yosh o'qituv-chilar ham, tajribalilar ham pedagogik texnikada bir qator xatolarga yo'l qo'yadilar, bu esa pirovardida ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Ular uchun eng tipik bo'lganlari:

- ❖ o'quvchi, uning ota-onasi bilan gaplasha olmaslik;
- ❖ o'zini tuta olmaslik yoki aksincha, jahlni ko'rsata olmaslik;
- ❖ noaniqlikni bartaraf eta olmaslik;
- ❖ to'g'ri turish, kerakli imo-ishorani tanlay olmaslik;
- ❖ nutqning kamchiliklari: monotonlik, emotsional quruqlik, ifodasizlik, yomon diksiya va boshqalar.

Misol uchun, darsning boshlanishini olaylik: bir o'qituvchi sinfga bostirib kiradi va o'quvchilarni sezmaydi, boshqasi hayajonini tiya olmaydi va darsni boshlaydi va hokazo. Demak, o'qituvchi o'zini takomillashtirish uchun o'z arsenalida pedagogik tajribadan kelib chiqqan, sinovdan o'tgan pedagogik texnologiyaning standart vositalari, ish shakllari va usullariga ega bo'lishi kerak.

Bu esa o'qituvchining o'zini yanada teranroq, yorqinroq, iqtidorliroq namoyon etishiga va ta'limda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beradi. Shu bilan birga, "qattiq" sxemalar, modellarning mavjudligi hech qanday tarzda o'ylash zaruratini bartaraf etmaydi. Ammo, ilmiy bilim va tajribaga asoslangan fikrlash pedagogik nochorlik, ko'pincha, savodsizlik natijasi bo'lgan cheksiz bilimsizlik, tortinishdan sezilarli darajada farq qiladi.

2. Pedagogik texnika xususiyatlari

Pedagogik texnikaning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

Mimika – bu yuz mushaklari harakati bilan o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, kayfiyatini, ta'rifini ifodalash san'ati. Ko'pincha, yuz ifodalari va qarashlar o'quvchilarga, so'zlarga qaraganda kuchliroq ta'sir qiladi. Imo-ishoralar va yuz ifodalari ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini oshirib, uning yaxshiroq o'zlashtirilishiga yordam beradi. Tinglovchilar o'qituvchining yuzini “o'qiydilar”, uning munosabatini, kayfiyatini taxmin qilishadi, shuning uchun, u nafaqat his-tuyg'ularini ifoda etishi, balki yashirishi kerak. Insonning yuzidagi eng ifodali ko'zlar - ruhning ko'zgusi. O'qituvchi o'z yuzining imkoniyatlarini, ifodali ko'rinishdan foydalanish qobiliyatini diqqat bilan o'rganishi kerak. O'qituvchining nigohini bolalarga qaratib, ko'z bilan aloqa qilish kerak.

Pantomima – bu tananing, qo'llarning, oyoqlarning harakati. Bu asosiy narsani ta'kidlashga yordam beradi, tasvir o'ziga tortadi.

O'qituvchi sinfda o'quvchilar oldida to'g'ri turish uslubini ishlab chiqishi kerak. Barcha harakatlar va pozitsiyalar o'zining nafisligi va soddaligi bilan tinglovchilarni jalb qilishi kerak. Tananing estetikasi yomon odatlarga toqat qilmaydi: oyoqdan oyoqqa o'tish, stulning orqa tomoniga suyanish, qo'llardagi begona narsalarni aylantirish, boshni chizish va hokazo. O'qituvchining imo-ishorasi keskin keng zarbalar va ochiq burchaklarsiz organik va cheklangan bo'lishi kerak. Muloqot faol bo'lishi uchun siz ochiq pozitsiyaga ega bo'lishingiz kerak, qo'llaringizni kesib o'tmang, tomoshabinlar bilan yuzma-yuz buriling, masofani qisqartiring, bu esa ishonch effektini yaratadi. Sinf bo'ylab yon tomonlarga emas, balki, oldinga va orqaga harakat qilish tavsiya etiladi. Oldinga qadam tashlash xabarning ma'nosini kuchaytiradi, tinglovchilar e'tiborini qaratishga yordam beradi. Orqaga qadam tashlab, ma'ruzachi go'yo tinglovchilarga dam beradi.

Emotsional ta'rifni boshqarish o'zini-o'zi boshqarish usullarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi, ular yaxshi niyat va optimizmni tarbiyalashni o'z ichiga qamraydi; o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish

(mushaklarning kuchlanishini, harakatlar tempini, nutqni, nafas olishni boshqarish); o‘zini-o‘zi gipnoz qilish va boshqalar.

Pedagogik texnika o‘qituvchiga o‘z o‘quvchilarini ko‘rish, eshitish va his qilish imkonini beradigan ko‘nikmalar majmuyi sifatida qaraladi. Pedagogik texnika pedagogik muammolarni hal qilish jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Kasbiy bilim pedagogik texnikaning asosidir. O‘qituvchining malaka va bilimlarining uyg‘unligi, ularning o‘zaro munosabati, o‘qituvchi faoliyatining ichki mazmuni va uning tashqi ifodasining uyg‘un birligiga yordam beradi. O‘qituvchining mahorati ma’naviy madaniyat va pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashqi ekspressivlikni sintez qilishda namoyon bo‘ladi. Kasbiy bilimlarning mazmuni – bu fan, uning metodologiyasi, shuningdek, pedagogika va psixologiya haqidagi bilimlardir. Kasbiy pedagogik bilimlarning muhim xususiyati uning murakkabligi va integratsiyasidir. Bu, birinchi navbatda, o‘qituvchining o‘rganilayotgan fanlarni sintez qilish qobiliyatidir. Sintezning o‘zagini pedagogik muammolarni hal etish, hodisalarning psixologik mohiyatini tushunishni taqozo etuvchi pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, shaxsni shakllantirish qonuniyatlariga asoslangan usullarni tanlash tashkil etadi. Har bir pedagogik vazifani hal qilish o‘qituvchining butun pedagogik bilim tizimini dolzarblashtiradi, bu o‘zini bir butun sifatida namoyon qiladi. Murakkablik, umumlashtirish bilan bir qatorda, o‘qituvchining kasbiy bilimi ham individual ish uslubi kabi muhim xususiyat bilan tavsiflanadi. Kasbiy bilimlar asosida pedagogik ong, o‘qituvchining xatti-harakatlari va xulq-atvorini belgilaydigan tamoyillar va qoidalar shakllanadi.

Quyidagi kasbiy bilimlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- o‘zining fanini bilish;
- psixologik-pedagogik fanlarni bilish;
- o‘qitish va tarbiyalash usullarini bilish;
- o‘z shaxsi va faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlarini bilish.

O‘qituvchi imiji elementlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan va tuzilmani birlashtiradigan, mustahkamlaydigan barqaror aloqalar bilan tavsiflanadi. O‘qituvchi imijining shakllanishi alohida komponent bilan emas, balki ularning tizimi, turli elementlarning o‘zaro munosabati va o‘zaro bog‘liqligi bilan ta’minlanadi.

O'qituvchining imiji ham, uning ichki ta'rifi ham muhimdir. O'qituvchi imiji o'quvchilar, hamkasblar, ijtimoiy muhit va ommaviy ongda o'qituvchi imijini idrok etishning hissiy jihatdan rangli stereotipidir. O'qituvchining qiyofasini shakllantirishda haqiqiy fazilatlar unga boshqalar tomonidan berilgan sifatlar bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi imiji tushunchasi avtoritet kabi tushuncha bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchining avtoriteti, eng avvalo, o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositasidir. Avtoritet inson, go'yo muvaffaqiyatga erishadi. Avtoritet deb tan olingan shaxs boshqa sohalarda ham kompetentlikka ega. Avtoritetning o'ziga xos irradiatsiyasi mavjud. O'qituvchining avtoriteti – bu o'qituvchi bilan munosabatlar tizimini sifat jihatidan tavsiflovchi murakkab hodisa va bu avtoritet qanchalik baland bo'lsa, asoslarini ustoz o'rgatadigan fan o'quvchilari uchun qanchalik muhim bo'lsa, uning talablari, mulohazalari qanchalik adolatli, har bir so'zi shunchalik salmoqli ko'rinadi.

3. Sharq mutafakkirlari notiqlik san'ati haqida

Musulmon Sharqda nutq – va'z, notiq - voiz deb yuritilgan. IX-XII asrlarda yashagan Xorazmiy, Farog'iy, Farobiy, ibn Sino, Beruniy, Qoshg'ariy, Navoiy kabi ulug' siymolar O'rta Osiyo xalqlarining dunyo madaniyati taraqqiyotida oldingi saflarda bo'lishi uchun xizmat qilganlar. Sharq tarixida Uyg'onish davri hisoblangan bu davrda notiqlik san'ati ham rivojlangan. Abu Nasr Farobiy (837-950), ibn Sino (980-1037) kabi olimlar mashhur notiq ham bo'lganlar.

XII asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan "Qobusnoma"da ham (1082-1083) notiqlik ulug'langan. 44 bobdan iborat bu asarning 6,7-boblari so'z odobi haqidadir, deb nomlangan.

Abu Nasr Farobiy to'g'ri so'zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika, mantiqning ahamiyati katta ekanligini ta'kidlaydi. Olim bilimlarning birinchisi - jismlar va hodisalarga ism berish, ikkinchisi - grammatika (jismlarga berilgan ismlarni tartibga solishni), uchinchisi - mantiq (xulosa chiqarish uchun darak gaplarni joylashtirish)dir deb fikr yuritadi. Birinchisi - ism beruvchi til haqida ilmlar, ikkinchisi - natijalarni ifodalovchi hikmatli

soʻzlar va nutq qanday tuzishni oʻrgatadi, uchinchi esa, xulosalar yordamida yangi narsalarni bilib olishni oʻrgatadi.

Husayn Voiz Koshifiy Eronning shimoliy-sharqidagi Sabzavor shahrida tugʻilgan. Voiz Koshifiy koʻp fanlarni egallagan, mashhur olim boʻlgan. "Javohirut tafsir" yoki "Tavsiri Husayniy", "Mavohibud dunyo", "Lubbi lubob", "Anvari Suxayliy", "Ravzatush shuhado", "Dah majlis", "Ahloqi Muhsiniy", "Mahzanul insho" "Koshifiya", "Asrori Qosimiy", "Hotamnoma", "Ixtiyoriyot", "Matlaʼul-anvor" kabi asarlar muallifi.

Shu qadar mashhur voiz boʻlganki, uning nutqini tinglash uchun turli tomonlardan odamlar kelgan, notiqning ovozi yetib borolmagan oʻrinlarda uning ichki ruhiy taʼrifini turli taʼriflar orqali ifodalanishini kuzatganlar. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro bu voizning mahoratiga qoyil qolganliklari uchun hatto oʻz asarlarini rasmiy ijro etish uchun bu ishga Husayn Voiz Koshifiyni munosib koʻrganlar.

Oʻzbek harbiy notiqlarining eng zabardasti Boburdir. Muhammad Solih u haqida "Mavlono Bobur Mirzo nutq soʻzlaganda soʻz bilan togʻni narm aylardi", deb aytgan.

Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta oʻrganish, uning lugʻaviy maʼnosi, grammatikasini chuqur egallash, mantiqli soʻzlashni oʻrganish, nutqning ichki (mazmun) va tashqi (shakl) koʻrinishiga birday eʼtibor berish, goʻzal va taʼsirchan nutq tuza bilish, nutq boyliklarini maqsadga muvofiq hamda oʻrinli ishlatish vazifalarini qoʻyadilar va ularning ijrosini chuqur tahlil etadilar.

Bugungi kun jurnalisti notqlik sanʼati, nutq madaniyati tarixini chuqur oʻrganmogʻi, oʻz amaliy faoliyatida foydalanmogʻi maqsadga muvofiqdir. Sharq qadimdan oʻz mutafakkir olimlari bilan ulugʻlanib kelingan, chunki, bu donishmandlarning ilm-fan sohasiga qoʻshgan ulkan merosi umumjahon madaniyati xazinasiga qoʻshilgan ulkan boylikdir. Bu meros bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.

Sharqda vaʼzxonlik balogʻa, balogʻat (chechanlik, notqlik), deb yuritilgan va notqlik sanʼati rivojlanishi bilan nutq oldiga qoʻyilgan talablar ham murakkablashib bordi. Buyuk allomalardan Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshgʻariy, Zamaxshariy, Abu Yaqub Sakkokiylar ham tilga, lugʻatga soʻz odobi, grammatika va mantiqshunoslik ilmiga doir asarlar

yozganlar, boshqa sohalarga doir yozgan asarlarida ham nutq madaniyati masalalariga katta e'tibor berganlar.

Mana shunday, Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniy. Butun umrini ilmga baxshida etgan olim Xorazmdagi notinchliklar tufayli bir muddat Jurjonda shoh Qobus huzurida istiqomat qiladi, ilmiy asarlar yaratadi. Qobusga bag'ishlab, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarlarini yozdi.

Beruniy "Geodeziya" asarining kirish qismida fanlarning paydo bo'lishi, tarmoqlanib ko'payishi haqida so'z yuritib, har bir fan inson hayotidagi zaruriy ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi, deb fikr bildiradi. Olimning fikricha, grammatika, aruz va mantiq shu zaruriy ehtiyoj hosilasi, mevasi. Inson nutqi o'z tuzilishiga ko'ra rost va yolg'onni ifodalashi mumkin. Bu munozaraga sabab bo'ladi. Bu munozaralar jarayonida inson rostni yolg'ondan ajratib otadi, rostni yolg'ondan ajratadigan mezon yaratadi.

Abu Rayhon Beruniy mantiq ilmini o'rganmasdan uni malomat qiladiganlarga achinib shunday yozadi: "Agar u dangasalikni tashlab oromga berilmasdan gap bilan bog'lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she'r o'lchovi) va mantiq (logika) ni mutolaa qilganda edi, so'z (nutq) zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan bo'lardi". Beruniy nutqning nazm va nasr ko'rinishlari borligini ko'rsatadi.

Nutqning bu turlari ma'lum qoidalar asosida shakllanadi. Nasr nahv (grammatika) qonun-qoidalari asosida, nazm aruz talabiga binoan tuziladi.

Aytilgan so'zning me'yorini o'lchovi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon - nahv nasrda va aruz nazmda bo'lib qoldi, grammatika umumiyroq bo'lib, u nazmni ham, nasrni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Sharqda, ayniqsa, Movarounnahrda va'zxonlik "Qur'on"ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda olib borilgani barchaga ma'lum. Shuning uchun ham, so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko'p yaxshi fikrlar bayon etilgan.

Abu Rayhon Beruniy ham bu sohada samarali ijod etgan. "Geodeziya" asarida olim shakl va mazmun birligiga ham katta ahamiyat beradi. Shakl-mazmunga xizmat qilishi kerak, deb hisoblaydi mutafakkir. Mazmunsiz har qanday shakl ham el orasida e'tibor qozonmaydi. Shuning uchun, nutqning ikkala shaklida - ham nasriy,

ham nazmiy shaklida mazmun bosh mezon hisoblanadi. Nutq o‘zining har ikki shaklida ham so‘zlovchi o‘z oldiga qo‘ygan ma‘noni (fikrni) ifodalashi shart. Olim yozadi: “So‘ngra so‘z mana shu ikki qismda (nasr va nazmda) ham so‘zlovchi maqsad qilgan ma‘nodan iborat bo‘lib qoladi”. Nasriy yoki nazmiy nutqda mazmun bor yoki yo‘qligini bilish tuzilgan gaplarni bir-biri bilan qiyoslash orqali aniqlanadi,

Olim o‘z fikrlarini davom ettirib, har qanday tilning o‘z grammatik qurilishi, o‘z tartib-qoidalari bo‘lishi, bu qoidalarning shu tilda tuzilgan nutq uchun ahamiyati beqiyosligi aytib, bu qoidalar boshqa tillar uchun nozarur bo‘lishi mumkin, deydi. Ammo, olim har bir tilning afzalligi o‘sha tilda so‘zlovchilar uchun zarurdir, deb hisoblaydi.

Beruniy san‘atini arab tiliga xosligi haqida gapirib, bunday nutq texnikasi arablar uchun fazilat ekanligini bayon etadi. Chunki, arab tilida balog‘a (notiqlik)ning mavjudligi Qur‘on targ‘ibotida arab nutqining ziynati sanaladi. Notiqlik san‘atidan foydalangan kishining yuqori mansabga erishuvi va boshqa bir kishining kambag‘alikda yashashiga balog‘a aybdor emas, deb aytadi. Boshqa tillarda balog‘ani egallaganlarning obro‘ topmasliklariga sabab, balki balog‘aning arablar tilidan boshqa tillarga ko‘chirishda bozor yurishmaganidir, ya‘ni notiqlik ilmini har tomonlama chuqur o‘rganmaganligidir, deydi. Shuningdek, Beruniy “Hindiston” asarida hindlarda Voyakarona deb ataladigan til ilmi borligini, bu ilm ular so‘zlarini tuzatadigan nahv, xat yozishda balog‘atli, nutq so‘zlashda fasohatli, yetuk va usta qiladigan ishtiyoq ilmidan iboratdir, deb ma‘lumot beradi.

Abu Nasr Farobiy to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo‘rligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta‘lim berish va ta‘lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish” qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda bu haqidagi bilimlarning eng birinchisi - jismlarga (substansiya - narsalar) va aksidensiya (hodisalar)ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar, deb tasdiqlayman.

Yuqorida ko‘rsatilganlardan ko‘rinadiki, grammatika va mantiq fanlarining nutq tuzishdagi ahamiyatini ikki buyuk olim ham yuksak darajada anglaganlar va ularga katta ahamiyat berganlar.

Abu Nasr Farobiyning asl ismi Abu Nasr Muhammad ibn . Muhammad ibn Ulug‘ Tarxon bo‘lib, u “Sharq Arastusi”, “Muallimi soniy” hisoblangan. Olim butun urnri mobaynida 160 dan ortiq asar yaratgan. Farobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga tarjima qilingan Toshkentdagi Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflarining asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Farobiyning 16 risolasini o‘z ichiga olgan “Hakimlar risolalari” to‘plami mavjud. Olim grammatika, mantiq, she‘riyat ilmlar fānlardan to‘g‘ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga so‘z vositasida to‘g‘ri tushuntirish, aqliy tarbiya berish uchun xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Nutq madaniyati masalalari Beruniy zamondoshi bo‘lgan Abu Abdulloh al Xorazmiy asarlarida ham o‘z aksini topgan. Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan yagona ma’lum asari - “Malbtih ul-ulum” (“Ilmlar kalitlari”) dir. Bu asarning uch nusxasi Buyuk Britaniya muzeyida, bir nusxasi Berlin kutubxonasida saqlanadi. Asarda, nutq madaniyatining ba’zi bir masalalari - devonxona ish qog‘ozlari, ularning shakllari, ishlatiladigan islohotlar; shuningdek, adabiyotshunoslik fani islohotlari, ularning ta’rifi haqida ma’lumot beradi. Asarning beshinchi bobida - aruz va qofiya ilmi hamda she‘riyatda ishlatiladigan badiiy tasvir vositalari, ularning fazilatlar va nuqsonlari haqida so‘zlaydi. Asarning beshinchi bobi besh bo‘limdan tashkil topgan. Beshinchi bo‘lim X asr O‘rta Osiyo she‘riyatiga bag‘ishlanadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, X asrdayoq o‘lkamizda badiiy nutq yuksak darajada rivojlangan, uning nazariyasi mukammal ishlangan. “Mafotih ul-ulum” asarining arab ilmlari qismidagi yetti kałom, o‘n ikki bob grammatika (sarf va nahv), sakkiz bob ish yurgizish, besh bob she‘r va aruz ilmlariga bag‘ishlangan. Kitob arab tilida yozilganligi sababli ham arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalari bayon etiladi. Shu o‘rinda, olim arab she‘riyati va uning tarkibiy qismlaridan bo‘lgan aruz haqida ham mufassal ma’lumotlar berishga harakat qiladi.

Alisher Navoiy, Sa’diy Sheroziy, Husayn Voiz Koshifiy kabi . Sharq allomalari ijodida ham nutq odobi qoidalari mufassal bayon etilgan.

Husayn Voiz Koshifiy Navoiyning zamondoshi bo‘lib, nutq odobiga doir- “Futuvvatnomayi sultoniy” asarini yozadi. Bu asarda,

nutq madaniyatiga oid fikrlar bildiriladi, soʻz qudrati batafsil ochib beradi. “Agar soʻz senikimi yoki sen soʻz nikimi, deb soʻz rasalar, aytgil: men soʻz niki va soʻz menikidir, chunki, soʻz insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevanadan va mevani daraxtdan ajratib boʻlmaydi”, deb yozadi olim. Aytilgan soʻz odam uchun farzandi jigarbandiday, ota-onadan farzandidan topolmagani singari, inson ham oʻz soʻzidan tonolmaydi. Farzand ham ota-onadan topolmagani singari, soʻz ham notiqniki hisoblanadi. Shuning uchun ham deydi olim, aytiladigan soʻzga masʼullik ota-onaning farzandga va farzandning ota-onaga masʼulligi darajasida boʻlmogʻi lozim. Xalqqa nafi tegadigan farzand qobil, zarari tegadigan noqobil sanalsa, soʻz ham shunga oʻxshash boʻladi. Yaxshi soʻz egasiga sharaf keltirib, yomon soʻz oʻz egasini badnom etadi.

Shuningdek, olim suhbat odobi qoidalari haqida maʼlumot beradi. Soʻzlash ham, tinglash ham katta masʼuliyat va madaniyatni talab etadi. Agar inson yaxshi soʻzlasa-yu, tinglashni bilmasa, yoki tinglasa-yu, soʻzlashni bilmasa, bu maʼnaviy nokaslik alomatidir. Madaniyatli va maʼrifatli inson soʻzni sidq-u sadoqat, samimiyat bilan soʻzlamogʻi, suhbatdosh soʻzini jon qulogʻi bilan, diqqat-eʼtibor, xayrixohlik va hamdardlik bilan tinglamogʻi maqsadga muvofiqdir. Suhbat va nutq odobida madaniyat va fahm-farosat bilan savol-javob qilish, soʻzlash ham muhim oʻrinda turadi. Mashhur notiq Koshifiy oʻz suxandonligi davrida bu qoidalarga toʻla rioya etishga harakat qilgan va boʻlajak notiqnlarni ham bu qoidalar asosida ish yuritishga undagan.

Oʻzbek adabiyoti tarixida Bobur lirikasi, “Boburnoma” asari notiqning goʻzal namunalaridir. “Boburnoma” nihoyatda ravon va goʻzal tilda yaratilgan. Shoir ham ommabop yozishni maʼqul koʻrgan va oʻgʻli Xumoyunga yozgan xatida birovga yozgan maktubni bir necha bor oʻqish, uning ravonligiga, soʻzlarning koʻzda tutilgan maʼnosi toʻgʻri aks ettirayotganligiga ishonch hosil qilgandan soʻng, joʻnatishga chaqirdi. Chunki, soʻzlarning xato yozilishi aytilmoqchi boʻlgan fikrni xiralashtiradi, oʻquvchini qiynaydi.

Sharqning yetuk mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sino (980-1037) notiqning bilimdon boʻlishi, gap ketayotgan mavzuni yaxshi oʻrganishi, eng mayda kamchiliklarga ham eʼtibor berish zarurligini taʼkidlaydi. U notiqlikda demokratiyaning oʻrnini yuqori baholaydi.

Alisher Navoiyning notiqlik san'ati xususidagi fikrlari biz uchun qimmatli va boy merosdir. U "Mahbub ul-qulub" asarining "Nasihat ahli va voizlar zikrida" (24-fasl) deb nomlangan qismida voizlik san'ati haqidagi fikrlarini bayon etgan. Alisher Navoiyning uqtirishicha, voiz quyidagi xislatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Voiz kerakki, "kolalloh» so'z aytsa. Ya'ni so'zlari ifodali va ta'sirli bo'lsa va'z bu murshid va ogoh ishidir va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidir. Va'z yangiliklar va o'zgarishlar ogohchisi bo'lishi kerak.

Voizning o'zi biror kasbni egallagan bo'lishi kerak va shundan keyingina u kishilarga ta'sir eta oladi.

Voizkim, bo'lg'ay olim va mutaqqiyaning nasihatidin chiqqay shaqiy".

Ulkim o'zi buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga to'yda va asar aning so'zi qilmag'ay. Demak, so'zi bilan ishi bir bo'lsin.

Xullas, ko'hna Sharqning mohir va mashhur notiqclarining sir-u sanoatlarini o'rganish muhim ahamiyatga molik ish. Notiqlik san'ati nazariyasi va amaliyotiga doir boy merosimiz bor.

5. O'qituvchining nutq madaniyati va notiqlik san'ati

Psixologik lug'atlarda muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi:

1) muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni;

2) muloqot – belgilar tizimi orqali subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi.

Muloqot –ta'lim oluvchi psixologik va ijtimoiy rivojining muhim omillaridan biri bo'lib, birgalikdagi faoliyatda umumiy natijalarga erishish, shaxslararo munosabatlarni yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlash maqsadida ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro harakati. Muloqot motivlari ta'lim oluvchining asosiy ehtiyojlari bilan tig'iz bog'langan bo'lib, ana shu asosdan kelib chiqib, ularni uch muhim kategoriyasini ajratib ko'rsatish mumkin: bilish, ishbilarmonlik, shaxsiy.

Psixologiyada muloqotni tahlil qilishda uning turli jihatlariga e'tibor qaratiladi: "kommunikatsiya" (axborot almashuv), "ijtimoiy pertsepsiya" (insonni insonni idrok etishi va tushunishi), "interaksiya" (birgalikdagi harakat). Amaliy muloqot mazkur tarkibiy qismlarning yig'indisi sifatida yuzaga chiqadi. Pedagogik jarayonda muloqot faqat bir funksiya – axborot berish bilan chegaralanadi. Biroq, muloqotning barcha tarkibiy qismlari – axborot almashuv va vazifalarni amalga oshirish, o'zaro munosabatlarni tashkil etish, bola shaxsini bilish va unga ta'sir ko'rsatishdan foydalanish zarur.

Pedagogik muloqot deganda, pedagog va o'quvchilar jamoasi o'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o'quv-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog, ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi hamda unga boshchilik qiladi.

A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqot – o'qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni bilish va o'rganish kaliti va o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o'quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta'lim-tarbiyada maqbul bo'lgan emotsional muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlarning paydo bo'lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib, boshqarishni ta'minlaydigan va o'quv tarbiyaviy jarayonda o'qituvchining o'z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot "kredit soati" tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 – 1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi.

Bolonya deklaratsiyasida ko'zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta'limga urg'u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

birinchisi, talabalar va o‘qituvchilarning mobilligini, ya’ni bir oliy ta’lim muassasasidan boshqa OTMga to‘siqlarsiz, erkin ravishda o‘tishini (o‘qishni yoki ishni ko‘chirish)ni ta’minlaydi;

ikkinchisi, talabaning tanlagan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha barcha o‘quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama – kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig‘indisi talabaning tanlagan dasturi bo‘yicha nimani qancha o‘zlashtirganligini namoyon etadi.

Kredit-modul tizimi, bu — ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

- o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish;
- ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg‘ulotlarini nafaqat o‘qitishni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o‘qib-o‘rganish, ta’limga yangicha munosabatda bo‘lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo‘naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta’minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Keling, shu o‘rinda modul va kredit tushunchalari mohiyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Modul – bu, bir nechta fan hamda kurslar o‘rganiladigan o‘quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma’lum bir bilim va ko‘nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma’ruzalar o‘qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o‘rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Xorijiy tajribaga ko‘ra, kredit-modul tizimida o‘quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo‘ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o‘zaro uzviy to‘ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo‘lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o‘quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

- o‘quv maqsadi hamda vazifalarning to‘liq ochib berilishi;
- talabaning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo‘ladigan malakasiga qo‘yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya’ni ma’ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg‘ulotlarning rejasini, mustaqil ta’limni baholash uchun mo‘ljallangan topshiriqlar;

- o‘qitishning qisqacha bayoni: ta’lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

Modul asosida o‘qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko‘nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o‘quv faoliyati, ya’ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o‘zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Kredit (credit) – talabaning alohida ta’lim yo‘nalishi yoki dasturi (kurs) bo‘yicha fanlarni o‘qib o‘rganishi va o‘zlashtirishi uchun sarflangan o‘quv yuklamasining (vaqtning) o‘lchov birligidir. Kredit - talabaning me’yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta’lim olishi uchun ajratilgan

minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik "aktivi"ga aylanib boradi.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning barcha OTMda ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar to'g'risidagi hamma ma'lumotlar, xususan, o'quv rejasida aks etgan fanlarning qisqacha sillabusi (fanning identifikatsiyasi, professor-o'qituvchi haqida ma'lumot, dars tavsifi, fanning maqsadi, o'rganish natijalari, o'qitish metodikasi, fanning rejalari, adabiyotlar, baholash metodikasi), fanlar kesimida dars mashg'ulotlarini olib boradigan professor-o'qituvchilar hamda ularning erishgan yutuqlari, mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan qisqacha talablar, ya'ni qanday nazariy, amaliy bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlar universitetlarning rasmiy veb-saytida ochiq-oydin e'lon qilingan bo'ladi. Ayni paytda, ming afsuski, abituriyentlar universitetlarimiz saytlarida ushbu ma'lumotlarni topishga qiynalishadi. Bu bo'yicha ham madaniyatni shakllantirish vaqti esa allaqachon kelgan.

"El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan muntazam ravishda xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishi va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan, aynan kredit-modul tizimini yaqindan biladigan vatandoshlar tomonidan seminarlar tashkil etilib kelinayotgani bunga bir misoldir. qolaversa, o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tgan 10 ta oliy ta'lim dargohiga "El-yurt umidi"

jamg'armasi huzuridagi Xalqaro ekspertlar kengashi a'zolaridan bir nafardan ekspert maslahatchi sifatida biriktirib qo'yilgan. Mazkur jarayonlarni to'laqonli amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasasida tegishli bo'linmalar ham tashkil etilyapti.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida universitet talabalari har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda - maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilariga bo'lgan majburiyat hamda talabni ham oshiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, modulli o'qitish tizimi bilan o'qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarini, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchilik vazifalarini ham bajaradi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining yetakchilik roli saqlab qolinadi.

Ta'limning kredit tizimi talabalar almashinuvini oshiradi. Chunki bitta universitetda olingan kreditlar ikkinchisida hisobga olinadi va talabalar kredit yo'qotmasdan bir universitetdan boshqasiga o'tishi mumkin. Aynan ushbu tizim o'zbekistonlik talabalarning ilg'or xorijiy universitetlarda o'qishini davom ettirishiga hamda murakkab byurokratik to'siqlarni olib tashlashga imkoniyat yaratadi. Ammo shuni ham qayd etish lozimki, har qanday xalqaro tajribani ko'r-ko'rona, o'z qadriyatlarimizni hisobga olmasdan turib, to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish, uning har bir elementini chuqur tahlil qilmasdan, ilmiy asoslarga tayangan holda amalga oshirilmas ekan, kelajakda ma'lum bir salbiy ta'riflarning yuzaga kelishini ham unutmash kerak.

Ya'ni ushbu tizim bizning dunyoqarashimiz, shart-sharoit, barkamol insonni voyaga yetkazishga qaratilgan qadriyatlarimizga

to‘la-to‘kis mos keladi, degani ham emas. Shu sababli, o‘quv jarayoni-ning faol elementlari hisoblanmish professor-o‘qituvchi va talabaning ham bu boradagi qarashlarini o‘zgartirishimiz, mazkur tizim talablarini ularga singdirishimiz, o‘ziga xos madaniyatni shakllantirishimiz darkor. Zero, mehnat bozori talabiga mos kadrlarni tayyorlamas ekanmiz, raqobatda o‘z o‘rnimizni, mavqeimizni yo‘qotishimiz muqarrar ekanligini his qilishimiz lozim.

Nazorat uchun savollar

1. Qadimgi Rim faylasuflarining refleksiya to‘g‘risidagi qarashlarini ta’riflang.
2. Refleksiyaga hozirgi zamon fanlari nuqtai nazaridan berilgan ta’rif.
3. Pedagogika va psixologiya fanlarining refleksiyaga nisbatan mulohazalari ayting.
4. Refleksiyaga taniqli olimlar qanday ta’rif berishgan?
5. Pedagogik refleksiyaga ta’rif bering.
6. Pedagogik diagnostikaning mazmun-mohiyatiga va funksiyasiga ta’rif bering.
7. O‘qituvchining kasbiy professiogrammasi asosida, uning mahoratini aniqlang.
8. Yosh o‘qituvchilar duch keladigan didaktik qiyinchiliklarni bartaraf etish muammolarini bilasizmi?

10-mavzu. INTERFAOL METODLAR ASOSIDA IJODKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Mavzu rejasi:

1. Interfaol metodlar haqida tushuncha.
2. Ta'limda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari.
3. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: interfaol metod, ijodkorlik, qobiliyat, ta'lim samaradorligi, didaktik imkoniyatlar, bilim, ko'nikma, malaka, tashkil etish tashkil etish.

1. Interfaol metodlar haqida tushuncha

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xush, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qullanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi.

Yuqoridagi savollarga javob topishda eng to'g'ri qadam tayanch tushuncha - “interfaol” atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishishdir.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan “inter” - o'zaro, ikki taraf-lama, “act” - xarakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Mantikiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham

suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:

O‘qituvchi - o‘quvchi + an’anaviy ta’limdagi suhbat ishtirokchilari + o‘qituvchi – o‘quvchilar guruhi (jamoasi).

An’anaviy ta’limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzida o‘quvchi (talaba)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchi (talaba)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bulib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam ta’riflarda ruxsat etilganidagina so‘zlashdan iboratdir. An’anaviy ta’limdagi bir tomonlamalik oliy ta’lim tizimidagi fakat ma’ruza mashgulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko‘ra, “yetkazib beruvchi” rolida endi o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi (talaba) namoyon bo‘ladi. O‘quvchi (talaba), asosan, o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o‘qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o‘rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. O‘quvchi (talaba)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bulib qoladi. Bir qarashda o‘quvchi (talaba) yoki o‘qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg‘otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma’lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o‘rganishlariga ko‘ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya’ni shax manbani o‘zi o‘qiganida 10 %; ma’lumotni eshitganida 20 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rganida 30 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular tugrisidagi ma’lumotlarni eshitganida 50 %; ma’lumot (axborot)larni o‘zi uzatganida (so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o‘zlashtirilgan bilim (ma’lumot, axborot)larni o‘z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega. Shunga ko‘ra

interfaol o‘qitish “ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari - o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini uzlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi - o‘quvchi - o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi”. Zamonaviy ta’lim, shu jumladan, uning tobora ommalashib borayotgan shakli - interfaol o‘qitishda esa shaxslar o‘rtasidagi suhbat (dialog) quyidagi shaxslar o‘rtasida tashkil etiladi.

Interfaol ta’limdagi suhbat ishtirokchilari:

o‘quvchi - o‘quvchi (juftlikda ishlash)

o‘quvchi - o‘quvchilar guruhi (guruh yoki kichik guruhda ishlash)

o‘quvchi - o‘quvchilar jamoasi (sinf, guru jamoasida ishlash)

o‘quvchi - axborot-kommunikatsion texnologiyalar

Interfaol ta’lim mohiyatiga ko‘ra suhbatning “o‘quvchi – axborot kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi o‘quvchi (talaba)lar tomonidan mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini anglatadi. O‘qitishning interfaol ta’limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda; va xatto “bolalar o‘yini” kabi taassurot uygotadi.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida interfaol ta’lim yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z- o‘zini nazorat, o‘z- o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qullash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan

xarakterlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Odatda interfaol metodlarga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: individual, juftlik; guruh; jamoa bilan ishlash.

Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchi (talaba)lar: - guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash, - tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish; - muammoni hal qilishga ijodiy yondashish; - guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish; - o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish; - fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash, - o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash; - o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish; - turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Interfaol ta'lim – ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)lar bilimlarni o'zlashgirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi; - ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi; - xar bir o'quvchi (talaba)ning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; - o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi; - o'quvchi (talaba)larga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi; o'quvchi (talabalarda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi, - o'quvchi (talaba)larda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi; - o'quvchi (talaba)larning xulq-ataorini ijobiy tomonga o'zgartrilishini ta'minladi.

Interfaol ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ❖ Mashg'ulot - ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
- ❖ Guruhning tajribasi o'qituvchi (pedagog)ning tajribasidan ko'p.
- ❖ O'quvchilar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
- ❖ Har bir o'quvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega
- ❖ Mashg'ulotda o'quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi (fikr tanqid qilinishi mumkin)

❖ Bildirilgan goyalar o‘quvchilarning faoliyatini boshqarmavdi, balki fikrlash uchun axborot (ma’lumot) bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror topshirish uchun o‘qituvchi (pedagog)lar bir qator shartlarga rioya eta olishlari zarur. Ular:

Asosiy shartlar:

✓ Ta’lim jarayoniga jamoadagi barcha o‘quvchilarning to‘la qamrab olinishi;

✓ O‘quvchi (talaba)larning mashg‘ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish;

✓ O‘quvchilar sonining ko‘p bo‘lmasligi (25-30 nafar o‘quvchi bilan kichik guruhlarda ishlash samaralidir);

✓ O‘quv xonasining jihozlanishi (stullar doyra, archa, “Jonli liniya” kabi shakllarda joylashtiriladi);

✓ Topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarining ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi;

✓ O‘quvchilarning kichik guruhdarga mohirona biriktirilishi (har bir guruhda faol va nofaol o‘quvchilarning teng miqdorda bo‘lishi).

2. Ta’limda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo‘lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimni yaratish ko‘zda tutildi. Ta’lim muassasasalari pedagog xodimlaridan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab etiladi. Ta’lim jarayonida

insonparvarlik omilini ta'minlaydigan ustozlarning shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik, kreativlik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim-tarbiya oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Zero, shaxsiy sifatlar ta'lim va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim tizimida ta'lim sifati – tarbiyachi va xodimlarning kasbiy rivojlanishi tavsifi bo'lib, zamonaviy bosqichida iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanishi e'tirof etiladi. O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ta'lim jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali ta'rifda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagogning ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoiy bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxslardir. Hozirgi vaqtda ta'lim muassasasi pedagoglarida kreativ (ijodiy) faolligini rivojlantirish ta'lim tizimining dolzarb vazifasidir. Bizning vaqt - o'zgarishlar davri. Endi bizga nostandart qarorlar qabul qila oladigan, ijodiy fikrlay oladigan mutaxassislar zarur. Afsuski, zamonaviy talim hali ham bilimlarni o'zlashtirishga ijodiy bo'lmagan yondashuvni ehtiyoj sezmoqda. Yangi narsalarni o'rganish, inson o'z ongini shakllantiradi va ong tashqi dunyoni maqsadli aks ettirish, harakatlarning dastlabki aqliy qurilishi va ularning natijalarini oldindan ko'rish, shaxs tomonidan uning voqelik bilan munosabatlarini to'g'ri tartibga solish va nazorat qilishdir. So'nggi yillarda pedagogika fani ta'lim maqsadi sifatida shaxsga nisbatan kamida ikkita vazifani qo'ydi: 1) ijodkor shaxsni tarbiyalash; 2) unda o'z hayotining dizaynerini, alohida tarixiy ijod subyektini tarbiyalash. Ta'lim muassasasi pedagoglarining kreativ(ijodiy) faoliyatini tashkil etish

haqida soʻz ketganda, ijodkorlikning oʻzi nima ekanligini aniqlash, soʻng ijodiy faoliyatni tashkillashtirish mezonini tanlash maqsadga muvofiq. “Ijodkorlik tushunchasi koʻpgina fanlarning tahliliy asosi sanaladi. Uning maʼnolarini aniqlashda ushbu qobiliyatning serqirra ekanligi muhim oʻrin tutadi. Tushuncha oʻzida “ijodiy munosabat”, “ijodiy faoliyat”, “ijodiy mehnat”, “ijodkor shaxs”, “ijodiy oʻziga xoslik” kabi maʼnolarni mujassam etadi. XIX asr oxirida koʻpgina faylasuflar tomonidan ijodkorlik tushunchasiga oid qarashlar ilgari surilgan boʻlib, har birida oʻziga xos individuallik va tafakkurning turfaligi sezilib turadi. Binobarin, ijodkorlik “ijtimoiy ahamiyatga ega yangi moddiy va maʼnaviy qadriyatlarni yaratuvchi inson faoliyatidir” “Ijodkorlik – bu qaramaqarshiliklarni bartaraf qilishga yoʻnaltirilgan inson faoliyati koʻrinishlaridan biri boʻlib, uning uchun obyektiv (ijtimoiy, axloqiy) va subyektiv shaxsiy shart-sharoit (bilim, koʻnikma, ijodiy qobiliyat) kabilar zarur, uning natijasi yangilik va taraqqiyparvarlik kasb etadi. Insoniyat ijodiyotning subyeksi sifatida oʻzini anglashi ijodkorlik muammosi va tushunchalarini koʻrib chiqishning yangi yoʻnalishlarini belgiladi. Ijodiy pedagogik faoliyatning keyingi mohiyatli tavsifi uchun “kreativlik” – ijodkorlik tushunchasiga murojaat qilish zarur, bu esa koʻrib chiqilayotgan kategoriyaning markaziy havolasi sanaladi. Kreativlik nazariyasini ishlab chiquvchilardan biri Ye.P.Torrens boʻlib, u kreativlikni muammolarga, bilimning yetishmasligi, ularning hamohang emasligi, nomuvofiqligiga nisbatan taʼsirchanlikning paydo boʻlish jarayoni sifatida belgilaydi; Dj.Gilford oʻzining modeli asosida kreativlikning toʻrt omilini ajratib koʻrsatadi: oʻziga xoslik, semantik moslashuvchanlik, obrazli moslashuvchanlik va semantik oʻz-oʻzidan yuzaga keladigan moslashuvchanlik tarbiyachilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga doir metodik taʼminotning yetarli emasligi; – taʼlim jarayonida mutaxassislarni ijodiy faoliyatga yoʻnaltirish bilan bir qatorda kommunikativ kompetentligini rivojlantirish hamda sohaga oid yangiliklarni oʻzlashtirishga qaratilgan seminar-trening va master klasslarni oʻtkazishga ahamiyat berilmayotganligi; – ijodkorlikka oid topshiriq va mashqlarni bajarishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, elektron taʼlim resurslarini yaratish boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirishga eʼtibor qaratilmayotganligi

va h.k. Pedagoglarning ijodiy faoliyatida yuzaga keluvchi qiyinchilik va muammolarning obyektiv shart-sharoitlariga quyidagilarni kiritish mumkin: a) yetarli metodik ta'minotga ega bo'lmaslik; b) faoliyatini baholashdagi yuzakilik; d) ikkinchi darajali vazifalarga jalb etilishi. Quyidagilar pedagog shaxsining o'ziga xosliklari bilan bog'liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklar qatorini tashkil qiladi: – pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ichki kuch va imkoniyatlarning yetarli emasligi; – faoliyatini sohadagi islohotlarga uzviylik holda o'zgartirishga imkon bermaydigan o'z-o'zini yo'naltirish mexanizmining buzilishi; – salbiy psixologik ta'riflar (ishonchsizlik, asabiylik, qo'rquv, o'z faoliyatidan qoniqmaslik va boshqalar). Ta'lim muassasasi pedagoglarining faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish quyidagi strategiyalarga asoslanishni talab etadi: 1) kasbiy rivojlanish (konstruktiv strategiya); 2) psixologik muhofaza (himoya strategiyasi); 3) kasbiy deformatsiya (destruktiv strategiya). Mahoratli pedagoglar uchun qiyinchiliklar innovatsiya to'siqlarini yengib o'tish bilan chambarchas bog'liq. Pedagogik faoliyatda duch kelinadigan to'siqlar ko'pincha pedagog faoliyatini chegaralab qo'yish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Pedagog shaxsida ijodiy faollik ko'nikmasining orttirilib borilishi ular tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlarida aks etadi. Ijodiy fikrlash ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi bosh mezondir. Talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy komponentlarini tadqiq qilgan G.Ergashevaning qayd etishicha, "jamoadagi ma'naviy psixologik iqlim ijodiy muhit yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi, ijodga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni baratarf etishi lozim. Qulay psixologik muhit quyidagilar bilan tavsiflanadi: barcha talabalarda ijodiy jarayonning ortishi, stereotiplarning erkinligi, muhokamalarning noqulay bo'lmasligi, tashabbusi va mustaqilligi, ijodiy kasbiy faoliyatga qiziqish va tayyorligi". Albatta, bu jihatlarga e'tibor qaratishda talabalardagi yaqqol ko'zga tashlanadigan xususiyatlarga asoslanish, individual imkoniyatlarini ko'zda tutish va rag'batlantirish zarur. Bizningcha, jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlashda talabalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, musobaqalashish, kuch sinashish imkoniyatini berish ularda ijodiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga motivatsiya uyg'otadi. Ijodkorlik natijasi faqat qandaydir

mahsulotni yaratishda emas, balki ijodkor subyekting o'zini rivojlantirishida, ya'ni insoniyat faoliyati shakllarida amalga oshiriladigan taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Fikrimizcha, tarbiyachining kreativligining asosi bo'lib kasbiga nisbatan qiziqishi, mahoratini ifodalovchi ichki motivatsiyasi, iroda sohasining rivojlanganligi va tubdan o'zgargan faoliyatga intilishi hisoblanadi.

3. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati

Innovatsiya – so'zi inglizchadan kelib chiqqan bo'lib, uning ma'nosi yangilanish, yangilik kiritish, o'zgartirish degan ma'nolarni bildiradi. Pedagogik jarayonga yangiliklar kiritish bilan uning sifati va samaradorligini oshirish ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchining roli muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. Unga innovatsion faoliyatini amalga oshirishda akmeologik jihatdan yondashish maqsadga muvofiq. Akmeologiya (akme) – yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatni ongli tahlil qila olish;
- yangiliklarga nisbatan shaylik;
- faoliyatga ijodiy munosabatda bo'lish;
- o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish;
- o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy-pedagogik faoliyatda mujassam qilish kabilar.

Bundan, o'qituvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratuvchisi, amalga joriy etuvchisi va targ'ibotchisi yoki inkor etuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarida interfaol metodlar yetakchi o'ringa ega. Interfaol ta'lim metodlari ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqillikka undovchi omildir. Keyingi paytlarda ta'lim muassasalari amaliyotiga quyidagicha nomlangan interfaol ta'lim metodlari keng ko'lamda joriy etilmoqda: aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, klaster (tarmoq), insert texnikasi, pinbord, charxpalak, bumerang, muammoli vaziyat,

ishbilarmonlik o'yini, bahs-munozara, mashq va ko'plab shu kabilar. Bularning natijasida zamonaviy mutaxassisni tavsiflovchi kasbiy kompetentlikni tashkil etuvchi shaxsiy sifat va xislatlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu o'rinda biz "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" deganda ijobiy natija beradigan, ma'lum nazariyaga tayangan, qo'llanishga qulay, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar sog'ligiga putur yetkazmaydigan, shu paytgacha amalda keng ko'lamda qo'llanilmagan, ya'ni ma'lum yangiliklarni kiritib, nisbatan yuqori sifat hamda samaradorlikni ta'minlovchi omillarni tushunamiz. Shuningdek, kasbiy kompetensiyani tarkib toptirish uchun umumta'lim o'quv predmetlarini kasbga yo'naltirib, didaktik birliklarni yiriklashtirib, modullashtirib, mazmunan tutash o'quv predmetlarini integratsiyalab o'qitish texnologiyalari ham kasbiy kompetentlikni tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Kasb-hunar tayorgarligi davrida o'rganiladigan o'zaro bog'liq murakkab, majmuaviy tavsifli masalalarni yechimini topishga, ularning xarakteridan kelib chiqib, tizimli tahlil qilish, integrativ yondashish zarur.

Biz ta'lim mazmunini integratsiyalash deganda bir-biri bilan tutash axborotlarni sintezlashni ko'zda tutamiz. Shu paytgacha fanlar integratsiyasini sintezlash tushunchasi bilan sinonim deb qaralishi natijasida uning mazmuni va mohiyati birmuncha toraytirilgan. Sintez o'zaro ta'sir etuvchi elementlarning qo'shilishi natijasida yaxlitlikni hosil qilsa, integratsiya esa ko'p tomonlamalikning birligidir.

Integratsiya – ichki yaxlitlikka intilib, axborotlarni sintezlab, mantiqan tugal tuzilma va unga mos ilmiy taffakurni ko'zda tutadi. Integratsiyalash – o'quv materiallarini umumlashtirish, tizimlashtirish va zichlashtirish jarayoni bo'lib, o'quv vaqtini tejash qilish, qayta takrorlashlarni chek qo'yish, kasbiy yo'nalganlikni ta'minlash, o'quvchilarni mashg'ulotdagi ortiqcha o'quv materiallarini o'zlashtirishdan ozod qilish kabilarni ko'zda tutadi. Ta'lim mazmunining integratsiyasi yaxlitlik, Ammo innovatsiyalar va pedagogik texnologiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning yangilikka intilish motivatsiyasiga bog'liq jarayon. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati, ijodkorligi va faolligini oshirmasdan turib ta'limda bir qadam ham oldinga siljib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan ta'lim

jarayonida innovatsiyalarni, ya'ni yangiliklarni yaratish, izlash, to'plash va pedagogik jarayonga qo'llash zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar to'g'risida turli daraja va pog'onalarda fikr yuritish mumkin; davlat, mintaqaviy, oliy ta'lim, kasb-hunar, akademik litsey va umumta'lim maktab, maktabgacha ta'lim, musiqa maktablari va maktabdan tashqari ta'limda innovatsiyalar bo'lishi mumkin. Umuman pedagogik innovatsiyalar deganda pedagogik tizimga yangiliklarni kiritish, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarning borishini yangilash, natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishdir.

Innovatsiya – mavjud bo'lgan ta'rifdan, o'zgargan, farq qiluvchi degan ma'noni bildiradi. Ilgaridan loyihalashtirilgan har bir didaktik jarayon ma'lum prinsipial imkoniyatlarga ega bo'lib, u o'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma, malakalarni sifatli shakllanishini ko'zda tutadi. Ta'lim va tarbiyada zaruriy darajadagi natijani olish – pedagogik tizimni takomillashtirish, uning funksiyasini ijobiy tomonga yo'naltirish, intensiv pedagogik jarayonni vujudga keltirishni taqozo etadi. Chunonchi ta'lim-tarbiyada sifatli, samarali natijani olish uchun mavjud pedagogik tizimni moderinizatsiyalash lozim.

Shu munosabat bilan innovatsiyalarni obykti sifatida quyidagi pedagogik omillarni keltirish mumkin: o'quv-tarbiyaviy faoliyatning motivatsiyasini oshirish; darsda o'quv materiallari, mazmuni, hajmini oshirish; o'quv jarayonining samaradorligini oshirish; ta'lim jarayonida taym menejmentdan foydalanish; ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchining shaxsiy ishtiroki, faolligi va mas'uliyatini oshirish. Jumladan, innovatsiyalarni pedagogik jarayonga joriy etish yo'llarini belgilash zarur: - yangi pedagogik g'oyalarni shakllantirish; - konsepsiyasini ishlab chiqish; - dastur yaratish; - ijro mexanizmini ishlash; - amaliyotga joriy etish. Hozir respublikamizda pedagogik innovatsiyalarning yaratilishi va rivojlanishi keng pedagogik jamoatchiligining harakati, umumta'lim maktablarini moderinizatsiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilishi va dasturlarning yangilanish jarayoni ketmoqda. Yangiliklarni yaratish, izlash, to'plash, qo'llash ishlari jadallashib bormoqda.

Shu sababli, ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonlarga kiritish to'rt bosqichda amalga oshirilishi mumkin:

1. Muammoning ko‘pgina yechimini tahlil asosida aniqlash;
2. Mo‘ljallanayotgan ta’lim mazmuni, yangilikni loyihalash;
3. O‘zgarish va yangiliklarni rejalashtirish;
4. O‘zgarishlarni amalga oshirish.

Ilmiy izlanishlar natijasida takomillashtirilgan standartlar va modernizatsiya qilingan dasturlar, darsliklarning yangi avlodi ta’lim muassasalariga etkazildi. Navbatdagi kechiktirib bo‘lmaydigan eng muhim vazifa – ta’limning yangi mazmunini innovatsiyalar asosida tezroq o‘quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yaratish va qo‘llash zaruratidir. Chunki davlat ta’lim standartlari, yangi dasturlarni o‘quvchi va talabalar bilimiga qo‘yiladigan majburiy minimal bilim darajalarni ta’minlash, ta’lim sifatini kafolatlashning, ularning iqtidor, talab, ehtiyojlarini ta’minlovchi yagona omil – ularni amalga kiritishga innovatsion yondashuvdir.

O‘qituvchi innovatsion faoliyatini shakllantirishning quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich – tayyor innovatsion metodik tavsiyalarni olib qo‘llaniladi.

Ikkinchi bosqich – mavjud tizimga ayrim modifikatsiyalar kiritiladi.

Uchinchi bosqich – yangi g‘oyani amalga oshirish mazmuni, metod, shakl, vositalari ishlab chiqiladi.

To‘rtinchi bosqich – o‘quvchini yangicha o‘qitish va tarbiyalashning o‘z konsepsiyasini va metodikasi ishlab chiqiladi. Buning uchun pedagogik innovatsion texnologiyalarni to‘plash, nazorat qilish va joriy etish ishlarini tashkil qilish, shunga oid seminar, treninglar, qisqa muddatli o‘quv kurslar tashkil etish yaxshi natijalar beradi.

Innovatsion texnologiyalarni yaratish, izlash, topish, to‘plash haqida tegishli ma’lumotlar jamg‘arma bankini yaratish, tahlil qilish, tanlash, ta’lim muassasasiga joriy etish bo‘yicha tashkiliy-pedagogik ishlarni tashkil etish muhimdir.

Endi innovatsiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘llash bosqichlarini keltiramiz.

Birinchi vazifa – innovatsiyalarni izlash, to‘plash jarayoni amalga oshiriladi. Innovatsion ilg‘or texnologiyalarni to‘plab, o‘rganish va

qayta ishlash maqsadida ularni kompyuterda, kartoteka va maxsus yigʻma materiallar banklari tuziladi.

Ikkinchi vazifa – tanlash jarayoni innovatsiyalarni yigʻma banklardan olib oʻrganiladi. Mazkur ishlarni taʼlim muassasalari ilmi va metodik kengashlari, fan metod birlashmalari, tuman, shahar xalq taʼlimi, oʻrta maxsus kasb-hunar boshqarmalarida oʻrganib chiqiladi. Ular toʻplangan innovatsiyalarni respublika miqyosidagi konferensiya, metod kabinetlar, malaka oshirish institutlari, koʻrik tanlov materiallari, avgust kengashlarida targʻib qilingan innovatsiyalar; axborot va monitoring markazlari, internet xabarlaridan toʻplangan innovatsiyalarni oʻrganib, toʻplab, tanlab ulardan qulaylarini amaliy faoliyatga qoʻllash uchun moslarini, taʼlim muassasalariga tarqatadilar.

Umuman innovatsiyalarni oʻquv jarayoniga qoʻllashda oʻqituvchi va oʻquvchilarning munosabatlari hamkorlik, ham ijodkorlikda kechadi: oʻqituvchi bilimni tashuvchi, yetkazuvchigina emas, talabani mustaqil oʻqishi, bilim olishida yordamchi, maslahatchi-tashkilotchi rahbarga aylanadi; oʻqituvchi konstruktivlash, modullashtirish, algoritmlash, loyihalash, atroflicha fikrlash sharoitida ish yuritadi; oʻquv jarayoni talaba-oʻqituvchilarni oʻzaro faol ish yuritishga oʻrganishga odatlantiradi; talabaga oʻzini-oʻzi oʻqitish, faollikda, yakka, juft, kichik, katta guruhlarda ishlashga muhit yaratishi, oʻquv jarayonni individuallashtirishni talab etadi. Shu taʼriflarda oʻquv mazmunini, DTS talablari toʻla oʻzlashtirish kafolatlanadi.

Agar innovatsiyalarni taʼlim jarayoniga qoʻllashni yoʻlga qoʻyilsa:

- oʻqituvchi-professorlarning yangilikka intiluvchanligi, yangilikni yaratish, izlab topish, toʻplash taʼlim jarayoniga qoʻllash, koʻnikma va malakalari shakllanadi;

- uzluksiz mustaqil oʻz ustida ishlash asosida yangiliklarni pedagogik faoliyatga tizimli olib kirish koʻnikmasiga ega boʻladi.

- professor-oʻqituvchilar innovatsiyalar, modulli, interfaol, loyihalash, algoritmlash muhitida ish yuritadi;

- oʻquv jarayonida talabani faol qatnashishiga, masʼuliyatni his qilib oʻz fikrini bildirishga ijodiy muhit yaratadi;

- unda talaba ta'lim jarayonini sifat va samaradorligini ta'minlashda harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Quyida mutaxassislik fanlarini o'qitishda foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar haqida so'z yuritamiz.

Fikrlar hujumi texnologiyasi. Fikrlar hujumining maqsadi mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi etish, ijodiy vazifalarni bajarish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni engishdir. Ushbu usul biror muammoni hal etishda guruh ishtirokchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadi hamda eng samarali hisoblanadi. Bu uslub orqali shaxsni texnik rivojlantirish mumkin, u to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. Uslubning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va tahlil – mutoyibani rag'batlantirishdir.

Aqliy hujum texnologiyasi. Aqliy hujum texnologiyasi biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga keladigan samarali usullardan biridir. U to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi, qancha ko'p fikr va g'oyalar bildirilsa shuncha yaxshi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish, kengaytirish, qayta o'zgartirish mumkin. Berilgan g'oyalar asosida muammoni hal etishga yordam beradigan yechimni tiklash uchun muhokama o'tkaziladi. Bu haqiqatan ham talabalarning ta'lim jarayonida faoli shtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon etish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi samarali metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

Klaster texnologiyasi. Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, talabalarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda

tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu uslub biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaqlida ifodalashga undaydi.

Skarabey texnologiyasi. Skarabey uslubi interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, biror muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Skarabey texnologiyasi talabalar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. Demak, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ta'limni texnologiyalashtirish bugungi kunda dolzarbdir. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog va o'quvchi talabaning teng faolligi ta'minlanishiga erishish lozim.

O'qituvchi innovatsion faoliyati bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ta'limning bugungi vazifasi o'qituvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimlaridan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o'quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlar imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi - pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Interfaol metodlar haqida o‘z fikringizni bildiring.
2. Ta’limda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini qanday baholaysiz?
3. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish yo‘llari nimalardan iborat?
4. Interfaol metodlarning o‘rnini nimalardan iborat?
5. Interfaol metodlarning ta’limdagi ahamiyati qanday?

11-mavzu: PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Mavzu rejasi:

1. Tarbiya texnologiyalarini qo‘llashda pedagogik vositalardan foydalanish.
2. Pedagogik mahoratni oshirida zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati.
3. Ta’lim-tarbiya jarayonida komyuter imkoniyatlaridan foydalanish. O‘qituvchining komyuter texnologiyalari asosida o‘quvchilar bilimni nazorat qilish.
4. O‘quvchida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini shakllantirish.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, texnologiya, tarbiya texnologiyalari, axborot texnologiyalari, kompyuter texnologiyalari, ta’lim-tarbiya jarayoni, bilimni nazorat qilish.

1. Tarbiya texnologiyalarini qo‘llashda pedagogik vositalardan foydalanish

O‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash ta’lim metodlarning samaradorligini oshirishga, o‘qituvchilar mehnat faoliyatining o‘zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o‘zgarishiga samarali ta’sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o‘ziga xos vazifalarni qo‘yadi. Pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish: - masofaviy o‘quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa o‘qituvchilar, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarning birgalikda faoliyat olib borishi; - o‘qituvchilar o‘rtasida vazifalarning bir maromda to‘g‘ri taqsimlanishini; - ta’lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish monitoringini tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida: - ta’limning texnologik

asosini zamon talablari darajasida rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon yengillashadi; - dars jarayonini zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etish uchun maxsus malakapar shakllantiripadi; - masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo'lgan talablar va o'quv materiallarining sifatini nazorat qilishga ehtiyoj paydo bo'ladi; - ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyati takomillashadi, dars jarayonining samaradorligi o'qituvchidan o'quvchiga ko'chadi; - o'quv jarayonini tashkil etishda, o'quvchining tashkilotchiligi va shaxsiy ishtiroki ortadi; -zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o'qituvchi pedagogik faoliyatida har bir o'quvchi bilan teskari aloqasi vujudga kelishi ta'minlanadi. Jamiyatning har bir a'zosi, o'zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, o'qituvchi ham o'z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari oqimi asosida oshirib borishi mumkin. Har bir o'qituvchi mehnat faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun, avvalo, o'z axborot muhitini shakllantirishga zamin yaratishi kerak. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'z muhitida axborot obyektlarini, ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek, axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtiradi. Hozirgi kunda o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. O'qituvchi tomonidan targ'ib etilayotgan ta'lim va tarbiya tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterda ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e'tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak. Har qanday ta'lim va tarbiya tizimi ma'lum bir ijtimoiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy va nihoyat, siyosiy muhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bu muhitlarning eng ustuvori ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniy va siyosiy muhit ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni rivojlantirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari insonni iqtisodiyot, madaniyat,

siyosiy hayotda qizg'in faoliyat ko'rsatishi uchun tayyorlaydi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalari o'qituvchisi ta'limtarbiya jarayonining tayanch bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, hozirgi kunda umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ilmiy-texnik taraqqiyot o'zining ifodasini kechikib topmoqsa. O'qituvchi va o'quvchilarning fikrlashi va qabul qilish faoliyatida yangi g'oyalar, yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish ma'lum bir vaqtni talab etadi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, birinchi navbatda, ta'limning paradigmasini o'zgartiradi. Agar ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, hozir kunda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o'qishga va o'rgatishga yo'naltirilgan. Shu sababdan ta'limning o'qituvchi-darslik-o'quvchi paradigmasi o'quvchi-darslik-o'qituvchi paradigmasi bilan o'rin almashmokda. O'qituvchi endilikda yangi statusga ega bo'ladi, endi uning vazifasi o'quvchilarda mustaqil bilim olish imkoniyatlarini yaratish va ijodiy faoliyatlarini tashkil etish, bilimlarni mustaqil egallash va ularni amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iborat. O'qituvchi bunday maqsadlarda o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, u o'quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, o'zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va avvalgi egallangan bilimlardan yangilarini olishda foydalanish imkoniyatini yaratishi kerak. Bunday o'qitishni "rivojlantiruvchi" ham deb atash mumkin. Bilimlarni o'zlashtirish fikrlashni rivojlantiruvchi muhim omil hisoblansa-da, bilimlarni har qanday o'zlashtirish yoki egallash o'quvchining fikrlashiga rivojdantiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Buning uchun bilimlarni o'zlashtirishning shakllarini faollashtirish lozim. Egallangan bilimlarni oddiygina qaytarish o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishda yetarli manba bo'lolmaydi. Faol bilish, mustaqil fikrlash faoliyati juda zarurdir. Bilimlarni mustaqil egallash faoliyati va olingan bilimlarni qo'llash jarayoni yangi bilimlarning shakllanishiga, o'quvchining samarali fikrlash manbaiga aylanadi. Shu sababdan mamlakatimizda va jahonning rivojlangan davlatlarida ta'lim sohasini isloh qilish jarayonida pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi, zarur axborotlarni mustaqil izlab topish, muammoni qo'ya bilish va uning

yechimini hal etish, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil eta olish va ushbu bilimlar asosida yangi masalalarni yechishda qo'llash uchun yo'naltirilgan. Endiliqsa shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zaruriyligi barchaga ayon bo'lmoqsa. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish – bu o'quvchining yosh va shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilgor pedagogik va axborot texnologiyalaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o'qitishdir. Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan o'qitishda o'qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rangbarangligi - o'quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan ta'riflardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topishi zarur. O'qituvchining har xil sathli o'qitishni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning yechimi bo'la oladi. O'quv mashg'ulotlarini o'quvchilarning kundalik fanlar majmuasi va ular bo'yicha berilgan kundalik topshiriqlar majmuasi asosida belgilanishi, har bir o'tilgan mavzuni keyingi darsda so'rab baholanadigan qilib tashkil etilishi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holda o'quvchilar biron bir fanga o'zlarining asosiy diqqat - e'tiborini to'liq qarata olmaydilar. Bunday notugalliklarni bartaraf etishda, modulli o'qitish eng yaxshi yechim hisoblanishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Bunda uchta asosiy vazifaga e'tibor qaratiladi: 1. Ta'lim tizimini isloh etish. 2. Mustaqil faoliyat tamoyilini ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e'tirof etish. 3. Ta'lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish. Zamonaviy insonning o'qish jarayoni faqat bog'cha, umumta'lim maktablari, akademik litseylar yoki kasb-xunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta'lim olishi zarur, ya'ni ta'lim uzluksiz bo'lishi kerak. Demak, uzluksiz ta'lim - davr talabidir. Demak, bu muammo zamonaviy axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirishi shubhasiz. XXI asr - axborotlashtirish asrida ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasidan: - o'qitish va

o'qish jarayonining; - ta'lim muassasasi boshqarilishining; - ta'lim muassasasi bo'linmalarining; - ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi. Hozirgi ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni qo'llashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligi pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Jumladan, U.Sh. Begimkulov ta'lim muassasalarida kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasini yaratish zarurligini, gipermatn va multimedia, o'qitishda immitatsiya, kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma'lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi. Shu boisdan, o'qituvchi kadrlarning zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida hamda o'qituvchilar pedagogik mahoratlarini hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirishga mo'ljallangan masofaviy malaka oshirish kurslarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqadi. U.Sh. Begimkulov zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari soqasida erishilayotgan yutuqlarni hisobga olib, kompyuter texnologiyasini quyidagi jihatlarda ta'lim muassasalari pedagogik faoliyati jarayonlarida qo'llash samarali bo'lishini ta'kidlaydi: - ta'lim muassasasi hujjatlarini kiritish va shakllantirish; - dars jadvallarini tuzish; - ta'lim muassasasi o'qituvchilari hamda o'quvchilar bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish va undan foydalanish; - o'qituvchilar faoliyatining monitoringini yaratish; - o'quv muassasasi faoliyatini tezkor boshqarishning interfaol telekonferensiya, virtual maslahatlar, muhim axborotlarni o'qituvchilarning jamoaviy yoki shaxsiy kompyuterlari displeyi ekraniga tashlash orqali tez tashkil etish; - ta'limni boshqarish yoxud boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan elektron pochta orqali bog'lanish sharoitini yaratish; - boshqa o'quv muassasalari, jumladan, chet el muassasalari bilan ijodiy bog'lanishni tashkil etish; - internet tizimi yordamida axborot izlash va uni tanlash. Ta'lim muassasasining o'quv faoliyatida esa: - axborot kommunikatsion va axborot texnologiyalarini majburiy o'rganishni tashkil etish; - barcha fanlar bo'yicha o'rgatuvchi dasturlardan foydalanish; -

kompyuterda yozilgan testlar yordamida o'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish; - kutubxonalar kataloglaridan foydalanish va ommabop kutubxonalardagi kitoblarga internet orqali buyurtma berish; - o'qituvchilarning metodik ishlanmalari, ma'ruza matnlari va boshqa o'quv qo'llanmalarini nashrga tayyorlash; - internet tizimidagi ma'lumotlardan foydalanib, o'tilgan mavzu asosida o'quvchilar tomonidan ma'ruzalar va referatlarni mustaqil tayyorlashga erishish; - o'quv va badiiy adabiyotlarning elektron matnlaridan foydalanish; - ko'nikma va malakalarni oshirishda maxsus ensiklopedik lug'atlardan foydalanish imkoniyatini yaratish lozim.

2. Pedagogik mahoratni oshirida zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati

Ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda, o'qituvchi uning mazmuniga ko'ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Faol foydalanish imkoniyatiga ega kompyuter texnologiyalari quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi: - multimedia texnologiyasini qo'llash evaziga o'quvchilarda fanlarga qiziqishni rivojlantiradi; - bunda ta'limning interfaoligi tufayli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quvmaterialini o'zlashtirilishining samaradorligi oshadi; - real ta'riflarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini berishi bilan muhim hisoblanadi; - o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi; - masofadan turib ta'lim olishni faqat o'zlashtiruvchi o'quvchilar yoki internet ta'limi uchungina emas, balki sababsiz dars qoldirgan o'quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi; - o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi; - o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit

yaratadi. Ma'lumki, ta'lim mazmunini takomillashtirishning bosh xususiyatlaridan biri kompyuter bilan muloqot jarayonida uning doimiy murojaat qilinadigan «qo'llab-quvvatlovchi axboroti»ni ko'paytirish, kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasining yaratilganligi, gipermatn va multimedia, o'qitishda immitatsiya, kommunikatsiya tizimlari qabul qilingan. Ma'lumotlar bazasi deganda, axborotni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilish tushuniladi. Bir qator axborotlarni an'anaviy qayta ishlash uchun ularni tayyorlashning standart shakllari mavjud bo'lib, ularga bibliografiya, statistik ma'lumotlar, referatlar kiradi. Ma'lumotlar bazasi axborot tarkibiga statistik, matnli, grafik va ko'rinishli axborotlarni cheksiz ko'p miqdorda va albatta, belgilangan shakllardagi ko'rinishlarini qabul qiladi. Bilimlar bazasi esa, yopiq tizimda, mazkur mavzu bo'yicha qo'shimcha axborotlarga ehtiyoj sezmaganda holda va uning har bir elementi, mantiq jihatdan bog'langan boshqa elementlarga chiqa olishi bo'yicha tuzilmali axborotlashtirilgan tizimga ega bo'ladi. Bunda ushbu bilimlar bazasiga kiritilmagan, ya'ni undan tashqi elementlarga murojaat qilinishiga imkon bo'lmaydi. Bilimlar bazasining birlamchi bibliografik o'xshashlari sifatida turli ensiklopediyalar, lugatlar xizmat qiladi. O'quvchilar bilimi sifatlarini test savollari yordamida aniqlash va psixofiziologik rivojlanayotganligini tashxis qilish maqsadida kompyuter tizimiga eksport tizimi qo'shimcha kiritilgan bo'lib, bu tizim yordamida elektron tarmoq orqali bilimlarni baholash va bu masala bo'yicha yetarlicha natijalarni aniqlash mumkin. Bunday dasturiy vositalardan, ta'limdagi ta'rif va uning maqsadiga ko'ra, ba'zan o'quvchilarning ehtiyojlarini chuqurroq anglash zaruriyati nuqtai nazaridan, ularning ma'lum fan sohasida bilimlarini tahlil qilish bo'yicha boshqa bir hollarda esa, o'qitishning psixologik tamoyillarini hisobga olish maqsadida keng foydalaniladi. Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o'quv materiallari bo'yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan, ularga integrativ kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo'yicha ularning zamonaviy darajasiga oid bilimlar, madaniyat va ijtimoiy ongta dahldor bilimlarni kiritish, ta'lim mazmunini sezilarli o'zgartirish va keskin

boyitishga yordam beradi, uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo'ladi. Kompyuter vositalari yordamida mustaqil ta'limni tashkil etish nuqtai nazaridan tahlil etadigan bo'lsak, aksariyat, uning interfaolligini, bevosita muloqot yordamida o'quvchi o'quv rejasida ko'rsatilgan istalgan fan sohasida maxsus o'quv dasturlari yordamida bilim olish imkoniga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Kompyuter vositasi, o'quvchi yoxud o'qituvchi murojaatlariga «javob beradi», ular bilan bemalol «Muloqotga kirishadi», bular kompyuter ta'limi metodikasining asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. Ayniqsa, kompyuter texnologiyasining ma'lum mavzuni o'qitish bo'yicha yoxud alohida didaktik masalalarni hal etishda foydalanish kabi ta'rifda («kirib boruvchi» texnologiya nomi bilan mashxur), shuningdek, o'qitishda ma'lum texnologiyaning asosiy, aniqlovchi va eng muhim tavsiflovchisi sifatida kompyuterni qo'llanish ta'rifida kompyuter va boshqa texnologiyalar orasidagi munosabatlar masalasi juda dolzarb sanaladi. Kompyuterli o'qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati, u o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan, yangi o'quv materialini tushuntirishda, qaytarishda, umumlashtirishda, o'quvchilarning ma'lum fan bo'yicha erishgan bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirishda namoyon bo'ladi. Bunday jarayonda o'qituvchi kompyuterning o'quvchi uchun turli vazifalarni, xususan, o'qituvchilik, ishchi qurol, ta'lim obyekti, o'zaro muloqot kabi funksiyalarni bajarishini bilishi kerak. Bunda o'qituvchining vazifasi dars jarayonida o'quvchilarni kompyuterdan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilishdan iborat: Kompyuterning o'qituvchilik vazifasini bajarishi quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi:

- o'quv axborotining manbai (o'qituvchini yoki darslikni qisman, ba'zan to'la o'rni bosuvchi sifatida);
- ko'rsatmali qo'llanmalar (multimedia-telekommunikatsiya imkoniyati bo'lgan yangi sifat darajasida);
- individual axborot fazosining yaratilganligi;
- mashq qildirgich;
- o'quvchi bilimi, ko'nikma va malakasi tashxisi va nazorati muhiti.

Ishchi qurol sifatida kompyuter quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ✓ matnlarni tayyorlash va saqlash muhiti;

- ✓ matnlar muharriri;
- ✓ grafiklar quruvchi va ularning muharriri;
- ✓ keng imkoniyatli hisoblash mashinasi (olingan natijalari t>rli ko'rinishda ifoda etuvchi);

✓ modellashtirish vositasi. Kompyuterning ta'lim obyekti sifatidagi vositachilik vazifasi:

- ✓ dasturlashtirish (vazifali jarayonlar bo'yicha kompyuter yordamida o'qitish);

- ✓ dasturiy mahsulotlarni yaratish;

- ✓ turli axborot muhitidan foydalanish.

Kompyuter va internet yordamida keng auditoriya bilan bog'lanish va uning natijasi sifatida o'zaro muloqotlashuvchi jamoa muhiti yaratiladi. Kompyuter texnologiyalari asosida o'qituvchi o'zining kasbiy mahoratini oshirish uchun mustaqil faoliyatida quyidagi vazifalarni bajarishi lozim: 1. O'quv jarayonini bir bugun guruh va bir butun fan (o'quv jarayonining grafigi, tashqi tashxis, joriy, orapiq va yakuniy nazorat va boshqalar) sifatida tashkil etish. 2. O'quv jarayonida guruhni faollashtirish va muvofiqlashtirish, ish joylarini taqsimlash, ko'rsatmalar, guruh ichida boshqarish va boshqalar. 3. O'quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko'rsatish, har bir o'quvchi bilan individual muloqot olib borish. Kompyuter yordamida eshitish va ko'rish imkoniyatlari, individual o'qitishning eng samarali shakllariga erishiladi. 4. Axborot muhitini tashkil etuvchilari (shaxsiy kompyuter, o'quv va namoyish kurilmalarining har xil turlari, dasturiy vositalar va tizimlar, o'quv-metodik ko'rsatma, qo'llanmalar va boshqalar) ma'lum o'quv kursining mazmuni bilan aniqlangan bog'liqlik asosida tayyorlanadi.

Mustaqil ta'limni ta'minlashda o'qituvchi kompyuter texnologiyasi (komp'yuter savodxonligi) mazmunining quyidagi tuzilmalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak:

- ✚ informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilishi;

- ✚ kompyuter texnikasining funksional imkoniyatlarini bilishi;

- ✚ zamonaviy operatsion tizimlarni bilish va ularning asosiy buyruqlarini o'zlashtirishi;

✚ zamonaviy dasturiy vositalar va operatsion tizimlarni (Norton Commander, Windows, ularning versiyalarini) bilish va ularning vazifalarini o‘zlashtirishi;

✚ kamida bitga matn muharriri bilan tanish bo‘lishi;

✚ algoritmlar, tillar va dasturlashtirish haqida dastlabki tushunchalarga ega bo‘lishi;

✚ amaliy dasturlardan foydalanish to‘g‘risida dastlabki tajribaga ega bo‘lishi. Ta‘limni jadallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, bunda: - o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar jahonning salmoqli ilmiy, metodik adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar; - uzoq hududlarda joylashgan yetakchi ta‘lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari bilan tanishadilar; - turli mavzularda videokonferensiyalar tashkil qilish va amalga oshirishga erishiladi; - o‘qituvchilarning o‘zaro seminar va treninglari o‘tkaziladi; - masofaviy ta‘lim, axborotlar almashinish va shunga o‘xshash juda ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta‘lim muassasalari tizimiga tatbiq etish o‘quvjarayonida zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llashga hamda o‘qituvchi pedagogik mahoratini namoyish etishga keng imkoniyatlar ochadi.

3. Ta‘lim-tarbiya jarayonida komyuter imkoniyatlaridan foydalanish. O‘qituvchining komyuter texnologiyalari asosida o‘quvchilar bilimni nazorat qilish.

O‘qituvchining kompyuter texnologiyalari asosida o‘quvchilar bilimni nazorat qilishi O‘quvchilar bilimni baholashning kompyuter tizimi va o‘zlashtirish monitoringini tashkil etish uchun, avvalo, zamonaviy ta‘lim tizimida o‘qitishning sifatini tashxis qilishga, ya‘ni uning ta‘rifini aniqlamay turib, undagi jarayonlarni samarali boshqarishga, ta‘limda ma‘lum bir maqsadga erishishning iloji yo‘qligi hech kimda shubha tugdirmaydi. O‘quvchilarning yakunlovchi bilim va malakalarini ta‘lim jarayonida turli mezonlar va yondashuvlarga tayanib aniqlash, bu jarayonlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash, ularning qo‘yilgan didaktik talablarga haqiqatan mosligini nazorat qilish mumkin. Bunda pedagogik tashxis, o‘quvchilarning

bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish darajasini aniqlashni, nazorat qilishni, baholashni, yigish va statistik ma'lumotlarning tahlili hamda kelgusida bu jarayon rivojini bashorat qilishni o'z ichiga oladi. Metodik adabiyotlarda o'quvchilar o'zlashtirishlarining tashxisi, ular tomonidan erishilgan yutuqlarning darajasi sifatida qayd etish ekanligiga e'tiborni qaratsak, unda pedagogik tashxisning maqsadi, ta'lim jarayoni borishining tahlili va uni baholashni o'z vaqgida aniqlanishidan iborat bo'ladi. Ma'lumki, ta'lim jarayonini bunday baholash, faqat o'quvchining o'zlashtirish darajasini belgilash bilan chegaralanib qolmay, o'qish jarayonini ragbatlantirishda muhim pedagogik vosita va ijobiy motiv uyg'otish bilan o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir etadi. Shu xilda o'quvchini obyektiv baholash asosida unda adekvat ravishda o'z-o'zini baholash imkoniyati tugiladi va o'z muvaffaqiyatlariga tanqidiy munosabatning shakllanishi qayd etiladi. Shu nuqtai nazardan o'quvchi bilim, ko'nikma va malakalarini baholash, ayniqsa, bilimlarini nazorat qilishning kompyuterlashtirilgan tizimi, zamonaviy axborot-pedagogik tizimlarida, ularda bilimni nazorat qilishni tashxisiy ahamiyati va haqqoniyligini samarali bajarish maqsadida tinmay izlanishlar va takomillashtirish ishlarini olib borish taqozo qilinadi. Mazkur masalaning yechimi o'qitishning maqsadga muvofiq va haqqoniy bo'lishida, iloji boricha aniq va asoslangan usul sifatida qayd qilingan. Kompyuter texnologiyalari asosidagi o'quvchilar bilimni nazorat qilish faqat mutaxassis-o'qituvchilar tomonidan emas, balki pedagogik jarayon ishtirokchilari tomonidan ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday texnologiyalarni monitoring tizimida joriy qilishda pedagogik jarayon ishtirokchilari-ning axborotga, bilimga bo'lgan ehtiyoj va ishtiyoqlarini faollashtirishga erishish zarur. O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish kompyuter tizimining asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarni aniqlash, uni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish, shu asosda o'quvchilarga samarali ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati bilan, ya'ni o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, kompyuter nazoratining asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro, shuningdek, o'z-o'zini nazorat qilish

bo'yicha yondashuvlarni amalga oshirish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchidan esa, bu maqsad o'quvchilarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. O'quvchilar bilimni kompyuter texnologiyalari orqali o'qituvchi tomonidan nazorat qilishning quyidagi vositalari mavjud: - nazorat funksiyasi; - o'qitish; - tashxis; - bashorat; - rivojlantiruvchi; - yo'naltiruvchi; - tarbiya qilish. Bular ichida eng muhimi - nazorat funksiyasi bo'lib, o'quvchilar erishgan bilim, ko'nikma va malakalarning darajasini, ularning bilish faoliyati bo'yicha yondashuvlarini, bilimlarni o'zlashtirganlik ko'rsatkichlariga ko'ra ularning aqliy faoliyatlari rivojlanish darajasini aniqlashtirish imkoniyatini beradi. Uning ikkinchi muhim vazifasi o'qitish bo'lib, u o'quvchi erishgan bilimlar, ko'nikma va malakalarni takomillashtiradi, uning tizimligini nazorat qilishni ta'minlaydi. Bunday nazorat jarayonida o'quvchilar o'rganilayotgan materialni qaytarish va mustahkamlash bilan shug'ullanadilar. Bilimlarni kompyuter texnologiyalari asosida tekshirish, o'rganilayotgan materialdan asosiysini ajratib olish, shuningdek, erishilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarning mazmunini aniqlash imkoniyatini beradi. Nazoratning uchinchi - tashxis qilish vazifasi, o'quvchilarning o'zlashtirayotgan bilim, ko'nikma va malakalaridagi kamchiliklar, yetishmovchiliklar, xatolar haqida, xatolarning soni hamda xarakteri haqida ma'lumot olishga yordam beradi. O'qitish jarayonida tashxis qilish orqali nazorat ma'lum darajada ta'limning samarali metodikasini tanlashga yordam berishi bilan muhim sanaladi. Kompyuter texnologiyalari asosida o'qituvchi o'quvchilar bilimni nazorat qilishda, uning bashorat etuvchi vazifasidan, ya'ni, ta'limtarbiyaviy jarayon haqida, uning kelajagi, oldindan ko'ra bilish mumkin bo'lgan ta'riflari to'g'risida axborotlarni oladi. U o'quv jarayonining ma'lum bosqichida o'quv materialining ma'lum qismi bo'yicha mo'ljallangan aniq bilim, ko'nikma va malakalar yetarlicha shakllangani, yoxud shakllanmaganligini bashorat qilish asosida nazorat olib borish imkoniyatini beradi. Ma'lumki, ilmiy bashorat bo'yicha erishilgan natijalar o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatlari modelini yaratish uchun qo'llaniladi. Bunday bashorat o'qituvchining kelajakda o'qitishni rejalashtirish va amalga oshirish

uchun aniq xulosalar olishiga yordam beradi. www.ziyouz.com kutubxonasi Bilimlarni nazorat qilishning rivojlantiruvchi vazifasi, o'quvchilarning bilishga bo'lgan faolliklarini, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshiriluvchi nazorat jarayonida o'quvchilarda nutq, xotira, diqqat, tasavvur, iroda va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishi yaqqol seziladi. Nazorat qilishning rivojlantiruvchi vazifasi, shaxsning qobiliyati, moyilligi, qiziqishlari va ehtiyojlari kabi xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir qilishi bilan muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'quvchilar erishayotgan bilimlarni nazorat qilishda uning yo'naltiruvchi vazifasi ham mavjud bo'lib, o'qituvchi uning mohiyatini, alohida o'quvchi yoki butun guruh tomonidan o'qitishning maqsadiga qay darajada erishilganligi, ya'ni o'quv materialini qanday miqdorda va qanchalik chuqur o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Bunday nazorat tufayli o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoliklarni va kamchiliklarni o'rganib, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishda qanday yondashuvlarga urg'u berish lozimligini anglab oladi. Nazoratning yo'naltiruvchi vazifasi o'quvchining turli xususiyatlari bo'yicha o'z - o'zini yaxshi bilishga, o'zi erishgan bilimlari, qobiliyati va imkoniyatlarini anglash va odilona baholashiga katta yordam beradi. O'quvchilarni nazorat qilishning yana bir muhim vazifasi ularni tarbiya qilish bilan bogliq bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarda o'qishga javobgarlikni, intizomni, saranjomlik va sarishtalikni, axloqiy his-tuygularni tarbiyalaydi. Ularda mehnatga layoqatlilikni, g'urur va irodani hamda mehnatga nisbatan muntazam ko'nikmalarni shakllantiradi. Bunday jihat haqqoniy bo'lishi uchun internetning ta'lim resurslari talabgorlarining so'rovlari va talablariga to'la javob bera oladigan darajada bo'lishi shart. Shuning uchun ham ekspertlar tomonidan ta'lim veb - saytlarning sifatlarini baholash kompyuter tashxisining haqqoniyligida muhim o'rin tutadi. Ta'limda veb-saytlarning sifati ta'lim jarayonining axborot fazosining rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim jihatlardan sanaladi. U mazkur fazoda ta'lim olishning sifatiga va mazkur tizimning madaniyatli tashkil etilganligi darajasiga bevosita ta'sir etadi. Tashxis va monitoringni ta'limda joriy etishda mavjud metodologiyani qo'llash orqali axborotli o'qitish

muhitining tashxisiy vazifasini aniqlash imkoniyati tutiladi. Ayni paytda, o'quvchilar erishgan bilimlar, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishning keng tarqalgan yo'li - testlar yordamida tekshirish bo'lib, u kompyuterning undan foydalanuvchi bilan o'tkazadigan muloqotiga asoslangan. Mazkur tizim "o'qituvchining texnik qayta qurollanishi, uning mexanizatsiyalashtirilgan mehnati" yoki "o'qituvchi mashina" degan shiorlar ostida o'qituvchining o'quvchi bilan individual ishlash jarayonini mujassamlashtiruvchi sifatida dunyoga kelgan. Ba'zan o'quv jarayonida sun'iy intellekt tizimining qo'llanilishi baholash jarayonining murakkabligi, xususan, o'quvchini baholash uchun o'quvchiga katta miqsordagi axborotni qayta ishlashi, baholovchi va baholanuvchi orasidagi o'zaro ta'sir jarayonining murakkabligi bu masalani oson hal qilish imkoniyatini bermadi. Xususan, o'quvchi bilim va malakasini kompyuterlashtirilgan holda nazorat qilish, talab qilinadigan bilimlar majmuasining sifatini aniqlash muammosini hal qilish lozimligini, busiz erishilgan bilimlarni baholash mezonlarini va ularning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash qobiliyatlarini belgilash mumkin emasligi oydin bo'ldi. O'qituvchilar tomonidan o'quvchilar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilishning asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarni aniqlash, uni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish va shu asosda o'quvchilarning faol ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini o'zlapggirish sifati bilan, ya'ni o'quvdasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bogliq. Ikkinchi tomondan, nazoratning asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarni o'rganish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchidan esa, bu maqsad o'quvchilarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. O'quvchilarning bilimlarini intellektual nazorat qilish o'qituvchidan ziyraklikni, adolat bilan faoliyat yuritishni talab qiladi.

Bilimlarni intellektuap baholashning turli metodlari mavjud bo'lib, bular ichida keng tarqalgan metodlar:

- ✓ og'zaki yo'l bilan tekshirish;

- ✓ yozma-grafik usulda tekshirish;
- ✓ amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish orqali tekshirish.

Bilimlarvi og'zaki usul bilai tekshirish metodi asosan ikki qismdan: birinchisi, tekshirish savollari va vazifalarini, ikkinchisi esa, qo'yilgan savol va vazifalarga javoblar, talablardan tashkil topadi. Bunda savol va topshiriqlarning mazmunini belgilashda, o'rganilayotgan o'quv material mazmuni bilan ilgari o'tilgan materiallar mazmuni orasidagi bog'lanishni tahlil qilish, o'tilgan mavzuni nazorat qilishda esa yetakchi bilimlarni ajratish zarur bo'ladi. Savol va topshiriqlarning sifati o'quvchilarning aqliy faoliyatlarining xarakteriga bog'liq bo'lganidan, ular o'quvchilarning xotirasini faollashtirish, fikrlash (solishtirish, umumlashtirish, yaxlitlash va hokazo) va nutqini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Yozma - grafik usulda tekshirish, o'quvchilarning - nazariy bilimlarini; - ularni masalalar va boshqa eksperimental topshiriqlarni bajarishda qo'llay olish ko'nikmasi va malakasini; - ularda bu masalalar bo'yicha shakllangan ko'nikmalarni tekshirishni nazarda tutadi. Yozma - grafik ishlarni bajarish metodikasi quyidagi to'rt etapda bajariladi: - nazoratni o'tkazishga tayyorgarlik; - uni tashkil etish; - o'tkazish; - natijalarni tahlil qilish. Nazoratni tashkil etishda, nazorat etaplarining maqsadlarini belgilash, nazorat obyektlarining mazmunini tanlash, tekshirish vazifalarini tuzish lozim bo'ladi. Amaliy - laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish orqali tekshirish. Ushbu usul yordamida, o'quvchilarning erishgan nazariy bilimlari asosida amaliy masalalarni yechish, turli jadvallardan, formulalardan, chizmalar va o'lchash asboblaridan unumli foydalanish ko'nikmasi va malakalari tekshiriladi. Amalda masalalar yechishda o'quvchidan masalalarni yechishning algoritmini tuzish talab etiladi, chunki bunday tekshirishda o'quvchi faoliyatining mantiqiy ketma-ketligi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunday qilib, o'qituvchi tomonidan tekshirishning turli metodlari qay darajada muvaffaqiyatli ekanligi tanlanganligi, o'quvchilar bilimlarini odilona baholashda muhim ko'rsatgichlardan sanaladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik jarayonlarni quyidagicha samarali tashkil etish mumkin:

- ✓ o'qituvchilar o'rtasida mehnat taqsimotini to'g'ri tashkil etish;

✓ masofaviy o‘quv kurslari va elektron adabiyotlarning yaratuvchisi bo‘lgan jamoaga o‘qituvchilar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislarining birlashuvi;

✓ pedagogik jarayonning tashkil qilinishini takomillashtirish va o‘qituvchi faoliyati samaradorligining monitoringini olib borish.

Yangi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘qituvchining pedagogik faoliyati:

- ta’limda texnologik asoslarning tez rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi kurslarni yaratish;

- o‘quv kurslarini yaratish asosida o‘qituvchilarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo‘lgan talablarning va o‘quv materiallari sifatini nazorat qilishga oid ehtiyojlarning qondirilishi;

- o‘quv jarayonida o‘quvchi faoliyatining ustuvor mavqe tutishini, o‘quv jarayoni salmog‘ining o‘qituvchidan o‘quvchiga ko‘chishini ta’minlash;

- yangi kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish asosida, o‘qituvchining har bir o‘quvchi bilan teskari aloqasining vujudga kelishini amalga oshirish.

4. O‘quvchida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini shakllantirish

O‘qituvchida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri, bu ta’lim jarayonlariga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdir. Ta’lim tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri – axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida bosh vazifa qilib o‘quv jarayonini tashkil etish, uning mazmunini tubdan yangilash, kompyuterlashgan muhitda o‘qituvchining pedagogik faoliyati va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tashkil etish bilan belgilanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’limni intensivlashtirish va optimallashtirish

imkoniyatlari masofaviy malaka oshirishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari, professional ta'lim, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchi kadrlari malakasini oshirishdan maqsad o'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib bilim, ko'nikma va malakalarini hamda pedagogik mahoratlarini shakllantirishdir. Bugungi kunda pedagogik ta'lim samaradorligini oshirish bilan bevosita aloqador bo'lgan bir qator, hozirgacha yechimi topilmagan muammolar mavjud. Bu muammolar ta'lim sohasini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida o'qituvchi kadrlar tayyorlash, o'qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish malakasining yetarli emasligi bilan bogliq. Bu muammolarning muhim qirralaridan biri sifatida o'qituvchilarning o'zlarida ta'limni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatish mumkin. Shu narsani ta'kidlash joizki, axborotlashtirish sharoitida o'qituvchining pedagogik mahorati yanada oshadi. Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmokda. Bu, o'z navbatida, o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishga emas, balki uning vazifalari, rolini o'zgartiradi, o'qituvchilik faoliyatini yanada serqirra kasbga aylantiradi. Kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal sur'atda rivojlanishi endilikda hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik mahorati naqadar serqirra ekanligini namoyon etmoqda. Hozirgi kunda zamonaviy o'qituvchidan: - o'quv kurslari dizayneri - o'quv kurslarining yaratuvchisi; - fasiliteytor - o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;

- tyutor - o'quv kurslarini interfaol takdim etish bo'yicha mutaxassis; - invigilator - ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishni talab etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, masofaviy oliy pedagogik ta'limni yangicha tashkil qilinishiga zamin yaratadi. Bunday ta'limda o'qituvchilar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislari yordamida o'qituvchilarning yangicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish talab qilinadi. Masofaviy

o'qitish kurslarini yaratishda dastlab: - kurslarning maqsadi; - maqsadga erishish yo'llari; - o'quv materiallarini taqdim etish usullari; - o'qitish metodlari; - o'quv to'pshiriqlarining turlari; - muhokamalar uchun savollar; - munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari; - o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlash lozim. O'qituvchi kadrlar pedagogik mahoratlarini oshirish maqsadida masofaviy malaka oshirishlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, tinglovchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalana olish bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan «Ta'limda axborot texnologiyalari» kursi U.Sh.Begimqulov tomonidan taklif etildi, u mazmun va me'yor jihatidan ishlab chiqilgan bo'lib, o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini hozirgi zamon talablari asosida shakllantiradi. Shuningdek, kursning maqsadi - o'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari, kasbiy faoliyat va axborot jamiyati uchun zarur bo'lgan texnik vositalar va dasturiy ta'minot borasidagi bilim, ko'nikma va malakalari shakllantiriladi, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida, shuningdek, kasbiy faoliyatlarida har qanday muammolarni yechishda qo'llashni o'rganadilar. Dastlab o'qituvchilar boshlang'ich tayyorgarlik darajasida quyidagi talablarni o'zlashtiradilar: - matn muharririning asosiy obyektlari va ular ustida bajarilishi mumkin bo'lgan amallarni bilishi; - matnni tahrirlash va formatlash uchun matn muharririni qo'llay olishi; - grafik axborotlarni taqdim etishning rastr va vektor usullarini o'rinli qo'llay olishi; - grafik muharrirning asosiy obyektlari va ular ustida bajarilishi mumkin bo'lgan amallarni bilishi; - tasvirni yaratish va tahrirlash uchun grafik muharrirni qo'llay olishi; - elektron jadvallarning imkoniyat va vazifalarini tushungan holda ishlata olishi; - diagrammalar yaratishni bilishi; - elektron jadvallarni masalalar yechishda qo'llashi; - ma'lumotlar bazasining imkoniyati va vazifalarini tavsiflashi; - ma'lumotlar bazasining turlarini tavsiflashi; - ma'lumotlar bazasining asosiy obyektlari va ular ustida bajarilishi mumkin bo'lgan amallarni bilishi; - oddiy ma'lumotlar bazasini yarata olishi; - yozuvlarni saralash va qidirishni amalga oshirishi. Kursning modul tuzilishini quyidagilardan iborat etib belgilash mumkin: 1-modul. Ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari. 2-modul. Pedagogik dasturiy vositalar. 3-modul. Elektron o'quvmateriaplarini

yaratish texnologiyalari. 4-modul. O'qitishning zamonaviy texnik vositalari. Bunda o'qituvchilar o'z pedagogik mahoratlarini quyidagi modullar mazmunini o'zlashtirgan holda boyitib boradilar: 1. Ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari. Axborotkommunikatsiya texnologiyalari haqida tushuncha, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari, shaxsning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini yaratish, ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llashning didaktik asoslari, o'quvmaqsadli elektron vositalarni yaratish va foydalanishdagi pedagogik-ergonomik talablar va ularning sifatini baholash, o'quv-tarbiya jarayonining axborot-metodik ta'minotini va ta'lim muassasasi tashkiliy-boshqaruv tizimini avtomatlashtirish va uning istiqbollari, elektron-o'quv materiallari bazasining tuzilmasi va tarkibi, ta'limiy Internet resurslar va ulardan o'quv jarayonida foydalanish, elektron o'quv-metodik materiallar majmuasi, uning tuzilmasi va tarkibi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'limiy maqsadlarda samarali va qulay foydalanishning pedagogik-ergonomik shart - sharoitlari, informatika va axborot texnologiyalari xonasiga qo'yiladigan talablar va unda ta'lim jarayonini tashkil etishning metodik jihatlari, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari va kelajagi. 2. Pedagogik dasturiy vositalar. Asosiy tushunchalar: pedagogik dasturiy vositalarning umumiy ta'rifi, namoyish etuvchi dasturlar, nazorat qiluvchi dasturlar, o'rgatuvchi dasturlar, dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizimlar, foydalanuvchi va pedagogik-dasturiy vositalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish metodlari. Pedagogik-dasturiy vositalar yaratish tamoyillari: talabalarning psixofiziologik xususiyatlarini va kompyuterning texnik imkoniyatlarini hisobga olish, o'qitish strategiya-sining ustuvorligi; pedagogik, psixologik va funksionap to'lalilik, motivatsiyali faollashtirishning ta'minlanganligi, qo'llashdagi universallik va modul tuzilishga egalik. Pedagogik-dasturiy vositalar ssenariyasini yaratish texnologiyasi: foydalanish maqsadini aniqlash, o'quv materiallarini tahlil qilish va

tanlash, uni strukturalash va formallashtirish, pedagogik ssenariyni taqdim etish. Pedagogikdasturiy vositalar asosida o'quvfaoliyatini boshqarish. Dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi. Avtomatlashgan o'rgatuvchi tizimlar. O'qitish uchun axborot resurslarining integratsiyasi: didaktik vositalarning uyg'unligi, an'anaviy va pedagogik-dasturiy vositalardan kompleks foydalanish. Pedagogik-dasturiy vositalarni yaratishning texnik vositalari. "Lektor" tizimi va undan pedagogik-dasturiy vositalarni yaratishda foydalanish. Pedagogik-dasturiy vositalar bo'yicha praktikum. 3. Elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalari. Elektron o'quv materiallari va ularning turlari: elektron darslik, elektron o'quvqo'llanmasi, elektron ma'lumotnoma, elektron majmua, elektron katalog va boshqalar. Elektron o'quv materiaplarini yaratish bosqichlari va texnologiyasi; elektron o'quvmateriallarini yaratish prinsiplari; PowerPoint va FrontPage muhitida ilovalar yaratish. Hypermethod muhitida multimediali ilovapar va elektron o'quv materiallarini yaratish. O'quv materiallariga ovoz berish texnologiyasi va uning vositalari. 4. O'qitishning zamonaviy texnik vositalari. Audiovizual axborot: manbalari, o'zgartiruvchilar, tashuvchilari. Audiovizual madaniyat: tarixi, konsepsiyalari, tuzilmasi, faoliyat ko'rsatishi. Inson tomonidan audiovizual axborotni qabul qilishning psixofiziologik asoslari. Audiovizual texnologiyalar: rasm va rasmga olish, optik proeksiya (statik va dinamik) va uning vositalari, tovush yozish (analogli va raqamli) va uning vositalari, televidenie va videoyozuv (analogli va raqamli) va uning vositalari, kompyuterlar va multimediali vositalar. O'qitishning audiovizual texnologiyalari: tele va videokonferensiyalar, ularni tashkil etish, audio, video va kompyuterli o'quv qo'llanmalari, audio, video va kompyuterli materiallarning banki, audio, video va kompyuterli o'quv qo'llanmalarini yaratishning didaktik prinsiplari. O'qitishning interaktiv texnologiyalari. tuvchining "axborot madaniyati" quyidagi mezonlar asosida shakllanib boradi: - o'z kasbiy faoliyatiga tegishli axborotlarni olish, uni qayta ishlash va foydalanish metodpari va usullarini o'zlashtirishi; - atrof olamdagi axborot jarayonlari haqida bilimlar va tasavvurlarni aks ettiruvchi o'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtiruvchi sifatlar yig'indisi, axborot vositalariga ega bo'lish, axborot madaniyati bilan

bog'liq axloqiy - etik va kasbiy mahorat me'yorlari tizimini o'zlashtirish, shuningdek, kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi; - kompyuter savodxonligi va axborotni izlash malakasi, axborotdan foydalanish hamda baholash, kompyuter kommunikatsiyasi texnologiyalariga ega bo'lish, pedagogik faoliyatning barcha sohalarida axborot texnologiyalari imkoniyatlarini egallash va foydalanishdan iborat axborot omilkorligi. Zamonaviy axborot resurslari o'qituvchiga o'zining kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Bunday sharoitda o'qituvchi:

- Ta'lim beruvchi sifatida - mashg'ulotlar o'tkazadi, dars jarayonini o'quv-metodik jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi;
- Maslahatchi sifatida - bilish jarayonini boshqaradi, guruh bo'lib maslahat va kommunikativ mashg'ulotlarni olib boradi, o'rganilayotgan mavzuning har xil masalalari bo'yicha o'quvchilarga yakka tartibda maslahatlar beradi;
- Menedjer sifatida - mashg'ulotlar o'tkazilishini boshqaradi, to'la qonli maqsadga erishilishini nazorat qiladi (testlar, imtihonlar va shu kabilar).

Hozirgi paytda, o'qituvchining axborot madaniyatini shakllantirishning faqatgina birinchi, boshlang'ich bosqichi - zamonaviy kompyuter savodxonligini shakllantirish kuzatiladi. Ta'lim muassasalarida axborot-kompyuter vositalari bilan ta'minlash o'qituvchining kompyuter savodxonligini shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Bilish jarayonini tashkil qilishning o'zgartirilishi, kompyuterda axborot mahsulotlarini, o'quv dasturlarini yaratish malakalarini shakllantirish - o'qituvchining axborot omilkorligini rivojlantirish yo'lidagi keyingi qadam hisoblanadi. O'qituvchining axborot madaniyati axborot modelini kurish malakasini nazarda tutadi. Modellashtirishni real olamdagi hodisalar, jarayonlar va obyektlarni tadqiq qilishning universal usuli sifatida qarab, axborot modelini kurish metodiga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchini tadqiqot ishlariga jalb etadi, uning modellashtiriladigan ta'riflarda faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratadi. O'qituvchining axborotlarni modellashtirish metodlariga ega ekanligini ko'rsatuvchi yana boshqa variantlardan biri - bu darsda multimediali prezentatsiyalarni yarata olishi va ulardan foydalana bilishidir. Ular o'quv materialini algoritmik tartibda mukammal ma'lumotlar bilan to'ldirib, yorqin tayanch obrazlar tizimi sifatida ifodalash imkoniyatini beradi. O'quv-metodik qo'llanmada mavjud bo'lgan o'quv-namoyish materiallari kolleksiyasidan foydalanib,

o'qituvchi turli xil axborot resurslaridan faol material izlashni boshlaydi, bu jarayonga o'quvchilarni ham jalb etadi. Bunday hamkorlikdagi faoliyat o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantiribgina qolmay, balki o'quvchi va o'qituvchini yagona loyiha ustida ishlovchi maslakdoshlar sifatida birlashtiradi. Zamonaviy o'qitishni Internet resurslaridan foydalanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internet tarmog'i ta'lim xizmatlarining juda katga potensialiga ega. Elektron pochta, izlash tizimlari, elektron konferensiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu ta'lim xizmatlaridan, ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Internet ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchini ta'lim jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi.

Pedagogik mahorat tarkibiy tuzilishida axborot madaniyatining imkoniyatlarini oshirish, quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

- axborot hajmining keskin ortishi;
- zamonaviy fan integratsiyasi va differentsiatsiyasi tufayli yuzaga kelgan axborot tarqalishining muqarrarligi;
Davlat ramzlari - muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

Dual ta'lim - ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Didaktik tashhis maqsadi – o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit ta'rifini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) – (yunoncha «didaktikos» “o‘rgatuvchi”, «didasko» – “o‘rganuvchi”) - ta'limning nazariy jihatlarini (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolari)ni o‘rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang‘ich, dastlabki ta‘rifi) –ta‘limni tashkil etishga qo‘yilgan me‘yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta‘lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki ta‘rifini belgilovchi qarashlari.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e‘tiqodlar tizimi.

Dars - o‘z oldiga qo‘ygan aniq maqsadi va tugal mazmundan iborat jarayon.

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, o‘quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta‘lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma‘lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘quv faniga oid materiallarni davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturiga mos ravishda yoritilgan, o‘quv fanini samarali o‘zlashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olishiga ko‘maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug‘atlarni o‘z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o‘tkazish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan, o‘quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo‘shimcha materialga ega bo‘lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o‘z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta‘lim resursi.

E‘tiqod - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, huquqiy, ma‘naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik

bilimlarning takomillashgan ko‘rinishi; muayyan g‘oyaga cheksiz ishonch.

Estetik tarbiya – o‘quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go‘zalligini idrok etish, to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotiga go‘zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

Faoliyat – shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi.

Gnoseologiya – (yunon tilidan gnosis – bilim, ong, o‘rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo‘lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta’limot.

Hadis – Islom olamida Qur‘ondan keyingi o‘rinda turuvchi hadislar ishonchli axloqiy manba hisoblanadi. Haqiqiyliги puxta o‘rganib chiqilgan ishonchli hadislar sahih deyiladi. Sahih so‘zining ma‘nosi sog‘lom, to‘g‘ri, xatosiz degani. Hadisni rivoyat qiluvchi kishi isnod, hadislarini to‘plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi.

«**Hayot davomida ta’lim olish**» – kasb yoki mutaxassislik doirasida qo‘shimcha kvalifikatsiyalarni o‘zlashtirish istagidagi shaxslarni o‘qitish muddatlari oldingi ta’lim olgan dasturlarni ko‘rib chiqqan holda kasblar va mutaxassisliklarning o‘quv rejasida mazkur kvalifikatsiyalarni o‘zlashtirish uchun ajratilgan soatlardan kelib chiqib belgilanadi.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o‘zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichi.

Huquqiy ong – muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e‘tiqodlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy ta’lim – o‘quvchilarga huquqiy me‘yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to‘g‘risidagi

tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni.

Huquqiy tarbiya – shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha adapto - moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijodkor shaxs – o'zligini anglagan inson.

Innovatika – pedagogik innovatika: pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirishning, pirovardida uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot.

Innovatsiya – yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati, yangilik, ixtiro.

Ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asolangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalari va doiralarda qo'llanishini aks ettiradi.

Inson kamoloti – bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Insonparvarlik – odamzotning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashishi, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi. Insonparvarlik o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatlaridir. (Zokirov M. Ma'rifiy saboqlar. J. 2001. 67-bet).

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar – o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ilmiy dunyoqarash - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea» - g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya.

Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Individ (lotincha “individuum” bo‘linmas, yagona, alohida degan ma‘nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari.

Institut – bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo‘nalishlar bo‘yicha oliy va qoidaga ko‘ra oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta‘lim muassasasi.

Iqtisodiy tarbiya – o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta‘minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Izohlash (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta‘sir etish usuli.

Informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim – alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimai bo'lib, yig'irma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) - bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jazolash – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jinsiy tarbiya – o'zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya – o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Joriy nazorat – bu ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o'zlashtirilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi.

Kasb-hunar maktabi – ta'limning xalqaro standart tasniflagichining 3-darajasiga mos keluvchi 2 yillik ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilari boshlang'ich professional ta'lim oladi. Kasb-hunar maktablarida ustuvor yo'nalish sifatida oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik,

baliqchilik kabi iqtisodiyotimizda muhim o‘rin egallagan 200 dan ortiq ishchi kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi.

Kollej – ta‘limning xalqaro standart tasniflagichining 4-darajasiga mos keluvchi, kasblarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, 2 yilgacha bo‘lgan muddatlar davomida o‘qitishga mo‘ljallangan ta‘lim dasturlari asosida o‘rta professional ta‘lim mutaxassisleri tayyorlanadi. Vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tasarrufida faoliyat ko‘rsatadigan va shu sohadagi aniq ish o‘rni uchun mutaxassislar tayyorlaydigan ushbu kollejlarga maktablarning 11-sinf bitiruvchilari qabul qilinadi. Kollejlarda Germaniya tajribasida yaxshi samara bergan “dual” ta‘lim prinsiplari joriy etiladi: o‘quvchilar haftaning ma‘lum kunlarida kollejda nazariy bilim oladi, boshqa kunlari korxonaning o‘zida biriktirilgan usta rahbarligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelajakda ishlaydigan ish o‘rnida amaliyot o‘taydi.

Kategoriya – fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Ko‘nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi.

Kompensatsiya - (yunoncha «compensatio» – o‘rnini to‘ldirish, tenglashtirish) - oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o‘rnini to‘ldirish yoki qayta qurish.

Korreksion (maxsus) pedagogika – (defektologiya - yunoncha «defectus» – nuqson, kamchilik, «logos» – fan, ta‘limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan.

Korreksion-pedagogik faoliyat - yaxlit ta‘lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksiya - (yunoncha «correctio» - tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to‘liq tuzatish.

Kommunikativ motiv – tengdoshlarining munosabati, fikri.

Kasbiy bilimdonlik – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

Komillik – mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko‘plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuidir.

Tariximizda komillik timsollari juda ko‘p: Alpomish-xalqimizning ideal qahramoni, u aql, fahm-farosat, jismoniy kamolot, mardlik va vatanparvarlikning badiiy timsoli. Hazrat Navoiy uchun ideal-Farhod obrazi. Uaqliy va jismoniy kamolot egasi Farhod Naqshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor» tamoyilini o‘zida mujasam etgan shaxs. Oybekning «Navoiy» romanida esa Navoiy –ideal obraz. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, komil insondir. (*Bunyodkor g‘oyalar: tuzuvchilar Z.Islomov, B.Isoqov, O.Yusupov, D.Muhammadiev, S.MInavvarov. T.: Ijod dunyosi 2002y. 17-18 betlar.*)

Logopediya va nutqiv buzilishlar psixologivasi – nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlari bo‘lgan bolalar (ko‘r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) – o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Ma’naviyat (arabcha «ma’naviyat» - ma’nolar majmui) – mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar majmui.

Ma’naviyat (arabcha «ma’naviyat» - ma’nolar majmui) – mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar majmui.

Ma’rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlarni singdirish, ta’lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish, ularni targ‘ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma’rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlarni singdirish, ta’lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va

umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish, ularni targ‘ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma’ruza – yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish shakli.

Madaniyat – («cultura» so‘zidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy boyliklar tizimi.

Madaniyat – («cultura» so‘zidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy boyliklar tizimi.

Madrasa – talabalarini shartli ravishda uchta kursga bo‘lish mumkin. Birinchi, ya’ni boshlang‘ich kurs *adnā* (quyi), ikkinchi kurs – *avsat* (o‘rta) va uchinchi kurs – *a’lo* (yuqori) deb nomlangan.

Mafkura - (arabcha «mafkura» - nuqtai nazar va e’tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy yuksaklash, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar tizimi.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta’lim muaddati kamida bir yil davom etadigan oliy ta’lim.

Maktabdan tashqari ta’lim – madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda yo‘lga qo‘yiluvchi, bolalar hamda o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta’lim bosqichi.

Maktabgacha ta’lim – bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlovchi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otuvchi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta’lim bosqichi.

Malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi

Mazmun – (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mehnat tarbiyasi – shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Matematik-statistik metod – tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qoilaniladi, muammo ta'rifini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Menejment – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Menejment – odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir.

Metod – yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Metodika - (fan sifatida)– xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Munozara - (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi.

Masofaviy ta'lim – o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Nodavlat ta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta'lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs.

Norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan bo‘lib, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta'limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobilidir.

Nafosat tarbiyasi - (estetik tarbiya- lotincha «estezio» go‘zallikni his qilaman) - o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas’uliyat hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi, tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Nazorat - (ta'lim jarayonida)– ta'lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayoni.

O‘quv qo‘llanmasi – 1) ma'lum o‘quv fanlari bo‘yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o‘qituvchi yoki o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan manba; 2) muayyan fan bo‘yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o‘quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo‘shimcha o‘quv materiallari.

O‘quv-metodik majmua — darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma – darslikdagi har bir mavzuni samarali o‘qitish metodikasi, qo‘shimcha sinov topshiriqlari

va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashr.

O'quv rejasi – davlat hujjatidir. O'quv rejasi – barcha umumta'lim maktablarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi kerak bo'lgan o'quv fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

O'quv dasturi – har bir o'quv fani uchun o'quv dasuri tuziladi. O'quv dasuri o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanini o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir.

O'quvchilar jamoasi – ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o'quvchilar birlashmasi, guruhi.

O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi – o'quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.

O'rgatish – tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

O'zlashtirish – ta'lim jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O'rta professional ta'lim – kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim – texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda,

davomiyligi kamida ikki yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas’ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama.

Oliy ta’lim - o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo‘nalishlari bo‘yicha xalq xo‘jaligining turli sohalariga oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta’lim bosqichi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oraliq nazorat – o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining muayyan bob yoki bo‘limlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Pedagogika - (yunoncha «paidagogike» bo‘lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.

Pedagogika tarixi – qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo‘lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o‘rganib keladigan fandır. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning xayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqlir.

Pedagogika tarixi – ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi.

Pedagogika tarixi fanining metodologiyasi – milliy va umumbashariy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlarining ilmiy va ma’naviy merosi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.Mirziyoyevning ta'lim – tarbiyaga oid asarlari va milliy istiqlol g'oyasi haqidagi nazariyalari hisoblanadi.

Pedagog – tarbiyachi, o'qituvchi, dars beruvchi.

Pedagogik innovatsiya - (PI) – bu bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv texnologiyasini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bunda ta'limning maqsadi, mazmun-mohiyati, belgilarini, tamoyillarining innovatsion usullarini tanlash, to'plash, qo'llash usullarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar tizimini yaratish tushuniladi. Bular orqali bo'lajak mutaxassislarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta'lim-tarbiya jarayonining sifat jihatlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishishni tushunish mumkin. Pedagogik innovatsiyalar keng qamrovli, ko'p qirrali, murakkab va ijodiy tashkiliy-pedagogik faoliyat bo'lib, uning yordamida ta'lim-tarbiya jarayonining istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish mumkin.

Pedagogik loyihalash (PL) – yaratilayotgan modelni dastlabki va yakuniy ko'rinishda ishlab chiqish va uni amaliy qo'llash darajasiga yetkazishdan iborat. Pedagogik faoliyatda loyihalash obyektlari sifatida pedagogik jarayon, pedagogik – vaziyat, pedagogik – tizim, bo'lishi mumkin.

PL quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- Obyekt haqidagi ilmiy asoslangan tasavvurga maksimal yaqinlashtirish uchun uni nima qilish kerakligi haqida umumiy tasavvurlarni izlash. Loyihaviy model pedagogik faoliyatning yangilangan qismi qanday bo'lishi lozimligini, mazkur faoliyatni yaxshilashni ta'minlash omillari haqida bilimlarni o'zida mujassam etadi;

- Eskirgan samarasiz modellar o'rniga taqdim etiladigan yangiliklarni modellashtirish uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan pedagogik xulosalar namunalarini izlash;

- Pedagogik tizimning yangilangan bir bo'lagining innovatsion modelini yasash;

- Yangilikni amaliyotga joriy etish algoritmini qurish.

Pedagogik texnologiya – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o’rganadi.

Pedagogik mahorat – ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo’llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik paradigma - (yunoncha «paradeigma» - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma’lum bosqichida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko’rsatmalar to’plami; ta’limning konseptual modeli.

Pedagogik tahlil metodi – tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo’llashdan ko’zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo’nalishlarda o’rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo’lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g’oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha «sinab ko’rish», «tairiba qilib ko’rish») metodi - muammo yechimini topish imkoniyatlarini o’rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o’z in’ikosiga ega bo’la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo’naltirilgan pedagogik tajriba ma’lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o’sishida namoyon bo’ladigan miqdor va sifat o’zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

«Reyting» – (inglizcha baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo’yicha baholash. Reyting tizimi o’quvchilarning bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli sifatida e’tirof etilib, uning yordamida o’quvchilarning o’quv fanlari bo’yicha ta’lim standartida belgilangan barcha talablar bo’yicha o’zlashtirilgan bilimlari sifati baholanadi.

Suhbat metodi – pedagogik kuzatish jarayonida ega bo’lingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud ta’rifga to’g’ri baho berish,

muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to‘la-to‘kis namoyon bo‘lishiga erishish muhimdir.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obykti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me’yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o‘zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Taraqqiyot strategiyasini - 7 ta ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat. Mazkur konseptual hujjatda islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta’minlash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon qilib olindi.

Ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta’lim konsepsiyalari - (lotin tilidan «conceptio» –tizim) – ta’lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim muassasalari faoliyati yo‘nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Tarbiya - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

Ta’lim – ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

Ta’lim kampusi – yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs

markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti.

Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari - ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari.

Ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi – ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

Ta'lim menejeri – ta'lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

Ta'lim metodlari – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

Ta'lim muassasi Ustavi – ta'lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproyektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Tafakkur – (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli).

Tamoyil - (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang‘ich qoidasi; boshqaruvchi g‘oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni – shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi – (yunoncha «metodos» – yo‘l) – tarbiya maqsadiga erishish yo‘li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta‘sir etish usullari.

Tashhis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak.

Test – aniq maqsad asosida muayyan ta‘rif darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Texnikum – ta‘limning xalqaro standart tasniflagichining 5-darajasiga mos keluvchi, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bilan integratsiyalashgan, kunduzgi, kechki va sirtqi ta‘lim shakllarida kamida 2 yil muddatga mo‘ljallangan ta‘lim dasturlari asosida 11-sinfni tugatgan yoshlar o‘qitiladi.

Tiflopedagogika – (yunoncha typhlos – ko‘r) – ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o‘rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Tizim - (mustaqil tushuncha sifatida) – o‘zaro bog‘langan ko‘plab elementlar (tarkibiy qismlar) o‘rtasidagi mustahkam birlik va o‘zaro yaxlitlik.

To‘garak – o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo‘shimcha ta‘lim shakli.

Topshiriq – o‘quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul.

Tushuntirish – o‘quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

Tanqidiy fikrlash – berilgan fikrlar doirasidan chetga chiqadigan fikrlarning mavjudligi; mavzuda yangi o‘lchovlarni ko‘rish; muammolarni izlash va yechish; shuningdek, dalillangan yozuv yoki munozara shaklida ifodalanadigan fikrlar o‘rtasidagi tafovut.

Umumiy o‘rta ta’lim – o‘quvchilarning fan asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o‘zlashtirish ehtiyojini, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishni va kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichi.

Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalarini o‘rganadi.

Universitet – kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo‘yicha oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Uzluksiz ta’lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi;

Vatanparvarlik - (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) - shaxsning o‘zi mansub bo‘lgan millat, tug‘ilib o‘sgan vatani tarixidan g‘ururlanishi, buguni to‘g‘risida qayg‘urishi hamda uning porloq istiqboliga bo‘lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal – bilim (ma’lumot, axborot)larni so‘z yordamida (og‘zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

Yosh xususiyatlari – muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Yakuniy nazorat – ta’lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o‘quv materiallari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli bo‘lib, o‘rganilgan mavzular bo‘yicha yozma, og‘zaki, test shaklida o‘tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O‘zbekiston nashriyoti, 2017-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining „Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonuni 2020-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
4. Sh.Mirziyoyev. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. T. O‘zbekiston nashriyoti , 2018
5. Sh.Mirziyoyev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”, T. O‘zbekiston nashriyoti , 2018
6. Sh.Mirziyoyev “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi” T. O‘zbekiston nashriyoti , 2019
7. Sh.Mirziyoyev. “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” T. O‘zbekiston nashriyoti , 2020
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shashri. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - 222 b.
9. Azizzujayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. - T.: TDPU, 2000. - 52 b.
10. Ishmuxdmedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. - T.: TDPU, 2004. – 44 b.
11. Yo‘ldoshev J. Ta’lim yangilanish yo‘lida (o‘quv qo‘llanma). - T., 2000 y.
12. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. –Toshkent, 2007.
13. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. –Toshkent, fan va texnologiya. 2010.
14. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

15. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent, Fan, 2008.
16. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. O‘quv qo‘llanma. O‘.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
17. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
18. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.
19. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X. Xodjaev. - Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
20. Guseynov A.A. Etika. - M.: Gardarika, 1999. - 470 s.
21. Davletshin M.G., Jalilova S.I. Oliy maktabda ta’lim jarayoni samaradorligining psixologik tomonlari - T.: TDPU, - 10 b.
22. Мороз А.Г. Профессиональная адаптация выпускника педагогического вуза: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. - Киев, 1983. - 50 с.
23. Мудрик А.В. Социальная педагогика. - М.: Академия, 2003. - 200 с.
24. Muslimov N.A. Kasb ta’limi ukituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. - T., 2007. - 315 b.
25. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2011.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu: Ta’lim tizimini modernizatsiyalashning tashkiliy metodik asoslari.....	6
2-mavzu: Pedagogikaning kasbiy mahorati uning, o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni va ahamiyati.....	41
3-mavzu: Shaxsda ijodiy tafakkurni rivojlanishi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs sifatlarini tutgan o‘rni.....	53
4-mavzu: Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi.....	63
5-mavzu: O‘qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.....	89
6-mavzu: Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi. Nutq texnikasi va madaniyati..	106
7-mavzu: Pedagogik qobiliyat – pedagogik mahoratning asosi..	126
8-mavzu: Pedagogik jarayonni loyihalash. O‘quv loyihalari yaratishning pedagogik imkoniyatlari.....	137
9-mavzu: Zamonaviy ta’lim sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar..	158
10-mavzu: Interfaol metod asosida ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.....	171
10-mavzu: Pedagogik mahoratni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni.....	187
Mavzu yuzasidan test topshiriqlari.....	211
Glossariy.....	237
Foydalanilgan adabiyotlar.....	258

N. S. MIRSAGATOVA

PEDAGOGIK MAHORAT

Toshkent – «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» – 2025

Muharrir:	Sh. Kusherbayeva
Tex. muharrir:	Sh. Mirqosimova
Rassom:	U. Ortiqov
Kompyuterda sahifalovchi:	D. Bakirova



E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 97-450-11-14, 93-381-22-07.

Bosishga ruxsat etildi 14.03.2025.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times New Roman» garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 16,25. Nashriyot bosma tabog'i 16,5.

Tiraji 100. Buyurtma № 26.

**«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Foziltepa ko‘chasi, 22 b uy.**